O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

TILLARNI O‘RGANISH KAFEDRASI

“TIL – MILLAT KO‘ZGUSI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

2023-yil 18-oktabr

TOSHKENT

KBK - 80
T - 40

“Til – millat ko‘zgusi”: O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunning 34 yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023, – 203 b.

1989-yilning 21-oktabr kuni Vatanimiz tarixiga oltin harflar bilan bitildi. Zero, shu kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Xalqimizda “Til – millat ko‘zgusi”, “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”, “Til bilgan dil bilar”, “Tilga e’tibor – elga e’tibor” kabi naqllar bejiz paydo bo‘lmagan. O‘z ona tilini yaxshi biladigan inson o‘zga tillarni ham oson o‘zlashtiradi, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi.

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligining hamda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 34 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Til – millat ko‘zgusi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. To‘plamda ona tilimizning betakrorligi, badiiy boyligi, uni o‘qitish metodlari, uni keng targ‘ib etish, o‘zbek tilining jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ahamiyati, o‘zbek tilining o‘zga tillar bilan munosabati, o‘zbek tilining boshqa fanlarni o‘rganishdagi roli kabi masalalarga bag‘ishlangan maqola va tezislar jamlangan.

Konferensiya materiallari tilshunoslar, yosh tadqiqotchilar, kursantlar hamda o‘zbek tiliga qiziquvchilar, ona tilimiz taqdiriga befarq bo‘lmagan kishilar uchun foydali bo‘ladi deb umid qilamiz.

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislarning mazmuniga mualliflar javobgar.

Taqrizchilar: **Jo‘rayeva G.** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Ona tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rahimov J. – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Ijtimoiy -gumanitar fanlar” kafedrasi professori, tarix fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir: **Erkayev E.T .**– pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023

MUQADDIMA

Bugungi kunda biz yangi O‘zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz.

Sh.Mirziyoyev

Dunyo tillarini saqlab qolish, madaniy, intellektual merosning yo‘q bo‘lib ketish xavfining oldini olish maqsadida BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YuNESKO) tomonidan 1999-yil noyabrda “21-fevral – Xalqaro ona tili kuni” deb e’lon qilingan. Mazkur sana dunyoda tillarga bo‘lgan e’tibor va hurmatning ramziy ma’nosini ifodalab keladi. Ona tilimizning qadr topganligiga ham 34 yil to‘ldi.

Ona tilimizning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish, uni ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va qo‘llanish doirasini kengaytirish, ajdodlardan o‘tib kelayotgan bebaho ma’naviy merosni kelajak avlodga yetkazish, uni har tomonlama asrab-avaylash milliy madaniyatimizning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Xususan, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk marta o‘zbek tilida nutq so‘zlashi ona tilimizning nufuzi va mavqeini yanada oshirdi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan “Navoiy tili” deb ta’riflanadigan ona tilimizning jahonda e’tirof etilishi nihoyatda muhim tarixiy voqelik bo‘ldi. Bu har bir yurtdoshimiz ko‘nglida g‘urur-iftixor tuyg‘usini yanada oshirdi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona-Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim”.

Chunki yillar o‘tib, qaysi yurtning farzandlari o‘z ona tillarida o‘qishni to‘xtatsa, o‘sha til yo‘qlik qa’riga singib ketadi. Shu sababli ham tilning yot ta’sirlardan saqlash xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Ona tili xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, an’analarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat

bilan yondashishimizni taqozo etadi. Zero, til bor ekan, millat barhayotdir. Binobarin, til – millat g‘ururi, sha’ni va or-nomusi masalasi ekan, unga bo‘lgan ehtiromimizni amalda isbotlashimiz, uni har tomonlama avaylab asrashimiz shart.

Mazkur to‘plam “O‘zbek tiliga davlat tili” maqomi berilganligining 33 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Tilga e’tibor – elga e’tibor” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. To‘plamda ona tilimizning betakrorligi, badiiy boyligi, uni o‘qitish metodlari, uni keng targ‘ib etish, o‘zbek tilining jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ahamiyati, o‘zbek tilining o‘zga tillar bilan munosabati, o‘zbek tilining boshqa fanlarni o‘rganishdagi roli kabi masalalarga bag‘ishlangan maqola va tezislar jamlangan.

Konferensiya materiallari tilshunoslar, yosh tadqiqotchilar, kursantlar hamda o‘zbek tiliga qiziquvchilar, ona tilimiz taqdiriga befarq bo‘lmagan kishilar uchun foydali bo‘ladi.

KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA TABRIK SO‘ZI

Assalomu alaykum, universitet jamoasi, aziz mehmonlar! Bugungi anjumanimizga xush kelibsizlar! Hammamizga ma’lumki, o‘zbek tili o‘zbek xalqining ma’naviy mulkidir. Shu munosabat bilan 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan.

Til – inson madaniyatining ifodasidir. Darhaqiqat, har bir millatning o‘zligi uning tili va adabiyotida namoyon bo‘ladi. Til umr bo‘yi o‘rganilayotgan fan, sayqal bergan sari ochilib, yashnaydigan san’at durdonasidir. Til aloqa vositasi ekan, so‘z insonning kamolini, ilm va fazilatini o‘lchab ko‘rsatadigan tarozidir. Jahonda 3000 dan ortiq til bo‘lib, har bir millat va elat uchun eng suyuklisi o‘z ona tilidir. Biz uchun ham o‘z tilimiz g‘ururimiz va sha’nimizdir.

Til – davlat timsoli, mulki, ruhi, millatning madaniy va ma’naviy boyligi, xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir.

“O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida” 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasi bilan 21-oktabr sanasi O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 34 yil to‘lishi va mazkur sana “O‘zbek tili bayrami” sifatida nishonlanishi munosabati bilan butun respublika miqyosida qator madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Tilimizni e’zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma’naviy burchimiz bo‘lib qolishiga e’tibor qaratildi.

O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish uchun uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga kiritishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz zarurligi hamda har birimizdan tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etishi ta’kidlandi.

Xalqning, millatning mavjudligi, avvalo, uning o‘z tiliga egaligi bilan belgilanadi. 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinib, o‘zbek tilining huquqiy maqomi mustahkamlandi.

Ona tili – millat tafakkurining bebaho xazinasi, ulkan boyligi sifatida ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir. O‘zbekiston Respublikasi

Konstitusiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, “O‘zbek tili o‘zbek xalqining ma’naviy mulkidir” deya ta’kidlanishi jamoatchilikning g‘ururiga g‘urur qo‘shdi. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil Davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Xalqimiz tafakkurining tiniq ko‘zgusi bo‘lgan bu bebaho xazinani asrab-avaylash va rivojlantirish bugungi kundagi eng sharafli vazifalarimizdan biridir”.

Sizlarni yana bir bor O‘zbek tili bayrami bilan samimiy qutlab, barchangizga mustahkam salomatlik, oilangizga qut-baraka, tinchlik va omonlik tilayman.

M.X.Rustambayev,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Alimova Sh.M.
UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi, PhD;
Sadullayeva N.E.
UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

XORAZM SHEVALARIDAGI ARAB TILIGA MANSUB LEKSIK QATLAM YUZASIDAN AYRIM QAYDLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm shevalarida faol ishlatiladigan arabiy qatlamga oid ayrim so‘zlar tahlili berilgan bo‘lib, ular asosida sheva leksikasida mavjud arabiy qatlam bo‘yicha xulosa chiqarilgan.

Kalit so‘zlar. Xorazm shevalari, arabiy qatlam, sheva leksikasi, leksik qatlam, ishtiqoq (fleksiya), arabiy o‘zlashmalar.

Tilshunosligimizda arab tiliga mansub leksik qatlam bir qadar o‘rganilgan. Masala yuzasidan muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan [1: 41-124]. Shevalardagi tarixan arab lug‘aviy qatlamga mansub so‘zlarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning ko‘p hollarda asl lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, mahalliy aholi muhitiga xos tushunchalar ifodasiga xizmat qilayotganidir. Masalan, batìl [*bat’l*] so‘zi “ishlatilmay yotgan ariq, zovur; yaroqsiz holga kelib qolgan sug‘orish sistemasi, qurol, asbob” [2:26] ma’nosini anglatadi: *yap batìl vop yatìptì*. Uning bu ma’nosi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sheva so‘zi ekanligi haqidagi qayd bilan berilgan:

Botil 1. [arabcha باطل - yolg‘on, soxta; befoyda] esk. kt. Soxta, yolg‘on, asossiz; foydasiz... Qil yaxshiligu demakni doxil qilma, Minnat bila yaxshilikni *botil* qilma. (Alisher Navoiy).

Botil II shv. Yaroqsiz holga kelib, ishlatilmay qolgan (ariq, zovur haqida). Bu damba qachonlardir *botil* bo‘lib qolgan Bo‘zyop ariq dambasi edi. “Sharq yulduzi” [5:328].

Ko‘rinadiki, so‘zning shevada kasb etgan ma’nosi ham birlamchi ma’nodan uncha uzoqlashmagan, mahalliy aholi maishiy hayotiga moslashgan holda ma’no o‘zgarishiga uchragan. Eski o‘zbek tilida *botil*

“buzilgan, buzuq, bekor qilingan” kabi ma’nolarni anglatishi [4:129] fikrimizni dalillay oladi.

Eski o‘zbek tilida *bodiya* sahro, cho‘l ma’nosini anglatsa, Xorazm shevalarida *badya* [*badya*] “sopol tovoq, katta shokosa” (*bi̓r badya borak, ortasinda chərək* topishmoq – osmon, oy yulduzlar) ma’nosini anglatadi. Bu so‘z ayni *sahro* ma’nosida Munis va Ogahiy asarlarida ham keng ishlatilgan: “bu mavsum taqozosi bila beparvolig‘ *bodiyasida* jununtoz erdim [6:45]”.

Xorazm shevalaridagi tarixan arab lug‘aviy qatlamiga mansub so‘zlarning ayrimlari etimologik jihatdan tub va yasama so‘zlarga ajraladi.

Tub so‘zlar yasamadan faqat bitta lug‘aviy ma’noga ega komponentdan tashkil topishi, tarkibida yasovchi affiks mavjud bo‘lmasligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *kitâb, ishq, muhabbat* kabi. Shu o‘rinda eski o‘zbek tili uchun ham, hozirgi o‘zbek tili uchun ham sodda so‘z sifatida qaraladigan birliklarning aksariyati aslida yasama bo‘lib, arab tilidagi ichki fleksiya qoidalari asosida yuzaga kelganini qayd etish lozim. Ular tilimizga tayyor leksema sifatida qabul qilingani, ularning yasalishida turkiy tillar yasalishi tizimining o‘rni bo‘lmagani bois sodda so‘z sifatida baholanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Tarkibiy tahlil natijasidagina ularning aksariyati yasama ekani oydinlashadi. Arabiy o‘zlashmalarning tarkibiy tahlilini esa arab tilining ishtiqoq (fleksiya) qonuniyatlariga asoslanmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Shevalardagi arabiy so‘zlarning tarkibida o‘zakning qanday xarakter (masalan, undoshlar soni, ularning takroriy yoki takroriy emasligi)da ekanini hisobga olish muhim.

Arab tiliga mansub leksik qatlam o‘zbek tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan. Uning ijobiy va salbiy xususiyatlari, ijtimoiy-siyosiy sabablari haqida ko‘plab fikrlar bildirilgan [2:41-124]. Xorazm shevalaridagi arabcha leksik birliklarning asosiy qismi ot so‘z turkumi shaklida qabul qilingan bo‘lib, ular ko‘proq mavhum tushunchalarni ifoda qiladi. Ularni 1) o‘zbek adabiy tilidagi arabcha so‘zlardan fonetik jihatdan farq qiluvchi o‘zlashgan leksik birliklar (*dövlät [davlat], avliyā [avliyo], täv̀ip [tabib], dövra [davra], ārvā [arava]* kabilar); 2) o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, biroq Xorazm shevalari leksikasida qo‘llanadigan arabcha leksik birliklar (*bällì [balli]* “nishon, belgi”; *bällì-kűllì [balli-kulli]*

“butunlay, batamom”; *näːl [nal]* “taqa”, *ɣässal [gʻassol]* (adabiy tilda boʻlmagan “dangasa” maʼnosi nazarda tutiladi), *ravat [ravot]* “manzil”, *ǯűbbä [jubba]* “bolalar kiyimi”); 3) oʻzbek adabiy tilidagi arabcha qatlamdan maʼnosiga koʻra farq qiluvchi leksik-semantik dialektizmlar (*äyyam* [allaqachon], *vaǯ* [narsa] kabi) tarzida ajratish maqsadga muvofiq. Biz bu oʻrinda A.Allamberdiyev tadqiqotlaridagi mazkur tasnif Xorazm shevalari leksikasi tarkibidagi arabizmlarga ham xos, deb hisobladik. Masalan, *hi̇ǯab* [*hijɔp]* “hayo-ibo; uyalish-tortinish” oʻzbek adabiy tilida *hijob* “yuzga tutiladigan parda, toʻsiq”; oʻzbek adabiy tilida *ayyom* “bayram kuni, bayram kunlari” Xorazm shevalaridagi *ājjām [əyyɔm]* “allaqachon” kabi.

Xorazm shevalaridagi arabiy qatlamga mansub ayrim soʻzlarning asli oʻzbek adabiy tilidagi shaklidan bir oz farq qiladi. Masalan, *arava – arva//arba* shaklida ishlatiladi. Mana shu soʻz ishtirokida *koʻrpaga oʻt qoʻymoq* iborasining shevadagi sinonimi sifatida *arvani̇ avdarmaq* iborasi ham shakllangan. Arava soʻzining asli arabcha “araba” boʻlib, arab soʻzining “koʻchmanchi, badaviy” [3:530] maʼnosi bilan bogʻliqlik kasb etadi. Shu oʻzlashma asosida *arvach* – 1) aravakash; 2) aravasoz soʻzlari yasalgan.

Arsh Xorazm shevalari va boshqa oʻzbek shevalarida “arava shotisi” maʼnosida ishlatilsa ham, uning adabiy tildagi [5:102-103] maʼnolari ham mavjud: *Vundiy dema, allani̇ arši̇ qozɣaladi̇* – unaqa dema, Allohninng arshi qoʻzgʻaladi.

Asrlar davomida shevalarga arab tilidan falsafiy-maʼrifiy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar ham oʻzlashganini koʻramiz. Masalan, *ādl* soʻzi 1) diyonat; 2) odil maʼnolarida ishlatiladi. *Här i̇šdä ādi̇l boli̇š käräk* [Har ishda odil boʻlmoq kerak] kabi gaplarda har ikkala maʼnoni anglash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир / Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1949. – Б.87–102; Камол Ф. Лексикология / Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б.96 – 98; Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. –

Б.213–220; Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составидаги тожик-форсча ва арабча сўзлар / Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.108-127; Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-тарихий асослари / Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.41-124.

2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари I том. – Тошкент: ЎзФА, 1961. – Б.26.

3. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б.530.

4. Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.129.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.102-103.

6. Шермуҳаммад Авазбий ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Фирдавсу-л-иқбол (Бахт-саодат жаннати). – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019. – Б.45.

Артыкова Г.Ш.
УрГУ, доцент;
Рузметова З.Н.
УрГУ, доцент

ОБ ИЗУЧЕНИИ СТРУКТУРНЫХ ТИПОВ СЛОЖНОПОДЧИНЕННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Аннотация: В статье описываются методы и приемы усвоения структурных типов сложноподчиненных предложений. Рассматриваются сложные вопросы разграничения СПП, в которых придаточная часть относится к слову как лексико-морфологической единице, и предложений с придаточной частью, относящейся ко всей главной части.

Ключевые слова: расчлененная структура СПП, нерасчлененная структура СПП, присловное и неприсловное придаточное, асемантические и семантические союзы, СПП меры и степени.

Одним из сложных вопросов при изучении сложноподчиненных предложений в национальной аудитории является разграничение сложноподчиненных предложений, в которых придаточная часть относится к слову как лексико-морфологической единице (нерасчлененная структура СПП), и предложений с придаточной частью, относящейся ко всей главной части (расчлененная структура СПП).

Определение структурного типа СПП по вопросу как единственному критерию, как известно, влечет за собой ошибки. Например, если руководствоваться вопросами, то предложения: Минут через десять наступила такая темнота, что уже не было видно ни звезд, ни полумесяца. Это был такой праздник, который запомнился навсегда – можно отнести к одному и тому же типу, потому что придаточные части в этих предложениях отвечают на вопрос какой? Но, следует отметить, что в первом предложении придаточное степени, а во втором – определительное. В первом предложении указательное местоимение в главной части является обязательным элементом структуры, а во втором используется факультативно.

Одним из продуктивных приемов, который может быть использован без обращения к вопросам, - это чтение только главного предложения. В случае, если главное без придаточного непонятно, невозможно, то такое сложноподчиненное предложение относится к нерасчлененным. Если же главное без придаточного возможно, понятно, то перед нами расчлененная структура СПП. Сравним: Мне казалось, что мы будем говорить с вами без умолку, до утра. (А.Чехов). И основная мысль, пожалуй, близка к правде, хотя можно было бы спорить без конца. (А.Чехов).

Студентам может быть предложено задание домыслить придаточные части: соотнесите главные части предложений в левом столбце с придаточными частями в правом столбце и заполните таблицу «Выбери меня».

Главная часть	Придаточная часть
1. Я уверил себя,	I. кто бы он ни был (А. Чехов).
2. Мне нужен мир,	II.коль хочешь навсегда быть честный человек (Фонвизин).
3. Человек должен трудиться в поте лица,	III.как роща зеленеет, палящим солнцем облита (Ф. И. Тютчев)
4. Ты должен посвятить отечеству свой век,	IV. что эта осень первая и последняя в моей жизни (К. Паустовский).

Выбери меня

Главная часть	1	2	3	4
Придаточная часть				

В сложноподчиненных предложениях, в которых придаточное предложение относится к одному слову (присловное) союз или союзное слово предсказуемы, так как это слово требует определенного союза или союзного слова. В предложениях расчлененной структуры (неприсловные) такого требования нет. На данное положение предлагается следующее задание: продолжите предложения так, чтобы они получились сложноподчинёнными:

1) Студенты часто спрашивают о том, ...

2) В этом рассказе повествуется о том, ...

3) Я пойду в университет, ...

4)Преподаватель объяснил тему так, ...

5) Наконец мы увидели берег, ...

Немаловажную роль для разграничения структурных типов сложноподчиненных предложений играет анализ средств связи (союзов и союзных слов). Поэтому имеет место выполнение следующих заданий:

1. распределите союзы по группам: асемантические и семантические;

2. замените в предложениях, где возможно, один союз (союзное слово) другим.

Необходимо обратить внимание студентов на то, что в присловных предложениях такая замена не изменяет типа сложноподчиненного предложения: Вот парк, в котором я люблю гулять в свободное время. Вот парк, где я люблю гулять в свободное время. Вот парк, куда я люблю ходить в свободное время. В неприсловных она приводит к изменению типа СПП: Я пойду в библиотеку, чтобы подобрать необходимый материал для реферата. Я пойду в библиотеку, когда закончатся занятия. Я пойду в библиотеку, если успею. Я пойду в библиотеку, несмотря на плохую погоду. Я пойду в библиотеку, потому что мне необходимо подобрать материал для реферата.

3. найдите соответствующий союз или союзное слово и вставьте его в предложение. Заполните таблицу «Найди меня».

Союз, союзное слово	ПРЕДЛОЖЕНИЕ
А. которое	a. К концу сентября перелески обнажились,…сквозь чащу деревьев стала видна синяя даль сжатых полей.
Б. ли	b. И вдруг вы остановитесь, … вас остановит перед собой этот лесной цветок.
В. поэтому	c. Я стал дожидаться, скоро… солнышко встает
Г.как	d. Дайте дело такое,… было бы мне по душе.
Д.потому	e. Жизнь теченье своё изменила, … река изменяет

что русло.

Найди меня

Союз, союзное слово	А	Б	В	Г	Д
ПРЕДЛОЖЕНИЕ					

Большим подспорьем при анализе присловных СПП являются упражнения, направленные на выделение и характеристику тех слов, к которым относится придаточная часть (опорных слов). В изъяснительных сложноподчиненных предложениях опорные слова требуют изъяснения, в предложениях с определительной придаточной частью опорные слова всегда имена существительные, в СПП меры и степени – указательные местоимения (местоименные наречия). Следует обратить внимание на то, что в изъяснительных предложениях опорное слово может быть выражено существительным, прилагательным, глаголом, наречием, т.е. важным является то, какое именно слово требует изъяснения. На этот прием студентам можно предложить задание заполнить таблицу «Один из четырех»:

1) Укажите сложноподчинённое предложение с придаточным изъяснительным.

а. Иной раз народится такой день, что радости не оберешься.(Паустовский)

б. По старым охотам знаю, какими прекрасными могут быть последние деньки осени.(Пришвин)

с. Мне припомнилась нынче собака, что была моей юности друг. (Есенин)

д. Бывает так, что пристанет к тебе одно слово и не дает покоя. (Паустовский)

2) Укажите сложноподчинённое предложение с придаточным определительным.

а. Кусты местами были так часты, что составляли непроходимый лес. (Гончаров)

б. Говорят, что человеку время от времени полезно пожить в одиночестве. (Паустовский)

с. Я презирала этих напудренных и надушенных девиц, которые не обращали на нас с Левой никакого внимания.(Алексин)

д. Обращаясь к Андрею, полковник рассказывал, какое значение для них имеет новый прибор. (Гранин)

3) Укажите сложноподчинённое предложение с придаточным местоименно-определительным.

а. Музыканты, которые играют в фойе, не имеют права быть «не от мира сего», и им как-то не принято посвящать свою жизнь.(Алексин)

б. Я давно заметила, что о самых простых вещах они почему-то любят говорить шепотом и с таинственным видом.(Алексин)

с. Звезды бились и сверкали серебряной чешуей, как бьется в сетях пойманная камса. (Паустовский)

д. Каждый, кто переправляется через Музгу, обязательно посидит у шалаша дяди Васи (Паустовский);

Один из четырех

1 2 3

Для выявления особенностей нерасчлененных и расчлененных СПП следует обратить внимание на упражнения, которые направлены на выяснение возможности/невозможности изменения позиции придаточной части.

Таким образом, изучение сложноподчиненных предложений необходимо проводить в тесной взаимосвязи с морфологией, придавать значение грамматическому разбору, который помогает определить, какими союзами, союзными словами связываются предложения в составе сложноподчиненного, какое место занимает придаточное по отношению к главному.

Литература:

1.Воителева Т. М. Теория и методика обучения русскому языку.— М.: Дрофа, 2006. — 320с.

2.Голуб, И. Б. Уроки русской орфографии. О сложном просто и легко.— М.: Логос, 2002. — 160с.

3.Розенталь Д.Е., Голуб И.Б., Теленкова М.А. Современный русский язык: Учебники для вузов. – М., 2000.

Атаева Р.Р.,
старший преподаватель кафедры изучения языков Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ И КОГНИТИВНЫЙ АСПЕКТЫ ВЗАИМОВЛИЯНИЯ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ (НА МАТЕРИАЛЕ ИСТОРИЗМОВ)

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о взаимовлиянии узбекского и русского языков, в частности, прагматический и когнитивный аспекты. Материалом исследования послужили устаревшие слова в тексте произведений “Башня молчания” и “Заклинатель змей” Явдата Ильясова.

Ключевые слова: взаимовлияние, русскоязычный писатель, устаревшие слова, историческая реальность, картина мира.

Как известно, носители русского языка проживают на территории Узбекистана, в основном, с начала XX века. Именно с этого времени стало наблюдаться многоаспектное взаимовлияние русского и узбекского языков, которое стало лингвистической традицией и сыграло определенную роль в развитии лексической системы данных языков. Объектом изучения языкового взаимовлияния являются художественные произведения русскоязычного писателя Узбекистана Явдата Ильясова. Ниже проанализируем фрагменты художественных текстов в указанных аспектах.

Весьма обширной является группа слов, оказавших влияние на лексику русского языка – это термины, связанные с мусульманской религией, и историзмы узбекского языка.

*«Чего он боится? Перед совестью своей чист Омар. Их свело взаимное влечение. Судьба, можно сказать. Им хорошо вдвоем, – при чем же тут какой-то дурацкий закон? Любовь на земле возникла задолго до правой веры. Она не подчиняется **шариату**»* [1, с. 323].

*«При Фердоуси находился его чтец Абу-Дулаф. Он огласил перед царем посвящение и вступление к «Шахнамэ», и царь как будто остался доволен ими, как и **своим визирем**»* [1, с. 325].

В данных контекстах наблюдается использование лексем ***шариат***, ***вазир.***

*«Как бы не вызвать недовольство вышестоящих хорошим отношением к человеку, чем-то не угодившему **шаху**, **султану**, **хану**, **эмиру**, **хакиму**, **сепахсалару** и прочим знатным, дьявол бы их всех унес! Обмельчали братья-стихотворцы…»* [1, с. 326].

*«**Султан** спросил: "Чей это столь чеканный стих, умножающий мужество?» – "Несчастного Абуль-Касима Фердоуси, – ответил **визирь Катиб**, – который корпел тридцать пять тяжких лет над своей "Шахнамэ", но так и не получил за нее достойной награды»* [1, с. 327].

Как видно, русским языком заимствованы такие устаревшие слова (историзмы), как ***shoh*** (шах), ***vazir*** (визирь), ***sulton*** (султан), ***sipohsolar*** (полководец, военаначальник), ***xon*** (хан), ***amir*** (эмир), ***hakim*** (ученый, мыслитель; мудрец) и др. Причина такого заимствования заключается в более точном в историческом аспекте бытоописании узбекского народа. Ряд таких слов можно продолжить названиями профессий. Такие слова, как ***sarrof*** (меняла), ***hokim*** (хаким, мэр), ***sulton*** (султан), выделенные в нижеследующем тексте, относятся к профессии или должности:

*«– Готовь расписку, мошенник! Не сок гранатовый пьешь – кровь мою пьешь. Посидите тут во дворе. Пока я схожу **к саррафу-меняле**, у которого деньги держу»* [1, с. 358-359].

*«Он ушел к **саррафу**, заперев предварительно в доме дверь на замок. Замок, хоть и деревянный, крепкий – и хитрый. Это внутренний засов. Ключ – палочка с шипами, расположенными в определенном порядке, вставляется в щель, скрытую в резных узорах*

двери. Зубья его попадают в соответствующие отверстия запора и поднимают штифты, после чего, просунув руку в особое оконце, можно отодвинуть засов. Разгадать секрет запора невозможно, ключ к такому замку не подберешь» [1, с. 359].

*«Пирует во дворце чуть поменьше **хаким** – городской правитель из местных дехкан, богатых землевладельцев. Он верой и правдой служит тюркам. Ибо это выгодно ему. И жмутся поближе к хакиму чиновники всех степеней из коренных грамотных жителей. А также орава их ненасытных слуг, переписчиков и рассыльных»* [1, с. 362].

*«В его руках – арсенал и казна государства, и Алтунташ казался себе чуть ли не равным **султану**. Он сам решает судьбы людей. Судьбу **Ханифе**, например,....»* [1, с. 476].

В ходе анализа было отмечено, что многие слова, обозначающие религиозные понятия в художественных текстах на русском языке, возникли под влиянием узбекского языка. Например:

*«**Шайтан!** Как только в дело вмешается женщина, считай, оно пропало. Видно, не зря ее называют исчадием ада. Ее, говорят, не пускают в рай. Ибо еще неизвестно, имеет ли женщина душу, – о чем уже который век спорит с пеной на губах богословская братия»* (Явдат Ильясов. Башня молчания, с. 333). Обычно в русском языке используется слово ***дьявол***. В данном примере наблюдается использование слова ***шайтон*** (черт, дьявол, сатана)..

*«Где я его возьму? – вопросил уныло Омар пустоту. – Не подарок, – отца, **мир его праху**. И где возьмет его Эль-Мирра? Особый случай»* [1, с. 334]. В русском языке, когда вспоминают усопшего, обычно используют выражение ***«Пусть земля будет пухом»***. Но в этом примере можем увидеть влияние выражения сложного сочетание в узбекском языке ***«Alloh rahmat aylasin»***.

В большинстве анализируемых художественных текстах Явдата Ильясова лексема ***«Бог»*** *заменена традиционными мусульманскими понятиями* ***«Xudo», «Аллах»***. Например:

*«И подумала я, да простит меня **аллах**: зачем искать невесту далеко, брать ее со стороны, когда через ограду, в соседнем дворе,*

живет девица на выданье? Вот и пришла посмотреть, разузнать, закинуть словечко...» [1, с. 341].

*«Толстуха, жена пекаря, вернулась к вечеру с другой толстухой, женой **имама** квартальной **мечети**»* [1, с. 342].

*«Соблазнилась! Квартал-то бедный. Он – в той части Нишапура, где, в отличие от городского центра с его большими усадьбами, просторными садами, бассейнами, высокими **медресе и мечетями**, жуткая скученность и невзрачность. Где, как писал один арабский географ, "в людях… грубость, в их головах – легкомыслие; нет изящества и учтивости, нет красивых **мечетей**. Улицы захламлены, **базары** запущены. Бани грязные, лавки убогие, стены неровные"»* [1, с. 342].

В вышеперечисленных примерах широко использована религиозная лексика: ***имам***, ***мечеть***, ***медресе***.

*«"**Шайтан вас носит**, **–** негодовала она в душе. – На весь день сорвали мне работу".*

*– Он безбожник, – строго молвила **хатун-бий** – ученая женщина. Ученой она называлась по мужу-**имаму**, сама не умела ни читать, ни писать. Но память у нее была хорошей. Без этого не проживешь. – "И может быть, вы, – произнесла она нараспев стих из **корана**, – ненавидите что-нибудь, а оно для вас благо, и может быть, вы любите что-нибудь, а оно для вас зло, – поистине, **аллах** знает, а вы не знаете!" Омар Хайям – зло для вас, о сестра. Не к лицу честной мусульманке родниться с таким человеком. Да и не человек он вовсе! **Он сам шайтан**, язычник, поэт беспутный. Все женщины квартала перестанут с вами здороваться»* [1, с. 343].

В данном отрывке наблюдается использование таких единиц религиозной лексики, как ***имам***, ***коран***, ***аллах***, ***шайтан.*** Интересно использование выражения ***шайтан вас носит***, появившегося под влиянием такого синтаксического единства, как ***sizni shayton yo'ldan urdi***.

«… Омар не молился. Шейх и мальчик вернулись в жилье.

*– Где тут **кабла**? – вопросил Газали, стараясь определить сторону, в которой находилась Кааба, храм в Мекке, куда мусульманину следует обращаться с молитвой.*

*– **Кааба**? – сказал Хамид. – Я знаю, где она. Стена с окном – на севере; с нишами, выходит, на юге. Молись в юго-западный угол, там и есть Кааба…*

– Становись рядом, – приказал богослов» [1, с. 441].

В этом примере используются понятия ***кабла*** (қибла), ***кааба*** (каъба).

Проведенный анализ позволяет сделать вывод о том, что понятия, отражающие религиозное содержание, требуют именно этих лексем, чтобы адекватно исторической реальности выразить мысль на русском языке.

Влияние узбекской языковой картины мира на русский язык проявляется также и в таких ситуациях, как мольба, прошение, просьба об отпущении грехов к Творцу. Например:

*«– **А-ах… аллах!***

Стража схватила бродягу, оттащить его прочь. Произошло замешательство. Визирь повернулся спиной к этой стороне толпы…» [1, с. 450).

*«– **Безграничен аллах в своих милостях!** – ликовал Ибрахим в дороге. – Небывалый нынче хурдад (месяц май.) В иной год в эту пору трава уже выгорает, деревья густо заносит пылью, – встряхнешь, – с головою накроет. А сейчас? Каждую ночь гроза и ливень, днем солнце сверкает. Воздух чист, всюду свежая зелень»* [1, с. 12].

*«– **Ради аллаха!** – крикнул кто-то богобоязненный. Но скоморох, испытующе, с умыслом помедлив, твердо произнес:*

– Ради самого себя» [1, с. 21-22].

*«Может, не зря вопрошал хмельной старичок Мохамед в Баге-Санге: “**Во имя бога** – это во благо тому, кто верит в бога? Или – во зло?”»* [1, с. 30].

Вышеуказанные примеры являются обращениями, мольбой, используемыми представителями исламской религии. Выделенные единицы образовались в результате когнитивного воздействия на

русский язык таких структур, как ***Allohning marhamati keng, Alloh haqi, Allohning nomi ila boshlayman.***

Таким образом, узбекский язык, безусловно, оказывает непосредственное влияние на языковую картину мира узбекистанцев, для которых русский язык является родным языком. Соответствующее влияние пронизывает все языковые уровни: как правило, лексические единицы с фонетическими и орфографическими изменениями (***кабла*** (qibla), ***кааба*** (ka'ba), ***хаким, мэр*** (hokim), ***султан*** (султон), структуру предложений с некоторыми трансформациями (***шайтан вас носит - sizni shayton yo'ldan urdi, пусть земля будет пухом - Alloh rahmat aylasin)***. Влияние второго языка на первый наблюдается особенно в тех языковых единицах, которые выражают культурную особенность того или иного народа.

На основе изучения когнитивного и прагматического взаимовлияния узбекского и русского языков установлено, что заимствованные узбекские слова занимают определенное место в лексическом фонде русского языка, поскольку отражают практически все сферы человеческой деятельности. Формирование содержания языкового сознания носителя языка находится, прежде всего, под непосредственным влиянием родной культуры и языка.

Литература:

1. Ильясов Явдат. Заклинатель змей. Башня молчания. – Т.: изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1986. - 496 с.

2. Атаева Р.Р. Структурное своеобразие русских поливершинных словообразовательных гнезд асимметричного типа //Вестник Челябинского государственного университета. – 2019. – №. 6 (428). – С. 23-31.

3. АТАЕВА Р. Р. Словообразовательное гнездо как комплексная единица словообразовательной системы русского языка //Иностранные языки в Узбекистане. – 2019. – №. 1. – С. 33-45.

4. Атаева Р.Р. СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ГНЕЗДА //Ответственный редактор. – 2022. – С. 34

5. Egamberdieva G.M. Ob osobennostyakh perevoda dastana «Rustamkhan»[On the Peculiarities of the Saga “Rustamkhan” Translation] //Zvezda Vostoka. – 2016. – №. 3. – C. 144-146.

6. Egamberdieva G.M. O horezmskih skazkah, zapisannyh AN Samojlovichem. POLISH JOURNAL OF SCIENCE. № 36-2 (36). – 2021.

7. Эгамбердиева Г.М. К вопросу о синкретизме в фольклорных жанрах //Филология и лингвистика. – 2020. – №. 2. – С. 11-13.

8. Umarova F. The student’s personal development as a key to sustainable development //Lifelong Learning: Continuous Education for Sustainable Development: proc. of Int. coop./arr. NA Lobanov; sci. ed. NA Lobanov, VN Skvortsov; LSU na AS Pushkin, Res. Inst. Soc.-Econ. and Ped. Probl. of Lifelong Learn.–SPb.: LSU na AS Pushkin, 2011.–Vol. 9.–656 p. – 2011. – C. 564.

9. Умарова Ф.З. Готовность педагога к личностно-ориентированному образовательному процессу в школе //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2010. – Т. 8. – С. 385-387.

10. Umarova F.Z. Preparedness of teachers for a learner-centered educational process in school //Lifelong Education: Lifelong education for sustainable education: Works of international cooperation–V. 8/arr. NA Lobanov; sci. ed. NA Lobanov, Skvortsov VN Leningr. St. Univ. na AS Pushkin, Res. Inst. soc.-econ. and ped. probl. of LLL.–SPb.: LSU na AS Pushkin, 2010.–592 p. ISBN 978–5–8290–0905–2. – 2010. – C. 347.

Ataxanova M.R.
UrDU magistranti

KOMIL AVAZNING “YOQUT MOMO” HIKOYASIDA DIALEKTIZMLARNING ISHLATILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining eng faol va eng mahsuldor ijodkorlaridan Komil Avazning “Yoqut momo” hikoyasida ishlatilgan Xorazm shevalariga xos bir qancha dialektizmlar tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar. *Xorazm shevalari, dialektizm, leksik dialektizmlar, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no, adabiy til, grammatik dialektizmlar.*

Hozirgi davrda jamiyatimizni yangilash va rivojlantirish sohasida jadal harakatlar amalga oshmoqda, bu vazifani to‘la va muvaffaqiyatli hal qilish, xalqimiz ruhiyati va ma’naviyatini yuksak darajaga ko‘tarish, uning “ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi” [1:47]. Ushbu dolzarb vazifalarni bajarishda istiqlol imkoniyatlaridan ilhomlangan yozuvchi-shoirlarimiz ham o‘z hissalarini qo‘shib kelishgan.

Komil Avaz Xorazm adabiy muhitining eng faol va eng mahsuldor ijodkorlaridan biridir. Komil Avaz nafaqat she’riy asarlar, balki yirik nasriy asarlar yozishda ham qalamini sinab ko‘rdi. Yaxshigina romanlar – “Qo‘nalg‘a”, “Sozanda”lar yuzaga keldi. Romandan qolishmaydigan “Komil Xorazmiy” essesini yozdi [3:5]. O‘z navbatida ijodkor bir qator o‘qimishli hikoyalar ham yozganki, biz ular orasidan aynan “Yoqut momo” hikoyasini tahlilga tortdik. Yozuvchining ushbu hikoyasi o‘qimishli, ta’sirchanligi bilan o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi.

Yozuvchining shevada yozilgan ijodiy ishlari adabiy tilimiz rivojiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazishda ahamiyatli tajribalardandir. Ularni kuzatar ekanmiz, fonetik jozibadorlik va musiqiylik, ko‘chimlar, ma’no tovlanishlari, omonim, sinonim, antonim va tagma’nolar asosida hosil qilingan go‘zal falsafiy umumlashmalar sinkretiklik hosil qilib, badiiy durdonalar sifatida adib ijodini bezab turishini guvohi bo‘ldik. Shunday ekan, bu namunalar chuqur va batafsil tadqiq qilinishga haqli deb hisoblaymiz.

“Yoqut momo” hikoyasi aslida adabiy tilda yozilgan hikoya bo‘lib, yozuvchi milliy koloritni ochib berish maqsadida ba’zi o‘rinlarda Xorazm shevalariga oid dialektizmlarni o‘z o‘rnida muvaffaqiyatli ishlatib, foydalana olgan. Ushbu hikoyaning o‘zida 20 dan ortiq leksik dialektizmlarni ishlatgan. Masalan, “Yotib yeganga tog‘ chidamas! *Ullivilon* bolasan…” gapida “*ullivilon”* dialektizmi adabiy tildagi “kap-katta” ma’nosida ishlatilgan. Ma’lumki, Xorazm shevalarida “katta” mazmunini *“ulli”* dialektizmi beradi. Ushbu o‘rinda esa *“ulli”*

dialektizmining orttirma darajasi hosil qilingan. Ko‘rinadiki, Xorazm shevalarida sifat darajasi hosil qilishning ham o‘zi xos shakllari mavjud ekan.

Yana hikoyada chaqaloq ma’nosidagi *“bäväk”* dialektizmi ham o‘z o‘rnida mahorat bilan ishlatilganligini guvohi bo‘lamiz: “Sut, qatiq, obi yovg‘on bilan qorni to‘ygan Yoqitning kayfiyati yaxshilangani *bäväk*ka ham o‘tdimi, tinchgina uxlab qoldi.” [2:2]. Shuningdek, Xorazm shevalariga xos leksik birliklardan “*γovuš”* [g‘ovush] dialeketizmi ham hikoyada o‘rinli ishlatilgan. “Durust, hozir to‘qchilik, lekin tomorqa yeriga *g‘ovush*dan boshqa narsa ekishni bilmagan odam to‘q bo‘lar ekanmi?” parchasida *“γovuš”* [g‘ovush] makka, jo‘xori poyasi ma’nosida ishlatilib, sheva leksikasida bu azal-azaldan mavjud leksik birlik hisoblanadi. Yoki bo‘lmasa, Xorazm milliy koloritini ochib beruvchi yana bir dialektizmga alohida to‘xtalamiz. Hikoyada shunday parcha keltirilgan: “Qora toldan uzun *dudik* chiqarib, jamalak sochlariga qo‘shib o‘rganlari-yu, bektosh o‘ynab quvnaganlarini biri olib biri qo‘ydi.” [2:3]. Parchada berilgan *“dudik”* dialektizmi ham Xorazm shevalariga oid bo‘lib, tolning nozikroq shoxini kesib olib, dumaloq qilib yumshatilgach, silliqqina shoxdan sug‘urib olingan po‘sti. Uning kichikroq kesmalarini hushtak qilib chalish mumkin. Demak, hikoya tarkibida bu dialektizm dastlabki ma’nosida ishlatilgan bo‘lib, qizlar uni sochlariga qo‘shib o‘rishgan.

Xorazm shevalarida faol ishlatiladigan, sheva leksikasini yorqin namoyon qiladigan “*yumurta”* dialektizmi ham asar tarkibida tovuq tuxumi ma’nosida ishlatilgan: “Qaysi bir xotin ikki, qaysi biri uch, qaysi biri to‘rt *yumurta* olib kelib…” [2:3].

“Momolar dahliz adanidagi to‘shshi yoniga keldilar” gapida *“ädän”* hamda *“tošši”* [to‘shshi] dialektizmlari mahorat bilan ikkalasi birdaniga ishlatilgan. Parchada keltirilgan *“ädän”* dialektizmi poygak ma’nosida, *“tošši”* [to‘shshi] dialektizmi esa oqava suv ketishi uchun usti panjaralangan chuqurcha ma’nosida qo‘llanilgan.

Xorazm shevalari maishiy leksikasiga oid dialektizmlar ham hikoya tilida faol ishlatilganligini guvohi bo‘ldik. Masalan, “…ikkita sarg‘imtir likopchada tong saharlab kupida chayilgan sariq yog‘…” gapida “*kupi”* – kuva ma’nosida, “…balki tandirdan yangi uzilgan to‘rtta zog‘ora chiroylik

qilib sirchali la’liga…” gapida “*sirchali la’li”* dialektizmi – chinni lagancha ma’nosida, “nevaralariga ham olib boradilar deb, qizi bilan xamir qorib, ijjon tayyorlayotir ekan” gapida *“ijjon”* dialektizmi – qiyma ma’nosida, “…yumshoqqina go‘mma pishiramiz…” gapida “*go‘mma*” dialektizmi – Xorazm milliy taomi nomi ma’nosida ishlatilgan.

Shu o‘rinda harakat-holatni anglatuvchi dialektizmlarni sanab o‘tish joiz. Hikoya tilida *“eylanib”* – kechikib; *“qisindim”* – havotir oldim; “*galaqo‘yding*” – kela qolding; “*so‘vinarmish*” – sevinar emish; “*yozg‘irdilar*” – nolib gapirdilar; “*yenglaydim*” – yengillashdim ma’nosida ishlatilgan dialektizmlarni kuzatdik.

Xullas, hikoya shunday mahorat bilan yozilganki, unda Xorazm milliy mentaliteti Xorazm shevalariga xos dialektizmlar orqali mahorat bilan ochib berilgan. Ushbu dialektizmlar o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadagan so‘zlar. Bunday so‘zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo‘llanadi [4:28].

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T.: O‘zbekiston, 2017. – B.47
2. Komil Avaz. Yoqut momo. “Sharq yulduzi” jurnali, 2015-yil, 2-son.
3. Ro‘zimboyev S.R., Abdullayeva S.R. Komil Avaz. Monografiya. – Urganch: Xorazm yoshlari, 2021. – B.5
4. Аширбоев С. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. – Б.28.

Азизов Қ.
Жамоат хавфсизлиги университети
Хизмат фаолиятини тарбиявий-психологик таъминлаш кафедраси
катта ўқитувчиси, полковник

ТИЛ МАДАНИЯТИНИ ОШИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Ўзбекистон давлат мустақиллиги қўлга киритилганлигидан кейинги ўтган қисқа тарихий даврда эришган ютуқларимизнинг бири – бу тўлақонли ижтимоий сиёсатнинг шаклланиш тамойилларини ишлаб чиқиш эди. Миллий мустақиллигимизнинг дастлабки йилларидан бошлаб Ўзбекистон давлатининг кучли ижтимоий сиёсатини шакллантиришга давлатимиз ҳамда ҳукуматимиз томонидан алоҳида эътибор қаратилди. Ўзбекистон ўз истиқлол ва тараққиёт йўли тўғрисидаги концепциясида юртбошимиз ижтимоий сиёсатга дахлдор бўлган бир қатор вазифаларни, жумладан янги демократик таълим концепциясини ишлаб чиқиш асосида **ўз она тилимизга** эътибор беришни амалга оширишни таъкидлаб ўтган эди.

Халқнинг тарихини, урф-одатлари, қадриятлари, эртагу-достонларини, эрку-ғурурини жаҳон бўйлаб тарқатувчи восита – бу тилдир. Шу боис, миллатга тажовуз қилмоқчи бўлганлар аввал тилга ҳужум қилганлар. Тилимиз тўғрисида қайғурганларни, миллатни, ўзбек давлатини ўйлаганларни қатл қилдилар. Тилнинг бойлигини, гўзаллигини намоён қилган**, Чўлпон, Фитрат, Абдулла Қодирий, Усмон Носирлар** қатағон қилинди.

Фақат мустақиллик тантана қилгач, она тилимиз ўзининг қонуний мақоми ва ҳимоясига эга бўлди. Юртимиз, миллатимиз қирқилган қанотлари қайта ўсиб чиққан қушга айланди. Она тилимиз энди давлат тилига айланди, Қомусимизда ўз мақомига эга бўлди. Энг қувонарлиси шундаки, қабул қилинган қонунда давлат тили билан бирга юртимиздаги барча миллат ва элатларнинг тилларини ривожлантириш, давлат йўли билан ҳимоя қилиш, тили, дини ва миллатидан қатъий назар, ҳар бир фуқаронинг ўз она тилида таълим, ахборот, керакли маълумот олиш каби ҳуқуқларини кафолатлаш

масалалари аниқ белгилаб қўйилди. Бу қонун ўша пайтда бошқа республикаларда қабул қилинган тилга оид ҳужжатлардан ўзининг демократик моҳияти билан ажралиб туришини алоҳида таъкидлаш лозим. Шунинг учун ҳам у кўпмил-латли халқимиз томонидан ижобий кутиб олингани бежиз эмас.

Айниқса, давлат тилининг халқаро миқъёсда ҳам фаол мулоқот воситасига айланиб бораётгани эътиборлидир. Хусусан, хорижий мамлакатлар раҳбарлари билан бўладиган учрашув ва суҳбатлар, музокаралар, тегишли ҳужжатларни имзолаш маросимларида, нуфузли саммитларда, расмий матбуот анжуманларида ўзбек тилининг ўрни ва аҳамияти ортиб бораётгани ҳаммамизга ғурур-ифтихор бағишлайди.

Бугунги ёш авлод аждодлардан авлодларга ўтиб келаётган бебаҳо бойликнинг ворислари сифатида она тилимизни асраб-авайлаб, уни бойитиш, нуфузини янада ошириш устида тинмай ишлаши зарур. Айни вақтда жамиятимизда тил маданиятини ошириш борасида ҳали кўп иш қилишимиз лозимлигини ҳам унутмаслигимиз лозим. Афсуски, баъзан расмий мулоқотларда ҳам адабий тил қоидаларига риоя қилмаслик, фақат маълум бир ҳудуд доирасида ишлатиладиган шева элементларини қўшиб гапириш ҳолатлари учраб туриши бу масалаларнинг ҳали ҳануз долзарб бўлиб қолаётганини кўрсатади. Бундай ташқари, кўча-кўйларидаги реклама ва афишаларда, ҳаттоки, баъзибир идораларнинг кўргазма ва эълон тахталаридаги чала савод қилиб ёзилган иборалар ва маълумотларни кўриб, хафа бўлиб кетасан, киши. Ёйинки, кўчаларда, кинотеатр биноларида, транспортда юрганингда соф ўзбек тилимизни бузиб, айрим ҳолларда хорижий тилларни чала-чулпа қўшиб суҳбатлашаётган ёшларни, баъзан катта ёшдаги ўзига зеб бериб кейинган инсонларни учратганингда жуда хафа бўлиб кетамиз. Наҳотки, ўз халқини, Ватанини севган инсон ўз тилига шуқадар эътиборсиз бўлади? Қани миллий ҳуруримиз, қани миллий ифтихоримиз? Бу ҳақда сўз юритганда бобомиз Алишер Навоийнинг “**Тилга эътиборсиз - элга эътиборсиз**” деган сўзларида нақадар чуқур ҳаётий ҳақиқат мужассам эканига яна бир бор ишонч ҳосил

қилиш мумкин. Тил халқини дунёга танитади, аждодларимиз билан суҳбатга чақиради, жаҳондаги жамики халқлар билан мулоқотга киришишга имконият яратади. Уларнинг адабиёти, санъати, тарихи тил туфайли бизнинг ҳам бойлигимизга айланади. Чунки дунёдаги барча тиллар одамлар сингари бир-бирисиз яшай олмайди. Тилларнинг ҳам ўз маънавий хазиналари бор. Бу хазиналар бутун инсониятники. Жаҳон тиллари хазинасида ҳам бизнинг она тилимиз ўз ўрнини топган. Шунинг учун ўз тилини мукаммал ўзлаштириши ҳар бир ёш авлоднинг олдига қўйган асосий вазифаси бўлмоғи керак. Она тилимизни мукаммал ўзлаштиришда шу йўналиш бўйича дарс бераётган профессор-ўқитувчиларнинг ҳам малакаси юқори бўлиши замон талабидир. Демак, таълимнинг бугунги вазифаси – ёшларни кун сайин ошиб бораётган ахборот - таълим муҳити шароитида мустақил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот оламидан оқилона фойдаланишга ўргатишдан иборатдир.

Педагог бу жараёнда шахс ва жамоанинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбиялашига шароит яратади, шу билан бир қаторда, бошқарувчилик, йўналтирувчилик вазифасини бажаради. Бундай ўқув жараёнида талаба (курсант, тингловчи) асосий фигура (субъект)га айланади. Шу боис, педагог ўз олдига таълим тизимида **Нега ўқитамиз?, Нимани ўқитамиз?, Қандай ўқитамиз?, деган саволларни қўйиб, қандай қилиб самарали ва натижали ўқитиш мумкин** деган фикрни мушоҳада қилиши лозим. Бундай фикрнинг туғилиши педагогика фанида **янги педагогик технология** йўналишини юзага келтирди.

Шу боис, тилни ўқитиш жараёнида ҳам ўзига хос педагогик технология асосида йўл тутиш керак бўлади. Чунки, инсон ўзлигини англагани, насл-насабини чуқурроқ билгани сари юрагида Ватанга муҳаббат туйғуси илдиз отиб, улғаяди. Бу илдиз қанча теран бўлса, туғилиб ўсган юртга муҳаббат ҳам шу қадар юксак бўлади. Шу боис, ўз она тилимизни мукаммал ўзлаштиришимиз давр талаби, десак муболаға эмас.

Азизов Қ.
Жамоат хавфсизлиги университети
Хизмат фаолиятини тарбиявий-психологик
таъминлаш кафедраси катта ўқитувчиси, полковник

ОНА ТИЛИ –АҚЛИЙ ТАРБИЯНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Дарҳақиқат, ўзликни англаш, миллий онг ва тафаккурнинг ифодаси, авлодлар ўртасидаги руҳий-маънавий боғлиқлик тил орқали намоён бўлади. Жамики эзгу фазилатлар инсон қалбига сингади, **Она тили – бу миллатнинг руҳидир.** Буюк маърифатпарвар бобомиз **Абдулла Авлоний** айтганидек: ”**Ҳар бир миллатнинг дунёда борлигини кўрсататурган ойинаи ҳаёти тил ва адабиётидир. Миллий тилни йўқотмаклик миллатнинг руҳини йўқотмакдир”.**

Тилнинг, жумладан ўзбек тилининг тараққиёти ҳам ўз тарихига эга.

Тарихий маълумотлар асосида таҳлил қилсак, айнан XI-XII асрларда ўзбеклар Мовароуннаҳрда асосий аҳоли сифатида таркиб топди, ўша даврда “**турк тили**” деб ном олган **ўзбек тили** адабий тил хусусиятига эга бўлди. Шу даврда илм-фаннинг ўсгани **Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий, Аҳмад Фарғоний, Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний** ва бошқа олимларнинг фаолияти мисолида яққол кўринди.

Амир Темур ва унинг авлоди ҳукмронлик қилган XIV –XV асрларда эса мамлакатнинг иқтисодий, ижтимоий ҳаётида қайта тикланиш ва ривожланиш бошланиши билан илм-фан, меъморчилик, тасвирий санъат, наққошлик, музика соҳасида, бадиий адабиётда жуда катта ютуқларга эришилди, халқ оғзаки ижоди ривожланди. Бу даврда илоҳиёт табиий, тиббий ва тарих ҳамда адабиёт фанлари соҳасида **Мирзо Улуғбек, Қозизода Румий, Ғиёсиддин Жамшид, Али Қушчи, Султонали Хўжандий, Юсуф Табиб, Шарафиддин Али Яздий, Ҳофизи Абрў, Абдураззоқ Самарқандий, Хондамир, Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Давлатшоҳ Самарқандий,**

Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби буюк олим, адиблар камол топди.

XVII – XIX асрларда бадиий адабиётнинг **Сайидо Насафий, Турди, Машраб, Гулҳаний, Махмур, Нодира,Увайсий, Анбар Отин, Завқий, Фурқат, Муқимий, Аваз Ўтар** каби истеъдодли намояндалари етишди. Бу даврда маданий анъаналарга кўра мактаб ва мадрасаларда илоҳиёт ҳақидаги фанлар билан бир қаторда табиий фанлар ҳам ўқитиларди. Табиийки, ўқитиш жараёнининг педагогик фани энг қадимги ёзув пайдо бўлишидан олдин шакллана бошлаган. Педагогикада ҳар бир халққа хос донишмандлик, унинг тили, атама ва шеваларида ёрқин кўринади, айниқса ўз она тилини яхши ўзлаштириши катта аҳамиятга молик. Чунки она тили дунёни англаш, билишда асосий восита, ёшлар ақлий тарбиясида муҳим омил ҳисобланади. Халқ ибораси билан айтганда, "**Тил – дил калити", "Тил – дил тилмочидир**". **Она тили - халқнинг маънавий бойлигидир**. Бола дунёга келган кунданоқ ўз номини она тилида эшитади, она алласини тинглайди ва бутун ҳаёти давомида уни эслайди, у ёшлигиданоқ борлиқни англай бошлайди. Боланинг шахс сифатида шаклланишида, ақлий фаолиятида тушунчалар ҳосил қилиш, хулоса ва ҳодисаларни, уларнинг содир бўлиш сабаблари ва қонуниятларини билиш, ҳаёт учун зарур қоидаларни бунёд этиш демакдир. Дарҳақиқат, ақлий жараён деганда турли сезгилар, тушунчалар, тасаввурлар, ҳукмлар, уларнинг ўзаро ўхшашлиги ва бир-биридан фарқланиши, бу ўхшашлик ҳамда фарқланишнинг сабаблари тушунилади. Масалан, улуғ мутафаккир **Абу Наср Форобий**нинг фикрича, **ақл фақат инсонгагина хос бўлган туғма қувват – руҳий куч билан боғликдир.**

Атоқли рус педагоги **К.Д. Ушинский** таъкидлашича, ўтмиш авлодларимизнинг ақлий жараёнида эришган, ота-боболаримиз онгида қайта ишланган сўзлар кейинги авлодлар тилида турли ўзгаришлар билан хозирги авлодларга етиб келади ва улар онгида шу сўзларни вужудга келтирган, яратган ва ривожлаштирган тушунча, ғоя ва ҳис-туйғулар ҳосил қилади.

Табиийки, муайян нарса, воқеани сезиш–таққослаш натижасида аниқланади, таққослаш эса ақлга хос фаолиятдир. **Ақлий жараён учун сўз** ғоятда аҳамиятлидир. Чунки сўз тушунчани ифодалайди. Шу боис, сўз ҳам, унда ифодаланган тушунча ҳам фақат фикрни ифодалаш учун хизмат қилади. Фикр сўзнинг ўзида эмас, балки сўзлар орасида, сўзлар тизимида ифодаланади. Инсон тафаккури сўзлар туфайли амалга ошади. Демак, сўз инсоннинг камол топишида асосий восита ҳисобланади. Масалан, ўз замонасининг истеъдодли шоири, адиби, донишманди **Аҳмад Югнакий**дан бизга ёдгорлик бўлиб қолган асари "**Ҳибатул Ҳақойиқ**" бадиий сўз санъати ва адабий тилининг жуда қимматли, нодир ёдгорлигидир. Унда ёзилишича, ҳар бир инсон чин, пок мусулмон бўлиши, ҳақ йўлга кириши, ёмон, ярамас, аччиқ ёлғон сўзлардан сақланиши учун тилни тийиши керак. Яхши, ёқимли сўз ҳарқандай чигал ишни ечишга восита бўлади. Инсон яхши – ёқимли тили туфайли яхши хислатларга эга бўлади, одоб-ахлоқда ҳаммага ўрнак бўлади, жумладан шоирнинг айтишича

Оғиз ва тилнинг зийнати тўғри, ҳақ сўздир,

Сен тўғри сўзла, сўзингни ва тилингни ширин қил.

Аҳмад Югнакийнинг педагогик қарашларида тилингни ширин қил. Тўғри, ҳақ сўз шифобахшдир, у инсон хасталигини даволаш воситаси ҳамдир, деб ёшларга уқтиради.

Инсон ақли, тафаккури ва нутқининг фазилатларини грамматика, ва мантиқ фани ўрганади. Педагогик таълим-тарбия жараёнида **Абу Наср Форобий**нинг фикрича, назарий билим билан амалий ҳаракат одат, малака, фаолият бирлашиб боради, етуклик шу бирлашувнинг даражасига қараб юзага келади. Одатда, таълим сўз ва ўрганиш билангина амалга ошрилади. Тарбия эса амалий иш, тажриба билан ҳаётга жорий қилинади. Шу боис, Форобий таълим-тарбия методлари устида тўхтаб, шундай ёзади:"**Амалий ҳаракатлар ва амалий касб-ҳунар ва уларни бажаришга одатлантириш масаласига келсак, бу одат икки турли йўл билан ташкил этилади":**

Қаноатбахш сўзлар, чорловчи, илҳомлантирувчи сўзлар ёрдамида одат

ҳосил қилинади, малакалар вужудга келтиришда одамдаги ғайрат, касбга интилиш ҳаракатига йўналтирилади,

Мажбур этиш йўли бўлса, тарбияланувчиларни тарбиялашдан иборат.

Хуллас, шундай буюк ва донишманд олимларимизнинг бизга аталган асарлари баён қилинган она тилимиз мустақиллик арафасида, яъни 1989 йилнинг 19 октябрь куни бу ўта муҳим масала Олий Кенгаш сессияси муҳокамасига қўйилиб, ўзбек тили давлат тили деб эълон қилинди. Халқимизнинг муқаддас қадриятларидан бири бўлмиш она тилимиз ўзининг қонуний мақоми ва ҳимоясига эга бўлди. Бу Ватанимиз тарихида том маънодаги буюк воқеа эди. 1992 йили 7 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида давлат тилининг мақоми ҳуқуқий жиҳатдан аниқ белгиланиб, мустаҳкамлаб қўйилди. Шу тариқа ўзбек тили мустақил давлатимизнинг байроғи, герби ва мадҳяси, Конституцияси қаторида турадиган, қонун йўли билан ҳимоя қилинадиган муқаддас тимсолларидан бирига айланди.

Бугунги кунда ўз она тилимиз халқаро миқъёсда ҳам фаол мулоқот воситасига айланиб бораётгани эътиборлидир. Хусусан, хорижий мамлакатлар раҳбарлари билан бўладиган учрашувлар ва суҳбатлар, музокаралар, тегишли ҳужжатларни имзолаш маросимларида, нуфузли саммитларда, расмий матбуот анжуманларида ўзбек тилининг ўрни ва аҳамияти ортиб бораётгани ҳаммамизга ғурур-ифтихор бағишлайди.

Азизов Қ.
Жамоат хавфсизлиги университети
Хизмат фаолиятини тарбиявий-психологик
таъминлаш кафедраси катта ўқитувчиси, полковник

ТИЛ - ФАОЛ МУЛОҚОТ ВОСИТАСИ

(Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган кунга бағишланади)

Бугун айнан **она тилимиз туфайли бошимиз тик, кўксимиз баланд.** Чунки тилга эътибор, энди миллатга эътиборга айланди. Она тилимиз билан аталувчи Ўзбекистонда минг-минглаб компьютерларда янги авлод ўзбек тили бойлигини ўрганмоқдалар, лицей, коллеж ва университетларда сабоқ олмоқдалар. Шу борада ўзбек тилининг компьютер ва Интернет, аниқ фанлар, тиббиёт, иқтисодиёт каби махсус термин ва тушунчаларни талаб қиладиган соҳаларда ҳам кенг қўллана бошлагани унинг имкониятлари нечоғлиқ катта эканини кўрсатади. Ҳолбуки, бундан 20 йил олдин оддийгина ариза ёки маълумотномани ҳам ўзбек тилида ёзишнинг имкони йўқ эди.

Дарҳақиқат, миллатнинг дунёда борлигини кўрсатиб турган ойнаи жаҳони – бу тилдир. Шу боисдан айтадиларки, миллий тилни йўқотмак – миллатнинг руҳини йўқотмоқдир. Чунки, жамики эзгу-фазилатлар инсон қалбига аввало, **она алласи, она тилининг бетакрор жозибаси** билан сингади. Зеро о**на тили – бу миллатнинг руҳи экан,** ёшларни ўз она тилини тўла-тўкис ўзлаштириши унинг миллий ғурурини ифодалайди, деб айтишимиз бежиз эмас. Шу боис, тилимиз асрлар давомида қандай ривожла-ниб келгани тарихини ҳам билишимиз давр талабидир.

Тарихнинг гувоҳлик беришича, она тилимизниниг пайдо бўлиш жараёни **Ўрхун-Энасой** битик тошларига бориб тақалади. **Махмуд Қош-ғарий**нинг “**Девони луғотит турк”, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”** китобларида тилимиз ўз аксини топгпн. Шеърият мулкининг султони **Алишер Навоий** бу хазиналардаги дуру-

гавҳарларни бутун оламга кўз-кўз қилган. Алишер Навоий халқимизнинг онги ва тафаккури, бадиий маданияти тарихида бутун бир даврни ташкил этадиган буюк шахс, миллий адабиёти-мизнинг тенгсиз намояндаси, миллатимизнинг ғурури, шаъну шарафини дунёга тараннум этган ўлмас сўз санъаткоридир. Оламда туркий ва форсий тилда сўзловчи бирон-бир инсон йўққи, у Навоийни билмаса, унга садоқат ва эътиқод билан қарамаса. Айнан Навоий инсон қалбининг қувончи ва қайғусини, эзгулик ва ҳаёт мазмунини чуқур англаган буюк сиймодир. Она тилига муҳаббат, унинг беқиёс бойлиги ва буюклигини англаш туйғуси ҳам бизнинг онгу шууримиз, юрагимизга аввало Навоий асарлари билан кириб келган.

Шўролар даврида эса, она тилимиз атоқли шоиримиз **Эркин Вохидов** ибораси билан айтганда,”**мажлислардан қувилган тил**”га айлантирилди.

Фақат мустақиллик тантана қилгач, тилимизга “**жон”** кирди. Халқимизнинг муқаддас қадриятларидан бири бўлмиш она тилимиз ўзининг қонуний мақоми ва ҳимоясига эга бўлди. Юртимиз, миллатимиз қирқилган қанотлари қайта ўсиб чиққан қушга айланди. **Энди тилимиз бешикдаги гўдакларнинг танглайини кўтаришда, дуога қўл очганда кексаларнинг ҳовучларидан жой олди. Бу Ватанимиз тарихида том маънодаги буюк воқеа эди.** Жумладан, мазкур қонун давлат идораларида ишлаш, таълим олиш, мансаб лавозимлари бўйича кўтарилиш, фуқаролик сингари масала-ларда одамларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини камситадиган турли шарт-лардан ҳоли экани билан жаҳон ҳамжамияти томонидан эътироф этилган талаб ва қоидаларга тўлиқ жавоб бераради. Айнан шунинг учун ҳам у кўпмиллатли халқимиз томонидан ижобий кутиб олингани бежиз эмас. Биз аждодларимиздан авлодларга ўтиб келаётган бебаҳо бойликнинг ворислари сифатида она тилимизни асраб-авайлашимиз, уни бойитиш, нуфузини ошириш устида тинмай ишлашимиз даркор. Айниқса, фундаментал фанлар, замонавий коммуникация ва ахборот технологиялари, банк-молия тизими каби ўта муҳим соҳаларда она тилимизнинг қўлланиш доирасини кенгай-тириш, этимологик ва қиёсий луғатлар нашр этиш, зарур атама ва

иборалар, тушунчалар мазмун-моҳиятини илмий асосда ҳартомонлама ривожлантириб, миллий ўзликни, Ватан туйғусини англашдек эзгу мақсадларга хизмат қилишга йўллашимиз лозим. Шу боис, қисқа ўтган давр мобайнида давлат тилининг ҳаётимиздаги ўрни ва таъсирини кучайтириш, уни том маънодаги миллий қадриятга айлантириш йўлида илгари тасаввур ҳам қилиб бўлмайдиган улкан ишлар амалга оширилди. Жумладан, тилимизнинг қўлланиш доираси ниҳоятда кенгайиб бормоқда. Уни илмий асосда ривожлантиришга қаратилган тадқиқотлар, тилимизнинг ўзига хос хусусиятларига бағишланган илмий-оммабоп китоблар, ўқув қўлланмалари, янги луғатлар кўплаб чоп этилаётгани жамият тафаккурининг юксалтиришга ўз ҳиссасини қўшмоқда.

Тарихдан маълумки, ўзбек тили асрлар давомида араб ёзуви асосида ривожланиб келган. Айни пайтда буюк аждодларимиз, тилимизнинг ўзига хос грамматик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, унинг улкан имкониятларига мос ёзув тизимини яратиш ҳақида доимо бош қотириб келганлари ҳам манбалардан яхши аён. Масалан, 1929 йилда маърифатпарвар зиёлиларимизнинг саъй-ҳаракатлари билан лотин ёзуви асосидаги ўзбек алифбоси ишлаб чиқилган ва ҳаётга жорий қилинган. Аммо бу алифбо 10 йил мобайнида амалда бўлиб, лотин ёзувида халқимизнинг маънавий мулкига айланган эди. Афсуски, ҳукмрон мафкуранинг тазъйиқи билан **ўзбек тили ёзуви кирилл ёзуви** билан алмаштирилди. Шунинг натижасида ёшларимиз миллий тарихий хотирасидан, ота-боболаримиз урф-одатларидан ва неча асрлик миллий қадриятларидан бехабар бўлиб қолди.

Табиийки, мустақилликка эришганимиздан сўнг халқимиз маънавий ҳаётидаги бошқа кўплаб муаммолар қатори тил ва алифбо масаласи ҳам кун тартибидаги ислоҳ қилинадиган масалаларга айланди. Шу мақсадда 1993 йили 2 сентябрда юртимизда “**Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида”**ги қонун қабул қилинди. Ушбу қонун ижросини таъминлаш бўйича катта ишлар амалга оширилди. Жумладан, аввало ўзбек тилининг лотин ёзуви асосидаги имло қоидалари ишлаб чиқилди ва ҳаётга

тадбиқ қилинди. Бугунги кунда барча таълим масканларида ана шу алифбо асосида билим берилмоқда. Шу билан бирга, халқимизнинг кўпмиллатли эканини инобатга олиб, айрим миллий гуруҳлар кирилл ёзувини ишлатаётгани учун бу имлодан фойдаланиш имконияти ҳам назарда тутилган.

Айни вақтда жамиятимизда тил маданиятини ошириш борасида ҳали кўп иш қилишимиз лозимлигини ҳам унутмаслигимиз зарур. Ахир **тил ҳам бир гул мисоли. Эътибор билан парвариш қилинса, хушбўйлигини намоён қилиб, барчани хушнуд қилади**. Эътиборсизлик қилинса, таровати йўқолади. Айнан тил халқини дунёга танитади, аждодларимиз билан суҳбатга чақиради, жаҳондаги жамики халқлар билан мулоқотга киришишга имконият яратади. Уларнинг адабиёти, санъати, тарихи тил туфайли бизнинг ҳам бойлигимизга айланади. Чунки дунёдаги барча тиллар одамлар сингари бир-бирисиз яшай олмайди. Бир-бирига **тажрима** деган **кўприк** орқали меҳмонга боради. Уларнинг ҳам ўз маънавий хазиналари бор. Бу хазиналар бутун инсониятники.

Тарих ҳақиқати шуни кўрсатмоқдаки, ўз она тилини улуғлаган инсон томирида миллий ғурур, Ватан ишқи жўш урган одамгина буюк ишлар қилишга қодир бўлади. Бугунги кунда ёшларимиз юртимизнинг кўча ва ҳиёбонлари, метро ва автобус бекатлари, катта-катта майдонлар, биноларни безаб турган она тилимиздаги ўзбекча номлар, шиор ва лавҳаларни кўришга муяссар бўлишди. Ваҳоланки, яқин тарихимизда бу манзара бутунлай бошқача кўринишга эга эди.

Хуллас, **тил – дилларни дилларга боғловчи улуғ кўприк** ва шу йўл билан инсониятни ҳамжиҳатликка, тотувликка, камолотга элтувчи неъмат, сеҳрли қудратдир. Барчамизга маълумки, инсон ўзлигини англагани, насл-насабини чуқурроқ билгани сари юрагида ўз она тилига ва Ватанга муҳаббат туйғуси илдиз отиб, улғаяди. Бу илдиз қанча теран бўлса, туғилиб ўсган юртга муҳаббат ҳам шу қадар юксак бўлади. Шу боис, миллий тилимиз ва унинг тараққиёт даражасини чуқур ўрганиш учун тарихий хотирага мурожаат қилмай иложимиз йўқ.

Choriyev T.
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati,
Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrasi
professori

DAVLAT TILI VA UNING HUQUQIY ASOSLARINI MILLIY QONUNCHILIKKA MUSTAHKAMLANISHI

Kalit so‘zlar: til, qonun, davlat til, o‘zbek tili, milliy qonunchilik, maqom, nufuzi, muloqot, huquqiy asos, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, yuksalish, taraqqiyot, tadrijiy rivojlanish.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Qonun qabul qilinishi bilan o‘zbek tili, davlat tili sifatida mustahkam huquqiy asos va maqomga ega bo‘ldi. Qonunda davlat tilini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, davlat organlari va tashkilotlarining davlat tilini rivojlantirish sohasidagi vakolatlari, ta’lim, madaniyat, noshirlik faoliyati va ommaviy axborot vositalarida davlat tilining qo‘llanilishi, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari va tashkilotlariga davlat tili hamda boshqa tillarda murojaat qilishi, fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtirilishi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkinligi, pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra – boshqa tilda amalga oshirilishi va boshqa bir qancha huquqiy asoslarning belgilanishi, o‘zbek tilining yillar davomida tadrijiy rivojlanishiga hamda xalqaro nufuzini tobora ortib borishiga bevosita xizmat qilib kelmoqda.

Aytish joizki, o‘zbek tili tom ma’noda 1989-yildan davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. Yangi O‘zbekiston «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari»

degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga koʻtarildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi oʻrni va nufuzi ortib bormoqda. Oʻzbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy jabhalarda faol qoʻllanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga eʼtibor va uni oʻrganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada avvalo oʻz madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilishi tabiiydir.

Buyuk allomalar aytganlaridek, xalqimizning koʻp asrlik madaniy, ilmiy-maʼrifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli boʻlgan oʻzbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Davlat tiliga boʻlgan eʼtiborni yanada kuchaytirish, uning rivojlantirishiga ulkan hissa qoʻshish maqsadida 2019-yilning 21-oktabr kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PF–5850-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq, yurtimizda Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, shuningdek, bir qator istiqbolli hamda strategik ishlar belgilandi. Xususan,

lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini toʻliq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish;

ilmiy asoslangan yangi soʻz va atamalarni isteʼmolga kiritish;

zamonaviy atamalarning oʻzbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qoʻllanishini taʼminlash;

geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish; oʻzbek tilining yozma nutqi meʼyor va qoidalarini ishlab chiqish; davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet jahon axborot tarmogʻida munosib oʻrin egallashini taʼminlash, oʻzbek tilining компьyuter dasturlarini yaratish;

taʼlim muassasalarida davlat tilini oʻrgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili

sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish, o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish;

davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

«O‘zbek tili bayrami kuni»ni belgilash bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqish;

amaldagi O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonunini qayta ko‘rib chiqish hamda yangi tahrirda qabul qilish;

til siyosatinin barqarorligi va bardavomiyligini izchil davom ettirish maqsadida «2020—2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish Kontseptsiyasi»ni ishlab chiqish masalalar muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur ishlar ijrosini ta’minlash maqsadida milliy qonunchilikka «2020—2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Kontseptsiyasi» ishlab chiqildi. Mazkur Kontseptsiyada mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish, shuningdek, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilinig zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi strategik ahamiyatga ega ishlar o‘z ifodasini topdi. Ushbu yo‘nallishdagi ishlar o‘z vaqtida bajarish bilan davlat tili kunsayin taraqqiyotga yuz tutadi. Buning evazida ko‘p millatli xalqimiz orasida do‘stona munosibat mustahkamlanib, millatlararo muloqot madaniyati oshadi.

Xabaringiz borki, O‘zbekistonda so‘nggi uch yilda unitilmas siyosiy va tarixiy jarayonlar bo‘lib o‘tdi. Xususan, 2023-yil 30-aprel kuni ertangi

kuni va hayotiga befarq bo‘lmagan, huquqiy madaniyati va ongi oshgan xalqimiz ishtirokida referendum o‘tkazildi. Umumxalq ovozi bilan yakdillik bilan Yangi O‘zbekistoning Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ta’kidlash joizki, Konistitutsiya hayotimizning bosh mezoniga aylanib, qalbimizda g‘urur va iftixor tuyg‘ularini yuksaltirdi.

Barchamizga ayyonki, O‘zbekiston ko‘pmillatli yurt. Bugungi kunda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb e’tirof etilgan O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ko‘pmillatli xalqimiz orasida millatlararo hamjihatlik va do‘stona munosabat barqaror. O‘zbekistonda inson va uning qadr-qimmati yuksak ulug‘lanmoqda.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Shuningdek, o‘zining har bir fuqarosini irqi va millatidan qat’iy nazar huquqlarini qonun bilan himoya qiladi.

Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash — Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir, – deb bejiz aytmagan. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligi ta’minlash sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Inson huquqlari sohasida holat tubdan o‘zgardi. Qayd etilganidek, mamalkatimzda ta’lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga qoraqalpok, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida faoliyat olib borayotgani xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy hodisa sifatida e’tirof etilmoqda.

Dono xalqimiz bejiz aytmagan, “Til bilgan — el biladi”, “Tilni ko‘p bilgan, ko‘pni bilar //Tilni oz bilgan, o‘zini bilar”, “Ko‘p til bilgan — el kezar”, “Til bilgan — yo‘l topar”. Ushbu hikmatli so‘z barchamizni o‘zbek tili hamda boshqa tillarni obodon o‘rganishga chorlaydi.

Shuning uchun barchalaringizni davlat tilini rivojlanishiga beqiyos va ulkan hissa qo‘shishga hamda bir nechta sharq va g‘arb tillarini o‘rganishga da’vat etaman. Shuni ham unitilmaslik kerakki, O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlangan. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim

olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Ozbekiston”, 2021. – 80 bet.
2. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – O‘zbekiston: “Ozbekiston”, 2021. – 462 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabr “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risid”gi PF–5850-son Farmoni. lex.uz (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019-y., 06/19/5850/3939-son).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabr “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6084-son Farmoni. lex.uz (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020-y., 06/20/6084/1398-son).
5. Saidov A. O‘zbekiston Konstitutsiyasi tarixi. – Toshkent: “Tasvir”, 2018. – 864 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni (yangi tahrirda. nrm.uz (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi”, 1995-yil, 12-son, 257-modda).

Darvishova G.K.
PhD in Philology,
The University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

CULTURAL DIFFERENCES THAT MIGHT AFFECT BEHAVIOUR

Annotation: We need to be aware that behavior should also be viewed as being culturally or contextually specific. This article investigates cultural differences that might affect behavior - examples of: eye contact; hand movements; silence; religious belief; loss of face.

Key words: relationship, religious, belief, ethnic, background, manner, intercultural society.

Teaching is a highly complex, purposeful activity, and is intended to help students move forward so that they can add to their knowledge, understanding and skills. 'Teachers should teach the knowledge, skills and understanding in ways that suit their students' abilities.' A teacher's ability to manage a classroom effectively has long been acknowledged as a necessary skill for effective teaching

Effective teachers promote effective learning in a culture of high expectations. Students achieve more when lessons are well structured and sequenced, when teachers make objectives clear and where students know what they are supposed to be learning.

Cultural differences that might affect behavior - examples of: eye contact; hand movements; silence; religious belief; loss of face. We need to be aware that behavior should also be viewed as being culturally or contextually specific. The characteristics dealt with here can be seen across cultures but some cultures may exhibit these traits to a greater degree.

To stress the obvious: Britain is and always has been a multicultural, intercultural society. Schools should, therefore, be very sensitive to the value systems which students from diverse ethnic backgrounds bring to the classroom and more specifically to the relationships, not only with their teachers, but also with their peers. Relevant here is the whole area of body language or paralinguistic facets that aid communication. For instance, there is the well-documented field of eye contact.

Eye contact: It is important for teachers to know that some students will look down as a sign of respect. How many times have we heard parents and teachers say,' *Look at me when I am talking to you'.* Before you insist on this, think about the students' cultural background.

Hand movements. Another example is when students use hand movements when calling their peers from a distance. The South Asian manner appears like a hand wave, which in other cultures could indicate a farewell.

Facial gestures. Some students may smile or laugh under pressure. This can lead teachers to think they are being rude, cheeky, etc., when in fact they are nervous.

Silence. A minor but important feature that might require attention is the use of silence amongst students from linguistically and culturally diverse backgrounds. Our education system places high value on participation. Silence, from a Eurocentric point of view, can be interpreted as lack of interest, sullenness, unwillingness to co-operate, lack of confidence or understanding. It is always wise to question first assumptions and to discover more about the cultural significance of silence for different groups. There may also be a gender difference here.

Religious belief. Another aspect that has implications for the curriculum and behavior is religious belief. How children are expected to behave at mosque may be different to behavior expectations at school. Some Muslims would find it unacceptable to reproduce human faces and forms. Teachers need to be aware of the impact this may have on the curriculum - for example, in an art lesson where students might be expected to draw a self-portrait.

Loss of face. Some students, particularly boys, never want to appear to be humiliated by a teacher and therefore will not 'back down,' preferring confrontation to 'loss of face'. Giving students options is a good way to avoid confrontation, eg. a student you want to move because of disruptive behavior: 'You can sit there or there, where do you want to sit?'

Links between curriculum and behavior. The context of this article is based on a commitment to working towards 'good' behavior. This does not to ignore the need to address and manage inappropriate and unacceptable behavior. A positive approach provides a constructive framework for achieving good behavior, which facilitates good teaching and learning. This result in a process that works from the theory that behavior is learned, that classroom behavior is a management issue, and that good behavior can be taught. Behavior, therefore, can be seen as a curriculum issue. In order to learn, we need to plan for and provide a positive climate in which effective learning can take place.

A strategic approach to behavior management - Social inclusion

'Even in the most difficult areas, schools can and do make a difference to the behavior and attitudes of their students, especially when they are effectively supported by other agencies. Good teaching, sound behavior management, effective anti-bullying policies, clear rewards, consistently applied sanctions and imaginative use of the curriculum all make a difference, and reinforce the message that all young people can achieve their full potential.

The Circular identifies nine principles of good practice. Nine key principles:

1. Setting good habits early.
2. Early intervention.
3. Rewarding achievements.
4. Supporting behavior management. 5. Working with parents. 6. Involving students.
7. Commitment to equal opportunities.
8. Identifying underlying causes. 9. Study support.

In conclusion, the ability to manage a classroom has long been acknowledged as a necessary prerequisite for effective teaching. While many teachers believe that classroom management is the same as classroom discipline, classroom management is much broader. Classroom management is broader in that the entire classroom structure as well as discipline must be included in any plan for managing the classroom.

BIBLIOGRAPHY:

1. Daniels, H, Visser, Jet al. *Emotional and Behavioral Difficulties in Mainstream School* London.1998

2. Curry, M and Bromfield, C. *Personal and Social Education through Circle Time.* Litchfield: NASEN. 1994

3. Rogers, B. Cracking the Hard Class. London: Paul Chapman Publishing.2000

4. Edwards, C. Classroom discipline and Management. New York: Macmillan College. 2014.

Эгамбердиева Г.М.,
к.ф.н., профессор кафедры
«Изучение языков» Университета общественной безопасности РУз

ИСТОКИ ИДЕИ ОПТИМИЗАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация. В статье рассматривается генезис оптимизации в педагогической науке. Анализ позволил определить, что данный вопрос изучался еще со второй половины XX века и продолжается по сей день.

Ключевые слова: оптимизация, учебный процесс, критерий эффективности, критерий расходов.

В педагогической науке об оптимизации в учебном процессе написано много трудов в разное время (Я. А. Коменский, И.-Г. Песталоцци, К.Д.Ушинский, С. Т. Шацкий, В.А. Сухомлинский, СИ. Архангельский, Ю.К.Бабанский, А.В. Барабанщиков, И.Я. Лернер, П.Я.Гальперин, Э.И.Моносзон, И.Т. Огородников и многие другие). Проблема оптимизации широко рассматривался во второй половине XX века и актуален по сей день. Конечно, ведь преподаватель находится в постоянном поиске наиболее оптимальных путей решения педагогических задач.

В Большом энциклопедическом словаре приводится два варианта определения понятия «оптимизация» – «1) процесс выбора наилучшего варианта из возможных; 2) процесс приведения системы в наилучшее (оптимальное) состояние» [2, с. 1456].

Рассмотрим понятие «оптимизация» относительно педагогического процесса. Большое количество педагогических исследований было посвящено различным сторонам оптимизации процесса обучения.

В 70-е годы XX века И.Т Огородников [5] видел оптимизацию учебного процесса в сочетании методов используемых на занятиях: чередование слова преподавателя и самостоятельной работы учащихся; чередование фронтальной и индивидуальной работы

учащихся, поурочной и тематической проверки и оценки знаний учащихся, чередование различных видов творческих самостоятельных работ учащихся.

Некоторые аспекты оптимизации процесса обучения также изучала И.И.Дьяченко. Она называет оптимизацией «выбор наиболее эффективного (в пределе оптимального) варианта управляемого процесса в соответствии с заданными критериями». По мнению И.И.Дьяченко, оптимизация – это «введение меры управления сложным процессом, закономерности, которого наукой не полностью выявлены, но эффективное и оптимальное управление которым является насущной потребностью» [3, с.18]. Основным средством реализации управления системой учебной деятельности И.И.Дьяченко считает ее программирование.

Т.А.Ильина под оптимизацией понимает «степень соответствия организационной стороны системы тем целям, для достижения, которых она создана. Но тут же подчеркивает, что оптимальность, достигнутая при одних условиях, может не быть оптимальной при других условиях» [4, с.16-17].

Большой вклад в развитие данного вопроса внес известный педагог-новатор Ю.К.Бабанский. В книге «Оптимизация процесса обучения» он отмечает, что «оптимизация не есть какой-то особый метод или прием обучения. Это целенаправленный подход к построению процесса обучения, при котором в единстве рассматриваются принципы обучения, особенности содержания изучаемой темы, арсенал возможных форм и методов обучения, особенности данного класса, его реальные учебные возможности и на основе системного анализа всех этих данных сознательно, научно обоснованно (а не стихийно, случайно) выбирается наилучший для конкретных условий вариант построения процесса обучения» [1, с.57]. Изучив различные точки зрения ученых-педагогов, Ю.К.Бабанский приходит к выводу о необходимости определения критериев оптимизации и выделяет следующие как основные [1, с.61-62]:

1) критерий эффективности и качества процесса обучения;

2) критерий расходов времени педагогов и учащихся в процессе обучения;

3) критерий расходов усилий;

4) критерий расходов средств на учебный процесс.

Рассматривая данные критерии, Ю.К. Бабанский отмечает, что оптимальным считается процесс обучения, при котором обучающийся усвоил определенный объем подготовки на уровне максимальных возможностей, но не ниже, чем на «удовлетворительно», при этом педагог и учащийся потратили на достижение максимального результата на уровне своих возможностей минимум времени, усилий и средств.

Ю.К.Бабанский ввел в педагогику принцип оптимальности, который потому и является принципом, что его действие распространяется на все компоненты педагогической системы (процесса) через требования разумности, рациональности, чувства меры. «Достичь оптимального построения процесса обучения возможно лишь на основе такого управления им, которое организуется с учетом закономерностей и принципов обучения, на основе применения современных форм и методов преподавания и учения, а также на основе изучения и учета особенностей внутренних и внешних условий данного класса, учеников и пр.» [1, с.58].

Таким образом, в работах ученых XX века исследования теории оптимизации педагогического процесса показывают, что в педагогической науке под оптимизацией понимается выбор такой методики, которая позволит достичь намеченных целей и результатов, затратив на это минимум времени, усилий и преподавателя, и учащихся.

Литература:

1. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения (Общедидактический аспект). – М.: Педагогика, 1977. – С. 57.
2. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд., перераб. и доп. - М. : Большая российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1997, 1456 с.
3. Дьяченко И.И. Оптимизация управления учебным познанием. Автореф. канд.дис. – Л., 1970. – С.18.

4. Ильина Т.А. Структурно-системный подход к организации обучения. Вып. I, II, III. – М., 1971. – С. 16-17.

5. Огородников И.Т. Оптимальное усвоение учащимися знаний и сравнительная эффективность отдельных методов обучения в школе. – М., 1969.

6. Эгамбердиева Г. М. Эффективность использования технологии полного усвоения знаний в воу //XV1 Виноградовские чтения. – 2020. – С. 200-203.

7. Эгамбердиева Г. М. МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЮ МЕТОДА «КРУГЛОГО СТОЛА» НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 25. – №. 3. – С. 107-109.

8. Эгамбердиева Г. М. МЕТОД «ДЕБАТЫ» НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 155-162.

9. Эгамбердиева, Гузал Мадияровна К ИСТОРИИ ВОПРОСА ОПТИМИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ // ORIENSS. 2022. №Special Issue 26. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/k-istorii-voprosa-optimizatsii-obucheniya-v-pedagogicheskoy-nauke (дата обращения: 12.04.2023).

10. Эгамбердиева Г. М. КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ //ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ. – С. 31.

11. Sheremetyeva A. et al. Word-Forming Bases and their Variability (on the Material of the Russian language) //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 2. – С. 338-349.

12. Атаева Р. Р. Структурное своеобразие русских поливершинных словообразовательных гнезд асимметричного типа //Вестник Челябинского государственного университета. – 2019. – №. 6 (428). – С. 23-31.

13. АТАЕВА Р. Р. Словообразовательное гнездо как комплексная единица словообразовательной системы русского языка //Иностранные языки в Узбекистане. – 2019. – №. 1. – С. 33-45.

14. Умарова Ф. З. Готовность педагога к личностно-ориентированному образовательному процессу в школе //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2010. – Т. 8. – С. 385-387.
15. Умарова Ф. З. Развитие личности учащегося–залог обеспечения устойчивого развития //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2011. – №. 9. – С. 644-645.
16. Умарова Ф. З. КОМПЕТЕНТНОСТЬ И НРАВСТВЕННОСТЬ КАК ВЗАИМОДОПОЛНЯЮЩИЕ ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РАБОТНИКА //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2016. – С. 495-497.

Erkayev E.T.
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, p.f.n.
Temirov J.,
Toshkent tibbiyot akademiyasi o‘qituvchisi

MAXMUR SHE’RIYATINING TILI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhiti vakili Maxmur she’riyatining tili va uslubi, uning so‘z qo‘llash mahorati, shoirning boshqa ijodkorlarga o‘xshamaydigan o‘ziga xos keskin fosh qiluvchi achchiq tili haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkor, biografik metod, milliylik, ijtimoiy qatlam, ijodkor tili, xalq tili, ikki tillik hodisasi.

XIX asr o‘zbek she’riyati faqatgina son va sifat jihatdan yuksalibgina qolmay, o‘nlab yangi ijodiy urinishlar, o‘zgacha hajviy janrlarning hajviyot olamiga olib kirilishi, qator yangi she’riy, hajviy usullarning kashf etilishi bilan ham ahamiyatlidir. Ular o‘zbek she’riyatining bundan keyingi kamolotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Muqimiy, Zavqiy, Komil

Xorazmiy, Avaz O‘tar o‘g‘li singari ko‘plab shoirlar ana shu janr va usullardan ilhomlanib ijod qildilar.

Har qanday ijodkorning adabiy merosi ko‘lamini belgilashda “konkret ijodkor merosini to‘laqonli tushunish va xolis baholash uchun uning hayot yo‘li haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, adabiyotshunoslikdagi tadqiqot metodlaridan biri – biografik metodning to‘la samara bilan ishlashi uchun konkret ijodkor hayoti va faoliyati haqidagi hujjatlarga ega bo‘lish lozim.”[1]

Qo‘qonda yashab ijod qilgan Maxmur hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar unchalik ham ko‘p emas. Adabiyotshunoslar va adabiyot ixlosmandlariga uning ilk bora “Guliston” jurnalida bosilib chiqqan “Hapalak” she’ri ma’lum edi. Ushbu she’rdan keyin Maxmur ijodi maktablarning adabiyot darsliklariga kiritilgan va oliy o‘quv yurtlari uchun tayyorlangan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”[2] da hamda “O‘zbek poeziyasining antologiyasi”[3]da ham bosilib chiqqan.

Shoir Maxmur o‘z asarlarini o‘zbek va tojik tillarida yozdi. Shuning uchun Maxmur asarlari o‘sha davrdagi o‘zbek va tojik adabiy tili bilan tanishishga imkon beradi.

XIX asrda yashagan shoirlarning ko‘pchiligi har ikkala tilni mukammal egallagan bo‘lib, o‘zbek va tojik tillarida asarlar yozar edilar.

Maxmur bir she’rini o‘zbek tilida, yana boshqasini tojik tilida yozish bilan cheklanib qolmay, bir she’rni har ikki tilda ham erkin yoza oladi. Masalan, agar uning ba’zi muxammaslarida birinchi beshlik o‘zbek tilida yozilgan bo‘lsa, ikkinchi beshlikning to‘rt misrasi tojik tilida, oxirgi misrasi o‘zbek tilida yozilganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Ba’zi she’rlarda boshlang‘ich misralar o‘zbek yoki tojik tilida yozilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, har bir bayt har ikki tilda yozilgan. Masalan, Xo‘ja Mir Asad nomiga yozilgan hajviy she’riga e’tibor qilaylik. Bu she’rning birinchi bayti tojik tilida, ikkinchi bayti o‘zbek tilida yozilgan:

Do‘sh raftam ba gado xonai shayx-ul umaro,
Xo‘jayi Mir Asad abtari avlodi ano.
Kecha ko‘nglim qushi qildi tama birla havo,
Xo‘jai Mir Asad dargahiga ayladi jo. [4]

O‘zbek tilida yozilgan she’rlarda tojik so‘zlarining ishlatilishi Maxmur she’rlaridan ko‘p uchraydigan holdir. Bir necha misollar keltiramiz:

Sakpadar ikki qurrat-ul-ayni,
Ikki bozandayi qimor o‘lg‘ay.
Zoti manxus kulfat oludi,
Luqman mo‘ru, no‘shi mor o‘lg‘ay.

“Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bu misollar Maxmurning o‘zbek va tojik tillarini mukammal bilganidan, ulardan har doim foydalanganidan darak beradi.”[5]

Shuni ko‘rsatib o‘tish kerakki, garchi Maxmurning o‘zbek tilida yozilgan she’rlarida tojikcha so‘z va ifodalar ko‘plab ishlatilgan bo‘lsa ham, shoirning sof o‘zbek tilida yozgan sodda, ravon, yengil tushunarli misralari ham bor:

Amakim xalq ichida bor o‘lg‘ay,
Lek muxtoju, xoru-zor o‘lg‘ay,
Qarilikda qaroqchilik qilsin,
Toki bo‘yniga cho‘b dor o‘lg‘ay.

Maxmur o‘z she’rlarida oddiy xalq orasida ishlatiladigan so‘zlarni adabiy tilga kiritdi. Masalan, uning «Hapalak» she’rida o‘sha davrda adabiy tilda kam ishlatiladigan «tovuq», «ignachi», «o‘rdak», «kapalak», «ko‘rshapalak» kabi hayvon va hasharotlarning ismlari, «katak», «kapa», «olachuq», «katalak», «guvalak», «sumalak», «ajirig‘», «o‘g‘ur», «o‘lasi», «qoq» kabilarni ko‘rish mumkin. «Avsofi qozi Muhammad Rajab» she’rida «Andijon», «Yangiqo‘rg‘on», «Qoratepa» kabi joy nomlari, «qishloq», «patta», «latta», «mardikor», «teshik», kabi turdosh ot, «uzun», «devrang», «dastori zor» kabi sifatlar ishlatilgan. Bunday so‘zlar boshqa she’rlarda ham ko‘plab uchraydi.

Maxmur bu bilan cheklanib qolmadi, balki xalq tilidagi ayrim ifodalarni ham adabiy tilga kiritdi. Xalq ichida ishlatiladigan «qo‘rqqanidan kapalagi uchib ketdi» degan obrazli ifoda orqali shoir Hapalak qishlog‘ining soliq daragini eshitgandan keyingi ahvolini tasvirlaydi:

Kecha nogoh eshitib shuhrati tillo pulini

Hapalak qo‘rqusidan uchdi misoli kapalak.

Shuningdek, tanqid qilingan shaxslarning hatti-harakatini tasvirlashda xalq og‘zida keng ishlatiladigan ifodalarni qo‘llaydi:

Du chashmi o‘st chun balg‘am,

Sarash monandayi shalg‘am.

Shoir Maxmur o‘z she’rlarini yozishda ikki til: tojik va o‘zbek tillaridan keng foydalangan. Sir emaski, bu kabi ikki tillik hodisasi davr uchun tabiiy bo‘lgan va biz shu orqali qaysidir jihatdan ushbu ikki tilning adabiy jihatlarini anglashimizda qo‘l keladi. Maxmur xalq orasida urf bo‘lgan tildan keng o‘rinlarda foydalanadi, ba’zi nuqtalarda xalq talaffuzidagi shaklini olib qo‘ya qoladi. Shuningdek, xalq tilidagi ayrim ifodalarni uning she’riyatida uchratishimiz mumkin: “qornini yorsang alif ham chiqmaydi, “qo‘rqqanidan kapalagi uchmoq”. Xalqning ijodiy boyligi bo‘lmish foklor namunalarining Maxmur ijodida qo‘llanishi adabiy tilning boyishiga va uning xalqchilligi oshishiga ma’lum ma’noda hissa qo‘shdi.

Umuman olganda, uning tili, uslubi, ifodalash yo‘sinida biroz g‘aliz holatlar ham yo‘q emas. Maxmur tilini tushunish biroz og‘irroq, chunki uning ijodida bu kabi so‘z va ifodalar ko‘p uchraydi va bu kabilarning ma’nosini tushunish uchun o‘quvchidan yaxshigina bilim talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashri, 2004. –18 b.
2. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси, т. II. – Тошкент. – Б. 224.
3. Ўзбек поэзиясининг антологиясию. – Тошкент, 1948.– Б.189.
4. Махмур девони
5. Азиз Қаюмов. “Махмур.” Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти. – Тошкент, 1958. 34 б.
6. Erkaev E.T., Suyarov N.T. Implementation of National-Regional Component un the Educational Process in the Republic of Uzbekistan. Current Research Journal of Pedagogies August 2021 Volume II SJIF (Impact Factor)-5.714. –P. 117-121.
7. Erkaev E.T. Chet til ta’limida tarjima mashqlari. J. Til va adabiyot ta’limi, 2022 yil 6-son. - B. 55-56.

8. Erkaev E.T. Chet tilni amaliy o‘rganishda mustaqil yondashuv. J. Til va adabiyot ta’limi, 2023 yil 2-son. - B. 18-19.
9. Erkaev E.T. Mustaqil ta’limni tashkil etishda mashqlarning ahamiyati. J. Til va adabiyot ta’limi, 2023 yil 3-son. - B.39-40.

Hashimova S.
filologiya fanlari doktori, DSc
Jamoat xavfsizligi universiteti
Tillarni o‘rganish kafedrasi professori

FEATURES OF THE ORGANIZATION OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN THE MODERNIZATION OF EDUCATIONAL CONTENT

Annotation: Update the content of teaching foreign languages is manifested in the fact that the selection of themes and issues of foreign language communication is focused on the real needs and interests of today's students, taking into account the different age groups, to strengthen the detailed nature of learning in general. Particular attention in the selection of the content of teaching foreign languages is given sociocultural knowledge and skills to enable students to adequately represent the culture of their country in the process of foreign language communication.

Key words: foreign language communication, socio-cultural environment, practical implementation, innovative teaching strategies.

Ensuring a stable functioning and development of education necessary conditions for the development of society and the state, in many countries, has long been regarded as a priority public policy issue. Education reforms are currently under way in most developed countries. In the XXI century in determining the competition between states will be the level of education of the nation as a whole, its ability to implement and develop advanced technologies. Speaking about the benefits of systematic teaching children a foreign language at primary school age, it should be

noted that learning a foreign language at a given age is useful for all children, regardless of their starting abilities, because it provides: an undeniable positive impact on the mental functions of the child, his memory, attention, thinking, perception , imagination , etc., stimulating effect on the overall ability of the child voice, before learning a foreign language gives great practical effect in terms of improving the quality of owning the first foreign language, provides the basis for the continuation of his studies in the primary school, and also opens up opportunities for learning a second, third foreign language, the need of ownership which is becoming increasingly apparent. Undeniable educational and informative value of early foreign language teaching, which manifests itself in an earlier entry of the child to human culture through communication on his new language. In this constant appeal to the experience of the child, taking into account his mentality, his perception of reality allows children to better understand the phenomenon of its own national culture in comparison with the culture of the target language.

Update the content of teaching foreign languages is manifested in the fact that the selection of themes and issues of foreign language communication is focused on the real needs and interests of today's students, taking into account the different age groups, to strengthen the detailed nature of learning in general. Particular attention in the selection of the content of teaching foreign languages is given sociocultural knowledge and skills to enable students to adequately represent the culture of their country in the process of foreign language communication. Thus, in the first stage of training implements the following objectives: to promote earlier familiarizing younger students to the new linguistic space for them at that age , when children are not yet experiencing psychological barriers in the use of a foreign language as a means of communication, to form children's willingness to communicate in a foreign language and a positive attitude to further his study, to form basic communication skills in four kinds of speech activity (speaking, listening, reading, writing), taking into account the opportunities and needs speech younger students; introduce younger students to the world of foreign peers with foreign songs, poetic and fabulous folklore and children with affordable samples

children's fiction in the target language; introduce children to a new social experience with the use of a foreign language by expanding the range of social roles in the play the game situations, typical for family representation of the most general features of verbal interaction in native and foreign languages, corresponding to the interests of the younger students rights and customs of the target language; generate some universal linguistic concepts observed in native and foreign languages, developing intellectual , speech and cognitive abilities of students.

Previously, the study of foreign languages is an opportunity for students: to understand by hearing speech teacher, classmates , the main content of lightweight text relying on visual presentation and language guess, to participate in a dialogical communication; conduct dialogue and basic etiquette bilateral dialogue-questioning in a limited range of everyday situations; briefly speak on the theme for the elementary school, play works by heart familiar rhymed children's folklore, to master the technique of reading aloud to read about training yourself and lightweight authentic texts, using, using the techniques of trial and studying reading, writing multiple greetings and a personal letter (supported by sample), fill out a simple questionnaire about themselves; properly pronounce and distinguish by ear sounds, words, phrases, and offers foreign language: intonation observe basic types of sentences; master the most common translations under the theme of the initial phase, master productive lexical minimum of no less than 500 lexical units. The total volume of vocabulary, including receptive lexical minimum is not less than 600 lexical units, to get an idea about the basic grammatical categories of the target language, to recognize studied vocabulary and grammar in reading and listening comprehension and use them in oral communication; learn basic information about the country of the target language. Objectives assigned to the subject of "foreign language", should decide methodically competent teacher, owns advanced technologies of foreign language teaching, knowing psycho-pedagogical features of pupils of primary school age. Since training with class II, it is important that the processes of education and development of students were in line with modern techniques.

As is known, the number of foreign language teachers who are trained to work with kids, small. However, the ability to competently teach a foreign language communication junior high school students who are not yet fully proficient communicative skills in their native language - a task very difficult and demanding . Love of the subject at this age is very closely linked with the sense of psychological comfort, joy, needs and readiness for dialogue, which creates a teacher in the classroom. Successful start learning a foreign language contributes to the creation of high motivation to learn foreign languages. The success of the training and attitude of students to the subject depends on how interesting and emotionally teacher conducts lessons. Of course, in the process of foreign language teaching pupils of primary school age is very important game. The more appropriate teacher uses game techniques, visibility, the stronger absorbed material. Thus, the success of the practical implementation of innovative teaching strategies in elementary school is largely dependent on the level of readiness of the teacher of a foreign language to the new conditions of socio-cultural environment, formed at school and on the ability to teach the language is functional, with a focus on intercultural communication.

Jaxongirovna D.Sh.
O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi
“O‘zbekiston” telereadiokanali” DM tarkibidagi ‘‘O‘zbekiston tarixi”
telekanali bosh muharrir o‘rinbosari

INTERVYUDA DISKURSNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada intervyu, diskurs, lingvistik tushunchasining mohiyati, diskursning sotsiopragmatik xususiyatlari,paralingvistik omillar yuzasidan so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: intervyu, diskurs, sotsiopragmatik, pragmatik lingvistika, paralingvistik va tahlil.

Intervyu diskursning lingvistik xususiyatlarini turli aspektlarga koʻra tadqiq etish, bu boradagi nazariy va ilmiy mulohazalarni tahliliy va tanqidiy asosda oʻrganish, jumladan, intervyu diskursning sotsiopragmatik hamda gender xususiyatlarini ochib berish orqali til, madaniyat va jamiyatning turli qatlamlari tiliga xos boʻlgan umumiylik va oʻziga xosliklarni aniqlashtirish muhim vazifalardan sanaladi. Biz mushohada yuritayotgan jarayonda intervyu diskurs qatnashchilaridan sinchkovlik, mantiqiy mulohaza, intuvitiv faraz va izchillikni, shu bilan birga, bu jarayonga xos sotsiopragmatik jihatlarni hisobga olish talab qilinadi. Bu jarayondada intervyu qatnashchilariga xos gender xususiyatlarni oʻrganish ham voqelikning tinglovchi ong ostida reallashuviga va tinglovchilarga gap nima haqida borayotganligini aniqroq va puxtaroq tushunilishiga yordam beradi.

Zamonaviy ilm-fan, xususan, tilshunoslik oʻziga tegishli hodisalarni oʻrganishga aniq fanlararo yondashuvlar mavjudligi bilan e'tiborni tortib turadi. Ayrim dalillarni tushuntirishda tegishli fan yoki sohalardan olingan ma'lumotlarni jalb qilish zarurati antropotsentrizm yoʻnalishidagi ilmiy obyektlarni koʻrib chiqishda diqqatning oʻzgarishiga bogʻliq boʻladi. Zamonaviy tilshunoslikda shu tariqa til hodisalariga kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik yondashuvlarning kirib kelishi faollashdi. Bunga bir tomondan, til, aloqa vositasi va ikkinchi tomondan, ijtimoiy ongning oʻziga xos xususiyatlaridan yuzaga keladigan hodisa sifatida qaraladi. Ayni shu jihatdan anglashiladiki, oʻzbek tili hodisalarini "nutq-lison" tamoyili asosida oʻrganish jarayonida qoʻlga kiritilgan lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishi nafaqat sathlar hamkorligi nuqtai nazaridan, balki paralingvistik omillar bilan birgalikda tadqiq qilish, ulardan shaxsning oqilona va samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish pragmatik lingvistika oldida turgan asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Yuqorida ham koʻrsatib oʻtganimiz kabi N.Mahmudov, L.Raupova, D.Xudoyberganova, M.Hakimov, Sh.Safarov kabi oʻzbek, Y.S.Kubryakova, Boduen de Kurtene singari chet el tilshunoslarining tadqiqotlarida pragmatika lingvistikaning yangi amaliy yoʻnalishi, tarmogʻi sifatida tilning nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador muammolarini

o‘rganuvchi soha sifatida shakllanganligi ta’kidlab o‘tilgan. “Zamonaviy tilshunoslikning ekspantsionizmi – boshqa fanlarga, birinchi navbatda, gumanitar fanlarga kirish va tadqiqot obyekti hamda sub’ektining kengayishi, murakkablashuvi kabi munosabatning paydo bo‘lishiga olib keldi”. Bu mulohazalarni Boduen de Kurtene fikrlari to‘la tasdiqlaydi: “Tilda ham psixologik, ham ijtimoiy omillar faoliyat ko‘rsatganligi tufayli psixologiyani tilshunoslik uchun yordamchi fanlar, sotsiologiyani jamiyatda kishilarning muloqot fani, ijtimoiy hayot fani deb hisoblashimiz kerak”. Yu.S.Stapanovning fikricha, “Inson nutqining mazmunida asosiy informatsiyadan – fikrdan tashqari deyarli hamma vaqt so‘zlovchining sotsial holatini ko‘rsatuvchi sotsial informatsiyani va emotsional informatsiyani topish mumkin”. Ayon bo‘ladiki, intervьyu diskurslarda so‘zlovchilarning sotsial holati oldingi planga chiqadi. Uning yoshi va jinsi, jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyi, tarbiyalanganlik darajasi, bilim saviyasi, tafakkur tarzi ayni muayyan savollarga javob berish jarayonida oydinlashadi.

Inson biosotsial mavjudot bo‘lib, tug‘ilgandan boshlab, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi ma’lum qobiliyatlarni shakllantirishga moyillik bo‘rtib turadi. Ammo bu kabi o‘ziga xos ruhiy xususiyatlarni shakllantirish faqat jamiyat ichida, oldingi ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniyat normalarini o‘zlashtirish orqali amalga oshishi mumkin. Bu jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi, deb atalishi ham yuqorida nomlari keltirilgan tilshunoslar asarlarida qayd etilgan. Ularning yakdil ta’kidlashlariga ko‘ra, ijtimoiylashuvning kuchli omili, mavjud bo‘lganlarning eng kuchlisi til hisoblanadi. Til shaxsning boshqa odamlar bilan muloqoti orqali va unga muvofiq muayyan qarashlar, e’tiqodlar, baholar va hokazolar tizimi orqali “o‘zlashtiradigan” ijtimoiy xotiraning bir qismidir. Shaxs bir butun yaratiq sifatida jamiyatda shakllanadi. Bu tizim shaxsning xulq-atvori uchun ma’lum bir asosni tashkil etadi. Muayyan odamlar ongida, u dunyoning muayyan shaxsiy modeli ichida o‘z tajribasiga muvofiq rivojlanadi.

Kommunikantlarning yoshiga hamda ijtimoiy mavqeiga ko‘ra farqlanishi alohida-alohida fenomenlar sifatida o‘z mavqeyi doirasida ko‘zga tashlanadi. Haqiqatan ham, bolalar bilan kattalar nutqi orasida

anchagina tafovutlar mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, intervyu diskursda ham 18-25 yoshdagi respondentlar bilan 30-50 va undan katta yoshdagi respondnetlarlar nutqi grammatik, leksik va ohang jihatidan anchagina farqlanadi. 18-25 yoshdagi kishilar nutqida shiddat, mulohazakorlikdan ko‘ra shoshma-shosharlik, maqsadni kamroq so‘zlar bilan bayon etib qo‘ya qolish, ko‘proq ovro‘pacha olinma so‘zlar tez-tez qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Bu o‘rinda ularning ijtimoiy mavqeyi (jamiyatda tutgan o‘rni) uning leksikoniga ta’sir qilib, yoshi ulug‘lardek emas, balki dunyoning baland-pastini ko‘rgan, hayotiy-ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgan respondent sifatida namoyon bo‘ladi. Intervyu olayotgan jurnalist yosh bo‘lsa, uning savollarida adresantning nutqiga yaqinlik darajasi ham ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot jarayonining ishtirokchilari: adresant (kommunikator) hamda adresat (javob qiluvchi)dir. Ularning ma’lum bir aniq amaliy ahamiyatli umumiy maqsadi bo‘ladi. Adresatning aloqa-aralashuv jarayonidan maqsadi (intentsiyasi) nimadir xususidagi axborotni yetkazish va odamlarning ruhiyatiga, axloqiga ta’sir etishdan iborat bo‘lsa, adresatning maqsadi tinglashdir va bu masala to‘g‘risida o‘z fikrini bayon qilishdan iborat bo‘ladi. Ularning umumiy maqsadi fikr almashishdan iborat bo‘lar ekan, bu jarayonning tempi biri faol, ikkinchisi nofaol bo‘lmaydi. Balki har ikki tomon jarayonda baravar mavqeda qatnashadi. Ularning muhim bir masalada bir-birlari bilan muloqotga kirishishlari natijasida tinglovchilarga muayyan bir axborot yetkaziladi, tinglovchining axloqi, dunyoqarashi, bilim saviyasiga ta’sir o‘tkazadi. Bir so‘z bilan aytganda, kishilarning intervьyu diskursda ishtiroki muayyan mavzuda axborot yetkazish, ularning axloqi va dunyoqarashiga ta’sir qilish, hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolarning yechimini aniqlashga ko‘mak berishdan iborat bo‘ladi. Shu orqali intervьyu diskurslar faqat axborot yetkazuvchi oddiy intervyulardan farq qilib turadi. Intervyu diskurslarning leksikoni o‘ziga xos bo‘lishi, unda mavzuga tegishli lug‘aviy birliklar, sintaktik qurilishi o‘ziga xos jumlalarning ishtirok etishi ham aslida shundan. Nazarimizda, intervьyu diskursning sotsial xoslanishi bunda asosiy o‘rinni tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

1.Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss.– Toshkent, 2001. – B. 14.

2.Stepanov Yu.S. Frantsuzkaya stilistika. – M.: Vыsshaya shkola, 1965. – Str. 21

3.Kubryakova Ye.S. Smena paradigm znaniya v lingvistike XX veka Tekst. / Ye. S. Kubryakova // Lingvistika na isxode XX veka: Itogi i perspektivы: tezisы mejdunar. konf. – Moskva: MGU, 1995. - T. 1. - S. 278-280.

4.Boduen de Kurtene Izbrannыe trudы po obщemu yazыkoznaniyu Tekst.: v 2 t. / I.A.Boduen de Kurtene. Moskva: Izd-vo AN SSSR, 1963. – T. 1. – 384 ye., T. 2. – 391 s.

5.Niyazova G.G‘. Detektiv romanlar tilining sotsiopragmatik aspekti va gender xususiyatlari.// Filologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya. – T.: 2022. – B.87-132.

6. 5. Mengliev B.R. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar. ADD., Toshkent, 2002.

7.Qurbonova M.A. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – Toshkent: O‘zDJTU, 2009. – 25 b.

8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. — B. 254.

9. Arutyunova N. D. Diskurs // Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovarь; gl. red. V. N. Yartseva. – M. : Sov. Entsiklopediya, 1990. 10. Shpetnыy K.I. Pragmaticheskie parametrы professionalьnogo diskursa (na materiale bbs News/ News Front Page) // Vestnik MGLU. 2010. № 596. S. 214–234.

Jaxongirovna D.Sh.
O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi
“O‘zbekiston” telereadiokanali” DM tarkibidagi ‘‘O‘zbekiston tarixi”
telekanali bosh muharrir o‘rinbosari

INTERVYU MATNNING LINGOKULTUROLOGIK ASPEKTI VA NUTQ MADANIYATI BILAN ALOQASI

Annotatsiya: mazkur maqola intervyu matnning lingokulturologik aspekti va nutq madaniyati bilan aloqasi haqida .

Kalit so‘zlar: lingokultrologiya, aspekt, kontsept intervyu, kontsept kognitiv tilshunoslik

Ma’lumki, lingvokulturologiya maxsus fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha sermahsul tushunchalarni yuzaga keltirdi: lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniyat kontsepti, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniy universaliya, madaniy salohiyat, madaniy meros, madaniy an’analar, madaniy jarayon, madaniy ko‘rsatmalar va h.k. Shuningdek, lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy apparatiga mentalitet, mentallik, taomil, rasm - rusumlar, madaniyat doirasi, madaniyat turi, tamaddun va boshqalar kiradi. Mazkur tushunchalardan eng muhimlari madaniy sema, madaniy fon, madaniy kontsept va madaniy konnotatsiya bo‘lib, ular madaniy informatsiyaning til birliklari vositasida ko‘rsata oladi. Intervyu diskurs jarayonida ana shularning aksariyati ishtirok etadi, deyish mumkin va ular intervьyuning jonli chiqishi hamda milliy jihatini belgilab beradi.

N.Mahmudov tilshunoslikda lingvokultrologik jarayonni ta’riflar ekan, uni nutq madaniyati bilan aralashtirib yubormaslikni, lingvomadaniyat hamda nutqiy madaniyat bir hodisa emasligini alohida uqtiradi. Olimning ko‘rsatishicha, “lingvokulьtrologiyadagi asosiy muammo sanalgan til va madaniyat munosabatiga to‘xtalganda madaniyat tushunchasini to‘g‘ri tasavvur etish lozim...Til va madaniyat deganda, odatda (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi,

aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati) demakdir”. Lingvokulьturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasini, o‘zaro ta’sirini, tilda o‘z aksini topgan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etadigan soha ekan, fanning bu sohasi tilni madaniyatning fenomeni, tashuvchisi sifatida o‘rganishini e’tiborda tutish lozim. Mazkur fan doirasida leksik darajaning til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslikning tarkibiy qismlari va madaniy ma’nolar e’tiborda tutiladi.

Agar intervyu diskursni lingvokultrologik aspektda ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, masalaning ana shu jihatlarini e’tibordan soqit qilmagan holda yondashmoq zarur bo‘ladi. Negaki, interyu diskursning asosiy maqsadi fikr almashuv masalasiga juda yaqin kelar ekan, savol beruvchi va javob qiluvchi o‘rtasidagi fikr almashuv kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy - ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Intervyu OAVda e’lon qilinadi. Undan jamiyat a’zolarining deyarli barchasi ogoh bo‘ladi. Ayni shu jihatiga ko‘ra intervyu diskursda lingvomadaniyatning qator jihatlari ishtirok etadi va bular intervyu olayotgan hamda intervyu berayotgan shaxslarning nutqlarida namoyon bo‘lib turadi. Shu o‘rinda intervyu diskurslarda lingvomadaniy kontsept masalasiga ham mumkin qadar to‘xtab o‘tish lozim bo‘ladi. Faylasuf S. Askoldovning qarashicha, kontseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishar ekan, kontseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Bu esa kontsept intervyu diskurslarning ham alohida harakatlantiruvchi elementi ekanligini ko‘rsatadi. Zero ”Lisoniy makonda mavjud bo‘lgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining o‘ziga xosligini belgilaydi. XX asrning birinchi choragida kontsept haqida mulohazalarga tanqidiy yondashilgan. Faqat 80-yillarga kelib, bu terminga ehtiyoj qayta paydo bo‘ldi. Yu. S. Stepanov o‘zining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, kontsept so‘zining etimologiyasiga murojaat qiladi. Kontsept lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” so‘zining kalkasidir. Kontsept ikki

tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat kontsept koʻrinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson kontsept yordamida madaniyatga kiradi va baʼzan unga taʼsir koʻrsatadi. Inson oʻzining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, kontsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi. Kontseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi oʻzaro farqlanadi. Ushbu termin tilshunoslikda oʻtgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha soʻziga sinonim sifatida ishlatilgan boʻlsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini koʻrish mumkin. Binobarin, N.Yu. Shvedova kontseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, oʻz tarixiy ildizlariga ega boʻlgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini taʼkidlagan. Modomiki, kontsept lingvokulturologiyada eng faol qoʻllanuvchi birlik sanalar ekan, intervьyu diskursda ham uning oʻz oʻrni, oʻz taʼsir quvvati mavjud. Kontsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining oʻziga xos jihatlarini ifodalaydi. Lingvomadaniy kontsept milliy xarakterning shakllanishiga taʼsir koʻrsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Nutq lingvistikasining tekshiruv obyekti nimadan iborat? Nutq lingvistikasi xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari. – Samarqand: SamDChTI, 2006. – B.4.

2. Bu haqda qarang: Safarov Sh. Koʻrsatilgan manba. – B.4; Schiffrin D. Approaches to Discourse. – Oxford, Cambridge: MA. 1994.

Mahmudov N. Koʻrsatilgan manba. – B.61-62.

3. Askolьdov, S. A. Kontsept i slovo [Tekst] / S. A. Askolьdov // Russkaya slovesnostь. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. Antologiya. – M. : Academia, 1997. – S. 267–280.

4. Stepanov, Yu. S. Konstantы: Slovarь russkoy kulьturы [Tekst] / Yu. S. Stepanov. – M. : Akademiche-skiy proekt, 2004.

5. Demьyankov V.Z. Ponyatie i kontsept v xudojestvennom litarature i v nauchnom yazыke // Voprosы filologii. –Moskva, 2001. -№ 1. –S. 35-47.

6. Demьyankov V.Z. Ko‘rsatilga maqola. – s.39.

7.Shvedova N.Yu. Izbrannыe raboty. –M., 2005. –S.603.

Джуманиязова Н. А.
преподаватель кафедры русского языка и литературы
Ургенчского государственного университета

О СОБЛЮДЕНИИ ЛИТЕРАТУРНОЙ НОРМЫ ПРИ ИЗУЧЕНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: в статье говорится о важности соблюдения литературной нормы при изучении узбекского языка, богатого своими диалектными формами. Дается частичный комментарий лексическим, грамматическим, стилистическим, орфографическим, орфоэпическим ошибкам. Обучение всех граждан республики современному литературному узбекскому языку – дело большой государственной важности.

Ключевые слова: литературный язык, узбекский язык, государственный язык, императивные нормы, диспозитивные нормы, кодификация, вариативность нормы.

Узбекский язык – государственный язык Республики Узбекистан. **Государственный** – значит официальный, утвержденный органами власти, обязательный для употребления. Существует языковой стандарт, на который опирается государственный язык - современный узбекский литературный язык с выработанными нормами употребления - лингвистическими, эстетическими, аксиологическими, правовыми и политическими.

Под **литературным языком** понимается тот вариант узбекского языка, который считается образцовым в обществе. Одним из

важнейших признаков образцового языка является нормативность (кодифицированность).

Норма - это единообразное, образцовое, общепризнанное употребление языковых единиц, правил произношения, правописания, словообразования, словоизменения и соединения слов и предложений.

Применительно к узбекскому языку как государственному языку Республики Узбекистан целесообразно узкое и строгое понимание нормы - это **кодифицированные** (закрепленные в словарях) нормы литературного языка.

Нормированность означает соответствие языковому идеалу, который создается литературными и языковыми традициями народа, единым словоупотреблением, высоким авторитетом великих и образованных личностей, мощнейшим воздействием СМИ.

В лингвистической науке существуют *императивные (обязательные) и диспозитивные (восполнительные) типы норм.* Их нарушения оцениваются как грубые и негрубые.

Императивные нормы в языке являются обязательными правилами, которые регулируют закономерности жизнедеятельности языка (различные грамматические правила). Эти нормы фиксированны и не допускают других вариантов. Иначе в речи появляются грубые ошибки.

Диспозитивные (восполнительные, не строго обязательные) нормы - это вар***иативные языковые нормы, являющиеся с***ледствием языковой эволюции.

Но чаще всего нормативным признается только один из вариантов, остальные считаются недопустимыми, неправильными, нарушающими литературную норму.

Нормы изменяются под воздействием

а) разговорной речи, б) просторечия, в) диалектов и г) жаргонов.

В устной форме узбекского языка широко представлены все эти четыре элемента. Особенно страдает язык от массового использования многочисленных диалектов, которыми сегодня заполнено интернет пространство. Поэтому первостепенная задача

всех ученых-лингвистов - развивать и популяризировать литературный узбекский язык.

В литературном языке различают нормы письменной речи и нормы устной речи.

1. **Лексические нормы помогают человеку** правильно выбирать слова среди многих близкородственных по значению или по форме элементов, четко определять лексическую сочетаемость выбранных сов и употреблять их в соответствии с литературными нормами, нарушение которых считается ***речевыми (лексическими) ошибками***.

2. **Стилистические нормы** регулируют выбор слов или его форм, выбор словосочетаний и предложений в зависимости от ситуации и условий общения. Использование языковых единиц, не соответствующих стилю данного текста чревато стилистическими ошибками.

3. **Грамматические нормы** требуют определенного порядка соединения частей слова, образования новых слов; правильного образования грамматических форм слов; правильного построения основных синтаксических единиц – словосочетаний и предложений, которые включают правила согласования слов и синтаксического управления, соотнесения частей предложения друг с другом.

4. **Нормы орфографии** подчиняются правилам обозначения слов на письме, куда входят правила обозначения звуков буквами, правила слитного, дефисного и раздельного написания слов, правила употребления заглавных букв и графических сокращений, правила переноса слов.

5. **Нормы пунктуации** диктуют правильное употребление знаков препинания.

6. **Орфоэпические нормы** включают нормы произношения, ударения и интонации. В узбекском языке нормы ударения не столь значимы, т.к. оно в большинстве случаев падает на последний слог.

Универсальным понятием культуры любой, в том числе и узбекской, речи является **хорошая речь**. Сложность состоит в том, что знание литературной нормы еще не обеспечивает высокого

качества речи. Необходимо еще владение высокой культурой речи, которая таится в умении человека достигать коммуникативных целей в общении.

Узбекский язык - это средство общения, зеркало и достояние всего народа. Поэтому при его изучении нельзя забывать и о качестве речи: богатстве, чистоте, логичности, ясности, простоте, краткости, точности, уместности, образности, выразительности, благозвучии. Только при этих условия мы сможем развивать и популяризировать наш родной язык.

Литература:

1. Мелибоев А. Главное достояние народа // «Правда Востока» №212 от 19.10.19.
2. Морозова Н. Достояние, переданное нам предшественниками http://marifat.uz/uchitel-uz/rubriki/god_dialoga/3697.htm
3. Рябова Л. Г. Государственный язык как лингвистическая категория. Успехи современной науки. 2016.
4. Узбекский язык // https://ru.wikipedia.org/wiki
5. Язык и общество. Энциклопедия. (2016) Под ред. В.Ю. Михальченко. М.: Издательский центр «Азбуковник». 872 с.

Джуманиязова С.Р.
доцент кафедры русского языка и литературы
Ургенчского государственного университета

ЯЗЫК КАК СИМВОЛ РОДИНЫ

Аннотация: в статье раскрывается сущность одного из главных символов узбекской нации – языка, предпринимается попытка определить место понятия «государственный язык». Акцентируется внимание на необходимости развития и популяризации узбекского языка как одного из стратегических приоритетов нашего государства, об условиях достижения данной цели.

Ключевые слова: государственный язык, узбекский язык, родной язык, личность, нация, главнейшее средство государственности, символ Родины, поколения, закон, статус.

В современную эпоху, где господствуют глобализация и высокие технологии, изучение языка, его обучение, а главное – отношение к нему имеют важное значение. Потому что именно глобализация, информационный социум, техногенное развитие реально таят угрозу для существования развития языка. Вследствие развития новых современных технологий некоторые народы невольно прибегают к другим, более распространенным языкам, оставляя в стороне родную речь.

Язык - это один из символов нации, точно так же как Герб, Флаг и Гимн страны. Язык есть культура, духовность, национальный менталитет, история, образ жизни, традиции, этнопсихология, характер нации и, самое главное, независимость народа.

Развитие языка – один из основных приоритетов культурно-образовательной политики государства. Это задача государственной важности, напрямую связанная с патриотизмом. Отметим, что благодаря языку люди могут выражать свои мысли в материальной речевой форме.

Языков в мире много, но не у всех народов мира есть собственный язык. Согласно исследовательскому анализу и мнению экспертов, 90 процентов языков планеты стоят на пороге исчезновения. В настоящее время в мире каждые две недели уходит в небытие один язык. Опираясь на наблюдения ученых в качестве примера можно сказать, что 80 процентов представителей африканских народностей не владеет письменной речью, а тысячи языков не могут применяться в системе образования. Исчезновение языка — абсолютная утрата для человеческой цивилизации, потому что каждый язык является неотделимой составной частью культурного достояния нации, народа, этноса, говорящего на этом языке.

Родной язык – очень важная часть каждого отдельного человека. Безусловно, свой родной язык нужно знать, развивать и беречь. Фольклор, легенды, мудрые изречения, пословицы, поговорки, эпосы, частушки, песни, научные, публицистические и художественные произведения появляются на свет на родном языке народа. Поэтому бережное отношение к родному языку также важно, как знать, изучать и уважать языки других народов.

Родной язык мы впитываем с молоком матери. На нем мы говорим самые первые и самые главные слова в нашей жизни. Родной язык - это душа народа, символ государства, его независимости и суверенитета. Сохранение, развитие и популяризация родного языка способствует подъему нации.

Мы – узбеки и узбекистанцы. Мы говорим на узбекском языке. Наш язык вечен. Он никогда не исчезнет, потому что на нем говорят около пятидесяти миллионов человек по всему миру, и число это постоянно увеличивается. Узбекский язык кроме территории Узбекистана широко используется в Кыргызстане, Таджикистане, Туркменистане, Казахстане, России и Турции. Это один из древнейших и богатейших языков мира.

Узбекский язык – самобытное и неоценимое наследие многовековой культурной, научной, просветительской и художественной мысли, интеллектуального потенциала нашего народа.

Бесценный вклад в повышение статуса узбекского языка внесли такие великие мыслители как Ахмад Югнаки, Махмуд Кашгари, Аваз Утар, Лютфи, Фуркат, Юсуф Хос Хаджиб, Шейхзада Атойи, Мукими ,Хафиз Хорезми, Ходжа Ахмад Яссави, Мунис Хорезми, Абу Райхан Беруни, Захириддин Бабур и многие другие. Особое место в этой плеяде ярких и самобытных наших предков занимает Алишер Навои, который кроме всего прочего занимался сбором, бережным хранением, совершенствованием слов и богатых диалектов тюркского языка.

Сегодня узбекский язык успешно фигурирует во всех сферах жизни - в государственной и социальной жизни, межгосударственных

отношениях, науке, образовании, медицине, культуре и искусстве. И даже на международной арене. Выступление нашего Президента с высокой трибуны Организации Объединенных Наций на государственном – узбекском языке вызывает колоссальную гордость жителей Республики. Наш гимн на узбекском языке звучит на значимых международных турнирах, когда узбекские спортсмены заслуженно побеждают.

Язык – главнейшее средство государственности, он играет судьбоносную роль в деле становления национального государства. Игнорирование или неуважение языка является решительным доказательством потери чувства национальной гордости. Поэтому одной из основополагающих задач узбекистанского общества, всех просвещенных людей страны, представителей интеллигенции, а также государственных и правительственных деятелей является защита и охрана древнего и красивого узбекского языка, чтобы целостным, чистым и развитым доводить его для будущих поколений. Каждое поколение должно развивать и популяризировать узбекский язык для дальнейшего его подъема как важнейшего фактора единения всех узбекистанцев.

С этой целью Указом Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2020 года за № УП-6084 утверждена «Концепция развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020 — 2030 годах».

Непрерывное и всестороннее развитие узбекского языка, как национального и государственного языка, является важнейшим признаком стабильности нашей национальной государственности и государственно-политической независимости в современном неспокойном мире.

Узбекский язык является одним из самых богатых и древних языков мира. За годы независимости он стал государственным языком и сегодня служит нашему народу в великом деле построения свободной, спокойной и благополучной жизни в нашей стране. Узбекистан нацелен на высокую ступень развития, взяв за основу принцип «От национального возрождения к национальному

прогрессу». Этот процесс сопровождается все возрастающей ролью, престижем государственного языка в жизни общества.

Однако, для дальнейшего развития узбекского языка, его обогащения и подъема необходимо приложить существенные усилия. Среди них можно выделить следующие:

1. Соблюдение и сохранение самобытности и чистоты языка, по мере возможности не употреблять заимствованные из других языков слова.

Вместе с изучением иностранных языков надо обращать внимание на более глубокое изучение узбекского литературного языка, ибо наш национальный язык богат диалектами, которые прочно вошли в речь узбеков разных регионов страны и мешают объединяющей силе литературного языка.

2. Дальнейшее укрепление деятельности Национальной академии наук Узбекистана, министерств и ведомств в области создания цифрового запаса узбекского языка, так как это важнейшее условие сохранения узбекского языка в эпоху глобализации. Так поступают в большинстве развитых стран мира. Необходимо внести в социально-информационные сети электронные копии словарей, учебников, учебных и методических пособий с сегодняшним узбекским алфавитом.

3. Основательное изучение теоретических аспектов древнего узбекского языка, истории его грамматики, подготовка специалистов и исследователей первоисточников нашего могучего и красивого языка.

4. Публикация бессмертных произведений узбекской поэзии и прозы на языке источников в глобальных интернет-СМИ. В эпоху глобализации это явится одним из важнейших факторов распространения и популяризации узбекского языка. Данный процесс важно сопровождать совершенствованием разговорного литературного языка и повышением его духовно-познавательной ценности.

5. Создание более полного словаря узбекского языка с охватом общеупотребительных бытовых слов, который стал бы настольной книгой каждого узбекистанца и всех желающих изучить наш язык.

В заключении хочется повторить: язык нации есть основа независимости. Уважение к языку – это уважение к людям-носителям языка. Каждый узбекистанец должен считать за честь любовь и уважение к государственному языку. В статусе языка заложена слава страны. Чтобы стать великой страной во всех отношениях, нам необходимо поднять престиж родного языка. Это наше главное дело.

Литература:

1. Кирилина А.В. Некоторые аспекты формирования философии языка в эпоху глобализации // Жизнь языка в культуре и социуме-3 : Материалы международной научной конференции. Москва 20–21 апреля 2012 года / отв. ред. Е.Ф. Тарасов. – М., 2012. – С. 9–10.
2. Морозова Н. Достояние, переданное нам предшественниками http://marifat.uz/uchitel-uz/rubriki/god_dialoga/3697.htm
3. Узбекский язык // https://ru.wikipedia.org/wiki
4. Хабенская Е.О. «Родной язык» как этнический символ // Казанский федералист. – 2004. – № 1(9). – URL: http://www.kazanfed.ru/publications/kazanfederalist/ n9/7/ (дата обращения: 15.01.2020).

Йўлдошев И.,
филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори ўринбосари

СЎЗ ҚИСМАТИ – МИЛЛАТ ҚИСМАТИ

Аннотация: мақолада ҳар қандай тилнинг, хусусан, ўзбек тилининг миллат тақдиридаги ўрни, тил ва нутқ, ўзбек тилининг гўзаллиги ва бунда сўзларнинг ўрни, айрим сўзларнинг этимологик

таҳлили, сўз қўллашга оид тавсия масалалари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: тил, маданият, тил тараққиёти, миллат руҳи, сўз қисмати, бекат, ўқитувчи, хўпитмоқ, уяли телефон, дўнар.

Тил ва маданият масаласи жуда қадимдан ўта долзарб мавзулардан бири бўлиб келган. Чунки тил орқали ҳар бир миллатнинг хулқи, одоби, маънавияти, маданияти, қолаверса, миллат сифатида нечоғлик ўрин эгаллаганлиги маълум бўлган. Шу боис улуғ аждодимиз Юсуф Хос Ҳожиб “Одобнинг боши тилдир” деб бежиз айтмаган. Буюк Навоий “Хамса”ни битиб, бу тилнинг ўрнини бежиз юксакликка кўтармаган. Улуғ Навоий айтганидек, “Тилга эътибор – элга эътибор”дир.

Бугун юртимизда ҳар бир соҳада буюк ўзгаришлар, ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Дунё миқёсида ўта мураккаб бир вазият бўлиб турган замонда ҳар биримиз бўлаётган ислоҳотлар борасида ўз улушимизни қўшиш сари шижоат қилишимизни даврнинг ўзи талаб этмоқда. Бу юрт, бу ўлка, унинг етук фарзандлари қадимдан жаҳон маданияти ривожига катта улуш қўшиб келган. Манбаларда айтилганидек, **“Цивилизация, жумладан, Юнонистонда нафосат, Ҳиндистонда дин, Оврупада моддий-техника тараққиёти, Туронда эса ахлоқ шаклида вужудга келган... Қадимий Туронда ахлоққа катта эътибор билан қарашган. Юксак инсоний фазилат, инсоннинг миллатидан қатъий назар, барча мавжудодларнинг саркари сифатида қадрлаш, маънавий камолот ва етуклик, адолат, инсоф, диёнат ва имон каби хусусиятлар тирикликнинг бош мазмуни сифатида тушунилган”**[1]. Биз яхши биламизки, юртимизда ахлоқ масаласи бениҳоя серқамров, мағзи тўқ, қиёси йўқ тушунча сифатида ардоқлаб келинади. “Маънили ва бежирим гапира билиш, нутқ дарёсидаги мақбул ва номақбул тўлқинларни илғай олиш, сўзнинг орқа-ўнгини, муносиб ўрнини фарқлай билиш, нутқий фаҳму фаросат, тарҳли нутқ одоби каби фазилатлар Туронда инсон умумий ахлоқининг, маънавий расолигининг таянч устунларидан саналган”[2]. Демак, тил ва нутқ

масаласи қадимдан миллат маънавияти ва маданияти такомилининг бош омилларидан бири бўлиб келган. Она тилимиз келажагини таъминлаш – халқимиз маданиятини асрашдир, унинг боқийлигини таъминлаш бугун учун, айниқса, муҳимдир. Бугунги давр шуни тақозо этмоқда.

Тил хусусида билдирилган фикрлар турлича, лекин ҳақиқат шуки, тил бениҳоя муқаддас ва мўътабардир. У инсонни шакллантирган, тараққиёт сари етаклаган, унинг ақл неъматларини ифода этиб, тафаккур гулшани дарвозаларини очган тенгсиз бир робитадир. Шундай бир буюк эҳтиром ва эъзозга сазовор бўлган тилларнинг кечмиши бир хил эмас, албатта. Тарих саҳнасида ўзбек тили не машаққатлар билан омон қолди. Ахир, тил – миллатнинг руҳи, дейилади, тил ўлса, миллат ҳам тамом бўлади. Бунга мисоллар камми? Сибир халқларини ўйлаб кўринг, уларнинг тиллари йўқ бўлиши билан бирга исмлари ҳам ўзгариб кетди. Бутун Европа тилларининг шаклланишида етакчи тил вазифасини бажарган буюк лотин тили, Шарқ тилларининг бобоси деб атаганимиз санскритча тамоман тугаб битди. Ёки яқин ҳудудларимизда кенг қулоч ёйиб тараққий этган сўғд тили, паҳлавий, парфиён тилларининг кечмишини эслайлик. Ёки Шимолий Америкадаги алгонкин тиллари микрооиласига кирувчи массачуси ҳамда могикан тилларининг тақдири ҳам йўқлик билан якунланди. Ёки қадимги Вавилонияда кенг тарқалган аккад тили, эрамиздан олдинги III асрдан эрамизнинг IV асрига қадар Ғарбий Осиёда яшаган оромийларнинг оромий тили, шунингдек, қадимги Финикиядаги финикий тили, қадимги миср тили негизида пайдо бўлган копт тили каби тилларнинг тақдири ҳам йўқлик билан якун топиб, тарих саҳнасидан тушиб қолди. Шунинг учун ҳам тилимизнинг бугунги ривожи ва жаҳон тиллари орасидаги муносиб ўрни учун беадад шукурлар қилишимиз керак. Тўғри, тилимиз ҳам ўз тарихий тараққиёти давомида кўп синоатлардан муваффақиятли ўта олди. У дунё тиллари уммонига келиб қуйилгунга қадар қаердадир шовуллаб шиддат билан оқди, қаердадир тарих йўлидаги дамбага дуч келиб, шиддатини секинлатди, яна дамбани ошиб ўтиб, ўз ўзанида тил уммони сари интилди. **Тилимизнинг**

бугунга қадар омон-эсон келиши ва тараққий этишининг асосий боиси, биринчидан, халқимизнинг ўз она тилини жонидан севиши, асраб авайлаши, ардоқлашидадир

Демакки, биз тарихан она тилимиз шайдосимиз. Шундай бўлиши ҳам керак. Ўзбек тилининг юрти, Ватани – Ўзбекистон, давлат сифатида уни ҳимоя қиладиган, тараққиётини, қонуний асосларини тўлиқ таъминлайдиган ҳам шу юртдир. Эндиги вазифамиз, асрлар давомида халқимиз томонидан кўз қорачиғидек асраб келинган, Кошғарий, Навоий каби боболаримиздек буюк инсонларимиз бу тил яшаб кетиши, тараққий этиши учун бутун ҳаётларини бахшида этган тилимизнинг бутун борлиғи билан келажак авлодга етказишдир. Чунки тил – миллатнинг руҳи, тил яшаса, миллат ҳам яшайди. Демак, бугун ҳам она тилимиз олдидаги масъулиятимиз ортса ортганки, камаймаган.

Ҳар қандай тил унинг сўзлари билан гўзал. Буни биз баъзида ё сезамиз, ё сезмаймиз. Бу ҳолатни буюк шоиримиз Эркин Воҳидов қуйидагича таърифлайди: “Дунёнинг энг ажиб, энг сирли ва сеҳрли саёҳатларидан бири Сўз оламига саёҳатдир. Негаки, Сўз яратилишдан мўъжиза. Аввал Сўз бўлган, дейилади муқаддас китобларда. ...Сўзнинг илдизига етган киши дунёнинг тагига етгандек баҳра топади. Инсоният тарихи сўзлар қисматида яшириниб ётар экан”[3].

Ҳеч ўйлаб кўрганмисиз – **бекат** сўзининг русча “остановка” сўзининг маъноси билан қандай боғлиқлиги бор? 5 жилдан иборат “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да бу сўзга қуйидагича изоҳ берилган: “**БЕКАТ 1** *тар.* Қадимда йўлларда карвонлар ва йўловчилар тўхтаб дам оладиган махсус жой, манзил. **2** *тар.* Почта станцияси. **3** Йўловчиларнинг бирор транспорт тури (мас, автобус, трамвай ёки метро)га чиқиш ва ундан тушишлари учун белгиланган жой. **4** *кўчма* Ҳаётда босиб ўтиладиган йўлнинг маълум босқичи, марраси” тарзида изоҳлар берилган[4]. Бу изоҳлар тушунарли, лекин тилимизда “бекат” маъноси билан боғлиқ бу сўзнинг феъл шакли борми? Жавоб – йўқ. Тўғри, “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да “бекламоқ” сўзи берилган, лекин бу сўзнинг “бекитмоқ” маъносида қўлланиши кўрсатилган.

Қизиқ бир ҳолат: ҳозирги турк тилида “beklemek” феъли бор, лекин у “кутмоқ” дегани. Турк тилида ўзбек тилидаги “кутмоқ” феъли сўз сифатида мавжуд эмас. Энг қизиғи, туркчада “beklemek” феъли бўлгани ҳолда от шаклидаги “бекат” сўзи йўқ, унинг маъносида “durağ” қўлланади (“durağ”– “кутиб турмоқ” маъносидаги “durmak” феълидан ясалган бўлиб, “кутиш жойи”, “манзил” маъноларини ифодалайди). Ўзбек тилида эса “beklemek” – “бекламоқ” феъли мавжуд бўлмаган ҳолда, “бекат” от шакли мавжуд. Демак, тилимиздаги “бекат” сўзи қадимги туркий тилдаги “бекламоқ” феълидан ясалган, фақат ўзбек тилида унинг феъл шакли умумистеъмолдан чиқиб кетган. Худди “ёзмоқ” феъли қадимда ғарбий туркий халқларга тааллуқли бўлиб, “битмоқ” феъли кўпроқ шарқий туркий халқларга оид бўлгани сингари. Чунки ҳозирги турк тилида “битмоқ” феълининг ёзмоқ маъноси мавжуд эмас. У асосан *яранинг битиши, майсанинг битиши* маъноларида қўлланади.

Бугунги тилимиз тараққиёти билан боғлиқ яна бир ҳолат: ҳеч ўйлаб кўрганмисиз, нима учун биз сўзлашув тилимизда **уяли телефон** бирикмасини ҳеч ишлатмаймиз? Ахир, йигирма йилдан буён телевидение, радио бу сўзни айтавериб, газета ва рекламаларда бу сўзни ёзавериб чарчашди-ку! Сабаби – халқимиз “уя” сўзининг телефонга нима алоқаси борлигини ҳануз ҳазм қила олмай қабул қилмаяпти. Бу “уяли телефон”, агар сўз дейиш мумкин бўлса, рус тилидаги “сотовый телефон” сўзининг сўзма-сўз таржимаси натижасида пайдо бўлди. Ўша даврда сўз ижодкорлари бу бирикманинг ўзбекчасини ясашда “сотовый” сўзининг луғат (“Русча-ўзбекча луғат”)даги “арининг (асаларининг) уяси” маъносини олиб, “уяли телефон” бирикмасини ясашди. Билмадикки, тилнинг асосий ҳаками – халқ, халқ қабул қилсагина сўз тилда яшайди, умри узоқ бўлади. Тил ҳеч қачон зўравонликни кўтармайди, у ҳам инсон сингари эркинликка ўрганган. Эслайлик, бир муддат “жумҳурият”, “ноҳия”, “рўзнома”, “тайёра”, “тайёрагоҳ”, “вилоят” каби сўзларни муомалага киритиш борасида роса тортишдик. Орадан чорак аср ўтиб тилимизда “республика”, “туман”, “газета”, “самолёт”, “аэропорт”, “вилоят” сўзлари ҳеч қандай мажбурийликсиз ўз ўрнини эгаллади.

Хўш, “сотовый телефон” борасида қандай йўл тутиш лозим эди? Бунинг йўли оддий. Сўз ўзлаштиришнинг асосий қоидаларидан бири – аслий тилдаги сўзнинг маъносидан келиб чиққан ҳолда ўзлаштириб олинаётган тилда янги сўз ясаш. Бу телефон тури илгаригидек бир жойда турадиган (стационар) телефондан фарқли бўлиб, уни қўлда ёки чўнтакда олиб юриш мумкин эди. Шунинг учун ушбу моҳиятдан келиб чиқиб, уни **“қўл телефони”** ёки **“чўнтак телефони”** десак ва уни расмий муомалага киритсак маъқул бўлар эди. Зотан, халқ тилида бу тарзда қўлланмоқда ҳам.

Мен илмий изланишлар борасида ҳеч бир қадимги ёзма манбаларда **ўқитувчи** сўзини учратмадим. Унинг ўрнида, асосан, *устоз, муаллим, мударрис, домла* каби сўзлар қўлланганининг гувоҳи бўлдим. Мактабда, институтда ўқиган вақтларимизда устозга “домла” деб мурожаат қилганмиз. “Домла” сўзи, рус тилшунос-тарихчиси Е.Поливановнинг ёзишича, араб тилида “ўқимишли, тақводор одам” маъносини ифодаловчи “мулла” сўзига хитой тилида “буюк”, “катта” маъноларини англатувчи “до” олд қўшимчасини қўшиш орқали ўзбек тилида ясалган сўз бўлиб, “буюк устоз”, “буюк донишманд”, “катта ҳурматга эга устоз” маъноларини билдиради, яъни *мавлоно* дегани[5].

Таъкидлаш лозимки, ўтган асрнинг 60-йилларида устозга “домла” деб мурожаат қилсак, устозлардан баъзиларининг жаҳли чиқиб: “Домла мачитда бўлади, мени домла деб чақирма”, – дер эдилар. Биз эса ҳайрон, “Домла мумкинми?”, “Домла ташқарига чиқиб келсам мумкинми?” каби мурожаатли саволларни қандай ифодалашни билмасдик. Ўзингиз ўйлаб кўринг: “Ўқитувчи мумкинми?” деб бўлмайди-ку! Биз томонларда (Қўқон теварак-атрофида) аёл устозларга нисбатан нима учундир ОПОЙ сўзи ишлатиларди. “Опой, мумкинми?” дер эдик. Эркак ўқитувчиларга нисбатан ДОМЛА сўзи қўлланган. Бизнинг даврларда ўқитувчига нисбатан мурожаатда УСТОЗ сўзи қўлланилганини эслолмайман. Тўғри, биз ўрта мактабда ўқиган пайтларда (ўтган асрнинг 60-70-йилларида) ҳам “устоз” тилимизда мавжуд бўлган, у кўпроқ касб, ҳунар, илм борасида йўл-йўриқ кўрсатувчи уста ёки илмий раҳбарга нисбатан фаол қўлланган, деб ўйлайман.

Ўйлаб қоламиз: у ҳолда “ўқитувчи” сўзи қандай ва қачон тилимизда муомалага кирди? Савол ўринли. Менимча, ўтган асримиз бошларида – диний масалалар билан боғлиқ қатағонлик, қама-қамалар авж олган даврда зиёлиларимиз қандай сўз бўлишидан қатъий назар, арабча сўзларни ишлатишдан шунчалик юрак олдириб қўйишган бўлсалар керак. Ҳатто, уйидан араб ёзувидаги китоб чиқиб қолса, у диний бўлмаса ҳам, унинг эгаси қамоққа тортилган ёки Сибирга сургун қилинган, дейишади. Шу ўринда муҳтарам устозимиз, филология фанлари доктори, профессор Ҳомиджон Ҳомидий домла айтиб берган ҳаётий воқеа ёдимга тушди. Биламизки, устоз 1935 йилда таваллуд топганлар. Домланинг айтишларича, ўша талотум йилларнинг бир кунида оталари тонг саҳарида ёш Ҳомиджонни уйғотиб, бир жойга бориб келишлари лозимлигини айтишибди. Ёш Ҳомиджон уйқу тўла кўзларини ишқалаб, ота ортидан эргашиб ҳовлига чиқибди. Шунда оталари икки кўзи тўла оғир хуржунни эшакка бир амаллаб юклаб йўлга тушишибди. Сой бўйига етишганида хуржундаги қўлёзма китобларни оталари сувга оқизган эканлар. Ёш бола учун бу ҳолат ғайритабиий кўринган ва отасидан бу ишнинг боисини сўраган. Ота ўғлига агар бу ишни қилмаса, НКВД ходимлари келиб уйдан топиб олса, отанинг аҳволи нима билан тугашини тушунтирган. Бу воқеани устоз кўп ўкинч билан хотирлаб айтиб берган эдилар.

Демак, арабча ёки арабча деб ўйланган сўзларни қўллаш андишали бўлиб турган шундай бир қора долғали даврда унинг ўрнига янги замонавий сўз топиш эҳтиёжи пайдо бўлди. Асосий манба рус тили деб топилди ва у тилдаги “учитель” сўзига мурожаат қилинди – рус тилидаги “учить” ўзбекчада “ўқитмоқ” бўлганлиги боис ундан “ўқитувчи” – яп-янги сўз туғилди. Дастлабки вақтларда “ўқитғучи” шаклида ҳам қўллангани маълум[6]. Шу тариқа бугунги кунимизда ҳам **ўқитувчи** сўзи кенг фаолиятда.

Мен улғайгунга қадар ёки мактабни битириб, Тошкентга ўқишга келгунга қадар “чўмилмоқ” феълини сўзлашув тилимизда ишлатмаганмиз. Унинг ўрнида ҳар доим “ҳўпитмоқ” сўзини қўллаганмиз. Болалик давримизда ҳам биз “ҳўпитишга борар эдик.

Соатлаб ҳўпитар эдик, то баданимиз ранги ўзгаргунча ...” Яқин-яқингача, нега *ҳўпитмоқ* деган эканмиз, деб кўп ўйландим. Бу сўзнинг чўмилишга қандай алоқаси бўлган эканки, биз томонларда (Қўқон атрофида) *ҳўпитмоқ* қўлланган, деб ўзимга ўзим кўп марта савол бердим. Ўзбек тили бўйича яратилган ҳар икки изоҳли луғатни ҳам, имло луғатларини ҳам қарадим, афсуски, бу сўзнинг ўзи ҳам, изоҳи ҳам луғатларда учрамайди. Ҳамма жойда “чўмилмоқ”. Яқинда бу саволга жавоб топдим, жавобни Маҳмуд Кошғарий ҳазратлари беришди. Мен меҳнат фаолиятимда Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарига кўп маротаба мурожаат қилганман. *(Ушбу китобнинг уч жилди ҳамда “Индекси”ни устозим, педагогика фанлари доктори, профессор Мунаввар Ходжаевна Тўхтаходжаева ҳадя қилган эдилар. Опадан бир умр миннатдорман*). Илгарилари яхши эътибор бермаган эканманми, яқинда жуда катта бойлик топиб олгандек севиниб кетдим. Сабаби – китобнинг 1-жилдига таржимон ва нашрга тайёрловчи сифатида филология фанлари доктори С.Муталлибов томонидан “XI асрнинг буюк филологлари ва уларнинг ноёб асарлари” деб номланган кириш сўзида *ҳўпитмоқ* сўзи ҳақидаги маълумотни ўқиб қолдим. Унда шундай сўзлар битилган: “Маҳмуд Кошғарий тил фактлари устида узоқ ва чидамли текшириш натижасида тилда ҳарф тушиш, алмашиниш, сингиш каби қоида борлигини биринчи марта аниқлади, бу масалаларда қоидалар тузди ва ўз асарида, ўрни келганда, бу хусусиятларни кўрсата борди. Тилда фонетик қоидалар тил тараққиёти қоидасига мувофиқ турли ўзгаришларга учраган сўзлар тарихини ўрганиш, сўз этимологиясини аниқлашда бениҳоя муҳимдир. Масалан, *ҳўплаб ичмоқ* маъносидаги сўзнинг Қўқон шевасидагина *ҳўпитмоқ – чўмилмоқ* сўзида қолганини кўрамиз, холос. Шу ҳолда бу сўзнинг этимологиясини товуш ўзгариш қоидаси асосидагина аниқлаш мумкин. “Девону луғотит турк”да *ўпмоқ* сўзининг икки маъноси бўлгани изоҳланган:

1 – ўпмоқ (III т., 143-б.).

2 – ичмоқ (III т., 87-б.)

Лекин бу сўзнинг иккинчи маъноси истеъмолдан чиққан. Кўпдан бизда фақат биринчи маънодагина қўлланади. Бу сўзнинг

иккинчи маъноси фақат *ҳўпламоқ, ҳўпитмоқ* сўзларидагина сақланиб қолган, демак, ***ҳўпламоқ*** сўзининг асли ***ўпламоқдир***. Бизгача сўз олдига бир ҳарф орттирилган формада ўзгариб етиб келган. Маҳмуд Кошғарий ёзганидек, "... ҳ товуши ҳинд халқи билан аралашиш натижасида тилга кирган товушдир (Қаранг: Девон, I т., 9-б.)" (8, 22). Шунда мен иккинчи саволга ҳам жавоб олдим: бу маълумотлар ўзбек тилидаги ***ҳовуч, ҳовли, ҳўкиз*** каби сўзлар нега турк тилида "**х**" товушисиз, яъни ***avuc, avlu, okuz*** каби шаклларда ёзилади ва талаффуз қилинади, деган масалага ойдинлик киритди.

Кейини йилларда мустақил Ўзбекистонимизнинг хорижий давлатлар билан алоқасининг янада яқинлашуви натижасида у тиллардан сўз ўзлаштириш янги босқичга ўтмоқда. Масалан, Туркия билан борди-келдиларимизнинг ривожи натижасида туркларнинг севимли ***döner*** таоми билан бирга айни шу таом номи ҳам кириб келди. Лекин биз бу сўзни баъзида *данар,* баъзида *дўнар* шаклида ёзяпмиз ҳамда талаффуз қилмоқдамиз. Бу тўғрими? Бу сўз бизга мутлақо нотанишми? деган саволларга жавоб излаш мақсадида туркча *döner* сўзи маъносига эътиборингизни қаратмоқчимиз. Бу сўзнинг турк тилидаги феъл шакли *dönmek* бўлиб, *айланмоқ, қайтмоқ* маъноларини ифодалайди. Тилимизга оид луғатларни қарасак, мазкур сўзнинг тилимизда мавжуд бўлганлигини кўрамиз. Масалан, "Ўзбек тилининг изоҳли луғати"да *дўнмоқ* феълига қуйидагича изоҳ берилган: *"ДЎНМОҚ эск. 1 Айланмоқ, ўхшамоқ; Қайтмоқ, тикланмоқ, ўзгармоқ"* (1-жилд, 675-саҳифа). Тўғри, луғатда ҳам кўрсатилганидек, бу сўз эскирган, лекин шеваларимизда яшамоқда. Аслида, туркча бу таомнинг тайёрланиш ҳолатига қарасангиз, у айлантириб-айлантириб пиширилади. Шунинг учун ҳам уни қардошларимиз *дўнар* дейишган. Болалик пайтларимизда бизнинг бир ўйинимиз бўларди, у ҳозир деярли унутилгандек кўринади. У ўйиннинг номини кимдир *дандирак* дерди, кимдир *дўндирак* дерди. Тўғриси, менимча, *дўндирак*. Чунки у қамчига ўхшаб учига чилвир боғланган калтак воситасида учига соққа (золдир) ёки мих қоқиб, ёғочдан тайёрланган кичкина думалоқ ғўлачани уриб айлантириладиган ўйин турига нисбатан қўлланган. Биз уни куз ва

баҳор ойларида хўп ўйнар эдик. Демак, *дўндирак* сўзи ҳам худди турк тилидаги сингари тилимиздаги *дўнмоқ* (айланмоқ) феълидан ясалган. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасининг 2021 йилнинг 12 ноябрдаги сонида севимли шоиримиз Фахриёрнинг “Ҳар япроғи тиллога дўнган” деб номланган сарлавҳа остида шеърлари босилди. Айни шу шеърдаги “дўнган” сўзида юқорида биз айтган “айланган” маъноси ётади. Демак, ўзбек шеъриятида ушбу сўз яшамоқда. Шунинг учун ҳам биз **тилимизда мазкур турк таомини *дўнар* десак ҳамда ёзсак** бўлаверади.

Адабиётлар:

1. Жўраев Н. Агар огоҳ сен ... – Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б.106-107.

2. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.43.

3. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. –Б.5.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б.214.

5. Поливанов Д.Е. Дальневосточные термины орудие письма // Сборник Туркестанского восточного института в честь проф. А.Э.Шмидта. – Ташкент, 1922. –С. 116-117.

6. Қаранг: Жамолхонов Ҳ., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. 2-китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2019. –Б.79.

Karimova F.S.,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK MULOQOT NUTQIDA PSIXOLINGVISTIK QIRRALAR

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslik va psixologik nazariyalar uyg‘unligi o‘zbek muloqot xulqi orqali yoritilishiga e’tibor qaratilgan. Shu

bilan birga til va ruhiyat, til va sotsial faktorlar uyg‘unligi qalamga olingan.

Kalit so‘zlar: til, ruhiyat, muloqot, nutqiy ko‘nikma.

Rezume: The article focuses on the integration of linguistics and psychological theories through Uzbek communication behavior. At the same time, the combination of language and psychology, language and social factors was written.

Key words: language, psychology, communication, speaking skills

Inson nutqi va ruhiyatning nutqqa ta’siri masalasi tilshunoslik va ruhshunoslik o‘rtasida tadqiq etilishi lozim bo‘lgan qiziqarli masalalardan biri hisoblanadi.

Turk dunyosining eng qadimgi yozma yodgorliklarida inson nutqi va uning ruhiyati o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqliklar turli ramz va ifodalar orqali aks ettirilgan, ular misolida “Devoni lug‘otit turk” dagi qo‘shiq va matnlarni yoki “O‘rxun-Enasoy” bitiklarida keltirilgan jangnoma qo‘shiqlardagi olqish va alqovlarni, shuningdek, marsiyalar matnidagi ruhiy koloritni keltirish o‘rinli bo‘lardi.

Fandagi ilmiy psixologik kurtaklar ildizi ancha uzoqlarga borib taqaladi. Nemis olimi V.Gumboldning “xalq ruhi” va “lisoniy dunyoqarash” haqidagi olamshumul konsepsiyasi va V.Vundning “xalq psixologiyasi” haqidagi nazariyasi, amerikalik lingvist L.Blumfildning “stimul-reaksiya” haqidagi bixoveristik qarashlari, ukrain tilshunosi A.Potebniyaning til va tafakkur haqidagi psixologik falsafasi tilni tadqiq etishda inson ruhi va xalq ruhini e’tirof etgan holda masalaga yondashilganligi bilan dunyo tilshunosligida katta iz qoldirgan nazariyalardan hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida esa mazkur sohaga endi dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda. Bugungacha til va ruhiyat mushtarakligiga o‘z asarlarida e’tibor qaratgan olimlar sirasiga A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, D.Xudayberganova va D.Lutfullaeva nomlarini keltirish o‘rinli bo‘lardi. [7,2,6,9,8,1].

So‘nggi yillarda olimlar e’tiborini tortgan muloqot va uning ishtirokchilari nutqi tuzilishiga oid tadqiqotlarda pragmalingvistik

qarashlar bilan birga psixologik yondashuvlar ham bo‘y ko‘rsatmoqda. Albatta, ular zamirida tildagi hodisalarni mukammal tadqiq etish ehtiyoji turadi. Masalaning ana shu tomoniga e’tibor qaratish ham dolzarb, ham qiziqarli hisoblanadi. Xususan, bolalar nutqi tadqiqi bilan shug‘ullangan olima M.Qurbonava tadqiqotlarida bu masalaga ham to‘xtalib o‘tilgan. [10].

Kattalar muloqotining psixolingvistik tomonlarini tadqiq etish ham galdagi yoritilishi kerak bo‘lgan masalalardan biri sanaladi.

Inson ruhiyatining u qo‘llayotgan nutqda aks etishi va u tuzgan grammatik shakllarning (jumlaning) qay tarzda qurilishiga inson ta’nasi va ruhiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar daxl eta olishi inson fenomenini va uni qurshab turgan muhit haqidagi tasavvurni hosil qilishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur holatni tadqiq etishga turtki bo‘lgan asos antropotsentrik nazariyadir. Albatta, tildagi har qanday semantik va pragmatik tadqiqotlar zamirida ham psixolingvistik yondashuvlarning u yoki bu darajadagi izlarini sezish mumkin. Bu haqda pragmalingvist olim M. Hakimov o‘zining ushbu soha haqidagi dastlabki maqolalarida ham aytib o‘tgan. [9]. Kishilarning qayg‘uli va baxtli onlaridagi yuz ifodalari va ular qo‘llagan iboralardagi ovoz tonining g‘amgin yoki shodon jarangining o‘ziyoq, fikrimizni isbotlay oladi. Ya’ni ruhiyat va uning nutqdagi ifodasi va u orqali so‘zlovchining olamiga kirib borish va uni tahlil etish istagi har qanday tadqiqotchini befarq qoldirmaydi, deb o‘ylaymiz. Bolalar nutqidagi buzilish holatlarini asosini ular kechirgan yoki kechirayotgan kasalliklar bilan bog‘liqligi bugun barchamizga ayon haqiqat sanaladi. Katttalar o‘z nutqlarida haqiqiy holatlarini qay darajada yashirishga urinmasin, yolg‘on informatsiya berayotgan aql va uni qabul qilolmayotgan ruh o‘rtasida kelishmovchiliklar tug‘ilishi va bu uning yuz va tana holatlarida aks etishi ham ayni haqiqatdir. [3].

Insonlar muloqotini tahlil etishda, avvalo, uning yashash tarzi, oilaviy va ish sharoiti va unda kechadigan ahloqiy va ma’naviy qonun-qoidalarini bilish birinchi bosqich sanalsa, uning hamsuhbat do‘stlari va maslakdoshlari kimlar ekanligiga e’tibor qaratish ham talab etiladi. Chunki yaqin va har kuni ko‘rib, gaplashib turadigan insonlarning ahloqiy qarashlariga ko‘nikish yoki ularga, beixtiyor tarzda, taqlidiy so‘zlar

qo‘llash holatlarini yoshlar nutqida ko‘plab kuzatish mumkin. Voyaga etgan va katta insonlar tuzayotgan jumlalar uslubi va xususiyatini (maqol yo matal qo‘shish, piching yo kesatiq, hazil yoki o‘z ustidan engil hangoma qilish, tanqid yo maqtash yoki maqtanish, tez yoki sekin (qiynalib) jumla tuzish, gapga chechanlik yoki duduqlanish, suhbatda o‘zini yo‘qotib qo‘yish yoki vaziyatdan chiqib keta olish) kabilar ularning nutqiy ko‘nikmalari sanalib, kishilar ularni oila yoki ish jarayonida ko‘proq o‘zlashtirgan bo‘ladilar. Nasliy qobiliyatlarning kechishidan ko‘ra ijtimoiy muhit ta’sirining kuchi ancha salmoqli ekanligi ham hech kimga sir emas. Bu haqda o‘zbek psixologiyasining darg‘alaridan biri professor E.G‘oziev shunday fikrlarni keltirgandi: “Insonning shaxsiy xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni takomillashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy shakl – uning jamiyatdagi hayot yo‘li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi”. [11].

Darhaqiqat, jamiyatdagi hayot yo‘li birinchi navbatda u egallagan kasb va soha misolida ko‘proq ko‘zga tashlanadi, masalan, o‘qituvchilar o‘z kasbidan ko‘nikma holiga kelgan dars o‘tish jarayonidan kelib chiqib, uzoq va ko‘p so‘zlashni o‘ziga odat qilsa, yurist va huquqshunoslar esa, har bir so‘zning sohada qanday katta yuk tashishini e’tiborga olgan holda, kam so‘zlab, xushyorlikka intiladilar. Bunga o‘xshash misollarni boshqa kasb va soha egalarida ko‘plab keltirish mumkin. Aytmoqchimizki, orttirilgan nutqiy tajribalar, nutqiy operatsiyalar kishilarning o‘zlari mansub bo‘lgan soha va muhit ta’sirining bir in’ikosi hamdir.

Bunga misol qilib “Muvozanat” romanidagi Muhammadjon aka obrazini keltirish mumkin:

“Nihoyat, gangur-gungir bo‘lib o‘tirgan davrani baland ovoz bilan Muhammadjon aka o‘ziga jalb qildi.

– Endi sizlarga bir ko‘nglimni to‘kib solsam, azizlarim, - Muhammadjon aka gapga juda chechan, notiq odam edi. Uzoq yillar davomidagi o‘qituvchilik, rahbarlik lavozimlari qonida ota-buvisidan o‘tgan biyronligi bor bu odamning haqiqatan ham bulbuligo‘yo qilib yuborgandi. Binobarin, qaerda bo‘lmasin, Muhammadjon aka so‘zga og‘iz ochdimi, qolganlar mum tishlagandek jim bo‘lishardi, butun vujudlari quloqqa aylanib tinglashardi”. (Muvozanat, U.Hamdam. 16-bet). [12].

Tilshunoslik va uning boshqa sohalar bilan hamkorligini hisobga olgan holda tadqiqotlar yaratishni qo‘llab-quvvatlagan tilshunos olim A.Nurmonov I.Yo‘ldoshev bilan birgalikda nashr ettirgan “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” nomli kitobida tilshunoslikka yondosh sohalar sifatida psixologiya va sotsiologiya fanlarini o‘rnini alohida ta’kidlagandi. [5].

Muloqotning sotsial tomoniga e’tibor qaratgan olimlardan biri S.Mo‘minovning “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli doktorlik ishi o‘zbek muloqot egalarining milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini keng planda yoritib bergan tadqiqotlardan sanaladi. Muallif ishida o‘zbekona muloqot sirlari va uning yaratilish bosqichlari ijtimoiy planda chuqur tahlil etilgan. Muallifning “ruhiy kesim” haqidagi o‘ziga xos qarashlari o‘zbekona kamtarlik va kamsuqimlik, andisha va mulohazakorlik tushunchalari bilan uyg‘unlashgan holda qalamga olingan. [4].

Xulosa qilib aytganda, til va ruhiyat masalasidagi tadqiqotlarning echimi hali oldinda va u tilshunoslik va ruhshunoslik rivojida yangi marralarni zabt etishi begumondir. Zero, inson va uning tili orqali aks etayotgan dunyoning manzarasi uni qamrab olgan ruhiyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar:

1. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. – 140 b.

2. Mahmudov N. Til. – Toshkent: YOzuvchi, 1998. – 40 b.

3. Mustafoev F. Suhbatdoshni sirli boshqarish (Suhbatning psixofiziologik aspektlari). – Farg‘ona: Farg‘ona, 2005. – B. 25.

4. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2000. – 235 b.

5. Nurmonov, A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: SHarq, 2001. – B. 63.

6. Nurmonov A., M.Hakimov. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – №4. – B. 54-57.

7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 245.

8. Xudayberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2015.– 244 b.

9. Hakimov M., Qurbonova S. Psixolingvistik bilimlarning nazariy asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – №2. – B. 34-40.

10. Qurbonova M. O‘zbek bolalari nutqining pragmalingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2018. – 160 b.

11. G‘oziev E. Psixologiya metodologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2013. - 311 b.

12. Hamdam U. Vatan haqida qo‘shiqlar. Toshkent, 2019.

Латипов О.Ж.,
доцент кафедры Изучения языков
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

ЯЗЫК – ДУХОВНОЕ БОГАТСТВО НАРОДА

Аннотация: статья посвящена раскрытию богатства и неповторимости узбекского языка. В ней речь о необходимости соблюдения норм государственного узбекского литературного языка, сохранении его чистоты, а также о международном статусе узбекского языка.

Ключевые слова: духовная ценность, нравственность, чистота языка, метафоричность, языковая норма, языковая политика.

Нет никаких сомнений, что духовное богатство превыше материального, так как невозможно представить ни одно общество без нравственного начала и духовного мира. Любой народ жив будет до тех пор, пока жив его родной язык. Поэтому к языку следует относиться с уважением, оберегать его, нести ответственность за его сохранность и чистоту. Язык – это ни с чем не сравнимая духовная ценность народа, это его духовное богатство, накопленное тысячелетиями, которое нужно охранять как зеницу ока. Проблема чистоты языка касается не только филологов, учителей, журналистов,

поэтов, писателей, но и всех граждан нашей страны. Все мы причастны к этой актуальной проблеме.

В мире существует более шести тысяч языков и диалектов, и только около ста из них имеют статус государственного языка. Среди них – узбекский язык.

В языке отражается история и культура его творца – народа, народности. В то же время язык играет величайшую роль в общественном развитии, является неотъемлемым атрибутом нации и одним из признаков суверенности государства.

Государственный язык является зеркалом духовности народа. Именно поэтому уважительное отношение к государственному языку, глубокое изучение его богатых возможностей является долгом каждого из нас.

Ровно 34 года исполнилось Закону «О государственном языке». Узбекский язык – это, прежде всего, язык великого Навои, Бабура, Кадыры, Чулпана, Фитрата, Уткира Хошимова, Эркина Вахидова, Абдуллы Арипова, Мухаммада Юсуфа и многих других мастеров художественного слова. Красота и неповторимость тюркского слога не вызывает сомнения. Ее гармоничность, мелодичность и лиричность обеспечена также за счет освоения арабизмов и лексики персидского происхождения, которые придают узбекскому слогу еще большую выразительность.

В узбекском языке функционируют более 60 тысяч слов. Ввиду своей агглютинативности узбекский язык располагает широкими возможностями образования таких длинных по составу слов типа *механизациялаштирилмаганлигидандирда, чегарачиларимиздагиларданми-сизлар*, состоящих из 36 букв. Подобные примеры не встречаются в других языковых семьях.

Многоплановость и многозначность слов узбекского языка также не имеют границ. Например, слово *кўк* – единственное слово в мире, которое означает и синий, и зеленый, и доллар, и небо одновременно. По словам переводчиков с узбекского на русский и другие языки, тексты узбекской художественной литературы, которые полны метафорами, эпитетами и неповторимыми

сравнительными оборотами речи, порой не подвергаются переводу, и заставляют их еще глубже погрузиться в мир восточной поэзии, усвоить все ее тонкости и находить аналогичные варианты в переводимом языке.

С каждым годом растет также и международное значение узбекского языка. Все больше желающих изучить узбекский язык, чтобы поближе познакомиться с древней культурой, историей, и особенно богатым фольклором узбекского народа. Спортивные термины типа: «кураш», «ҳалол», «чала», «ёнбош», «танбеҳ», «дакки», «ғирром», «тўхта», «ўртага», «таъзим» вошли в другие языки в качестве интернациональных слов и звучат в оригинале на мировых аренах.

Согласно 4-статьи Конституции Республики Узбекистан, «государственным языком Республики Узбекистан является узбекский язык. [ОКОЗ:

1. 1.01.00.00.00 Конституционный строй / 01.06.00.00 Права, свободы и обязанности человека и гражданина / 01.06.05.00 Гарантии и защита прав и свобод. Омбудсман]

Республика Узбекистан обеспечивает уважительное отношение к языкам, обычаям и традициям наций и народностей, проживающих на ее территории, создает условия для их развития». Следовательно, языковая политика в Узбекистане предполагает не только функционирование государственного языка, но и параллельное сосуществование других языков.

Следует особо отметить, что Указ Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» предусматривает вопросы повышения авторитета узбекского языка в общественной жизни нашего народа и на международной арене, воспитания подрастающего поколения в духе патриотизма, преданности национальным традициям и ценностям, обеспечения полноценного внедрения государственного языка в стране, сохранения и развития языков наций и народностей, проживающих в Узбекистане, создания

условий для изучения узбекского языка в качестве государственного языка, определения стратегических целей, приоритетных направлений и задач, перспективных этапов развития узбекского языка и языковой политики, и является важным событием и кардинальным решением в области повышения статуса государственного языка.

В целях решения таких полномасштабных реформ была утверждена «Концепция развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020 – 2030 годах», предусматривающая:

достижение полноценного и правильного использования возможностей государственного языка во всех сферах общественно-политической жизни страны;

дальнейшее совершенствование системы обучения государственному языку в образовательных организациях, повышение его авторитета в качестве языка науки;

сохранение чистоты государственного языка и его обогащение, повышение культуры речи населения;

обеспечение активной интеграции государственного языка с современными информационными технологиями и коммуникациями;

повышение роли и авторитета государственного языка на международном уровне, развитие международного сотрудничества в данном направлении;

создание широких и равных возможностей для развития языков всех наций и национальностей, проживающих на территории нашей страны, а также благоприятных условий для изучения ими государственного языка.

Богатство языка находит свое отражение в лексикографических источниках. Узбекская лексикографическая школа имеет большой опыт и давнишние традиции создания словарей, о чем свидетельствует бесподобный толковый словарь Махмуда Кошгари «Девони лугати турк», где собрано все богатство лексики тюркских языков. В целях возобновления данной традиции, согласно данному Указу, на основе действующих словарей на узбекском языке будут

приняты меры по созданию следующих словарей для всех видов непрерывного образования, в частности:

«Орфографический словарь узбекского языка»;

«Словарь синонимов узбекского языка»;

«Большой толковый словарь синонимов узбекского языка»;

«Большой толковый словарь фразеологизмов узбекского языка»;

«Словарь омонимов узбекского языка».

Для повышения роли и авторитета государственного языка на международном уровне и расширения связей с другими языками намечено проведение следующих мероприятий, как:

широкая пропаганда узбекского языка в зарубежных странах, создание онлайн-платформы по обучению узбекскому языку, предназначенной для оказания содействия иностранным гражданам, желающим изучить узбекский язык, а также обеспечение информационной базы и постоянное обогащение данной платформы;

сохранение культурной и языковой идентичности соотечественников, проживающих за рубежом, оказание содействия в воспитании их в духе культурных традиций и ценностей узбекского народа, обеспечение художественной литературой узбекских национальных культурных центров на постоянной основе;

налаживание деятельности центров узбекского языка в зарубежных высших образовательных учреждениях;

установление постоянных связей и налаживание обмена опытом с преподавателями узбекского языка, ведущими деятельность за рубежом;

внедрение системы обеспечения необходимой научной и учебно-методической литературой курсов узбекского языка, функционирующих в зарубежных высших образовательных учреждениях;

установление постоянных связей и налаживание научного сотрудничества с учеными, исследователями и переводчиками, ведущими научные исследования по узбекскому языку и литературе за рубежом;

увеличение клубов «Друзья узбекского языка» при дипломатических представительствах нашей страны за рубежом;

повышение интереса к узбекскому языку молодежи в зарубежных странах путем усиления сотрудничества в сфере науки и образования;

организация научных конференций, «круглых столов», встреч и бесед за рубежом о международном авторитете, привлекательности и возможностях узбекского языка и их широкое освещение в средствах массовой информации;

разработка учебников по узбекскому языку и электронных программ для соотечественников, проживающих за рубежом, а также иностранных граждан, желающих изучить узбекский язык;

создание переводческих словарей узбекского языка с родственных языков и их мобильных приложений в целях развития сотрудничества с тюркоязычными государствами.

Для успешного осуществления данных задач необходимо повысить читательскую грамотность населения в целом, привить любовь к текстам художественной литературы, вести системную работу с текстами официально-делового, публицистического и художественного стиля речи, а также грамотное делопроизводство во всех государственных и частных учреждениях и организациях, организовать различные конкурсы по номинациям: «самое лучшее эссе на узбекском языке», «знаток узбекского языка и литературы», «самый лучший эрудит» и другие. Сотрудничество отечественных филологов с зарубежными коллегами поможет созданию учебной литературы, двуязычных и многоязычных словарей, а также агитации по распространению и развитию узбекского литературного языка за рубежом. Надеемся, что реализация данных мер будет способствовать дальнейшему процветанию нашего родного узбекского языка.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка».
2. Национальная база данных законодательства, 01.05.2023 г., № 03/23/837/0241).
3. Латипов О.Ж. Универсальный характер афоризмов Алишера Навои и Бабура. “Икки даҳо – икки бебаҳо: Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур илмий мероси” Республика илмий-амалий конференция тўплами. Т., 2022, 15-18 с.
4. Латипов О.Ж. О проблемах и перспективах переводоведения в Узбекистане. Материалы Республиканской научно-практической конференции «Актуальные проблемы языкознания и литературоведения», Термез, 2021, 212-217 с.
5. Латипов О.Ж. О своеобразии перевода текстов художественной литературы. «Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар: тил, таълим ва маданият» Халқаро илмий-амалий конференция материаллари, Самарқанд, 2021, 98-100 с.
6. Латипов О.Ж., Til sofligi uchun barchamiz mas’ulmiz. “Tilga e’tibor – elga e’tibor” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami, 2022, 149-154 б.
7. Латипов О.Ж. Курсантларнинг тил компетенлигини такомиллаштириш – сифатли таълим гаровидир. Материалы Республиканской научно-практической конференции «Актуальные проблемы преподавания русского языка как иностранного», Академия МЧС РУ, Ташкент, 2023, 270-274 б.
8. Latipov O.J., Maxmudov I.A. Сила слова в творчестве Навои и Бабура. Navoiy va Bobur merosi yoshlar nigohida mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023-yil, 10-fevral, 5-10 б.

Matniyazov A.R.,
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi
Nashrlar bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

AVAZ O‘TAR O‘G‘LINING “TIL” RADIFLI G‘AZALIDA MA’RIFATCHILIK G‘OYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’rifatparvar shoir Avaz O‘tar o‘g‘lining “Til” radifli she’ri bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Yangi O‘zbekistonda Uchunchi Renesans g‘oyasini amalga oshirishda ulug‘ ma’rifatparvarlarimizning, jumladan Avaz O‘tarning ilg‘or fikrlarga yo‘g‘rilgan adabiy me’rosini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: novatorlik, globallashuv, itegratsiya, mukoshiflik, maqta’, matla’, institut, universitet.

Til avlodlar o‘rtasidagi o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini o‘taydi. Tilga e‘tibor, uning imkoniyatlaridan keng va to‘g‘ri iste‘foda etish hamma davrlarda ham dolzarb vazifa hisoblangan. Ayni mavzu XIX-XX asr ma‘rifatparvarlari Komil Xorazmiy, Furqat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Avaz O‘tar singari adiblarning ham diqqat markazida bo‘lgan desak aslo yanglishmaymiz. Bu borada Avaz O‘tar o‘g‘lining “Til” nomli g‘azali diqqatga sazovordir. Ne ajabkim, Avaz O‘tar tavalludining 100 yilligi tantanalaridan ko‘p o‘tmay, 1989 yil 21 oktabrda “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilindi [1]. 1995 yili 21 dekabrda esa, O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuni yangi tahrirda e’lon qilindi [2]. Ushbu qonun bandlarida keltirilgan fikrlar ajdodlarimizning asriy orzulariga uyg‘unligi bilan ham qadrlidir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan o‘zbek ma‘rifatparvar shoiri Avaz O‘tar o‘g‘lining o‘ziga xos murojaat-nasihat yo‘sinida bitilgan, til mavzusidagi mashhur g‘azalida bugungi davrimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan dolzarb fikrlar aks etgan. Shoir ilk

baytning dastlabki misrasidayoq butun g‘azal davomida o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan fikrlariga o‘zining munosabatini qat’iy, lo‘nda va tushunarli tarzda ifodalaydi:

Har tilni biluv emdi bani Odamg’a jondur [3].

Avaz bu misrada sharqda ilgaridan ma’lum bo‘lgan “tilsiz odam – jonsiz tana” naqlini yanada yuqori pog‘onaga olib chiqadi, fikrni badiiy jihatdan boyitadi, ma‘no doirasini kengaytiradi. Uning nazdida, nafaqat o‘z ona tilini yaxshi bilmaydigan, balki o‘zga biron-bir tilni o‘zlashtirmagan har qanday kas, misli jonsiz odamdir. Chunki, til, uni o‘rganish va o‘rgatish Alloh tomonidan faqat insonlargagina ato etilgan ne‘matdir. Muhtaram o‘quvchi “Nahotki, axir shoir bunaqa deyayotgani yo‘q-ku?” deyishi mumkin. Mabodo, shunday savol tug‘ilsa, javobni faqat Avazning o‘zidan olamiz:

Til vosita-i robita-i olam miyondur.

Ushbu misrada, yana Avazga xos bo‘lgan mukoshiflikni (novatorlikni) ko‘ramiz. Barchaga birdek ma‘lum – til insonlar orasidagi eng qulay muomala va so‘zlashuv vositasidir. Ammo, bu fikrni takrorlash uchun she‘r yozish shartmikan? Albatta, yoq! Avaz bu o‘rinda ham ilgaridan ma‘lum bo‘lgan fikrni yanada rivojlantiradi. Uning nazarida, til faqat insonlar, toifa va guruhlar orasidagi muloqot vositasigina emas. Til - keng ma‘noda, turli mamlakatlar va o‘lkalar orasida aloqa o‘rnatuvchi eng muhim vosita hamdir.

Avaz g‘azal maqta‘si hisoblangan mazkur baytda har bir odam ona tilidan o‘zga biron bir tilni (yoki tillarni) bilishi o‘sha odamga jon bag‘ishlashini, aksincha bo‘lsa bunday odam (yoki odamlar) go‘yo jonsiz odamlardek bo‘lishini uqtirar ekan, qaysiki davlatda til biluvchi odamlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha davlat gullab-yashnashini nazarda tutayapti. Demak, Avazning fikricha, til bilish-o‘rganish zarurati insonning shaxsiy xohish-irodasi doirasidagi jo‘n narsa emas. Bu davlat ahamiyatidagi, yurt obodligi va mamlakat farovonligiga sabab bo‘luvchi, to‘g‘rirog‘i xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Til bilmagan odam dunyobehabar, demakki g‘ofil va befarq kimsaga aylanadi. Fuqarolari til bilmagan, yoki bilishga rag‘bat ko‘rsatmaydigan mamlakatlar dunyo hamjamiyatidan uzilib, turg‘unlikka yuz tutadi. Avazning mazkur baytdagi til haqidagi ma‘rifiy qarashlari,

nazdimizcha, ijtimoiy ahamiyat kasb etganki, buni “robita-i olam miyon” (integrasiya va globallashuv) jumlasini qo‘llaganidan ham bilsa bo‘ladi.

Bu baytda Avaz, ochiq aytmasa-da, til bilish-o‘rganish faqat arab va fors tillari bilan chegaralanib qolmasligini nazarda tutayotganini ilg‘ab olish qiyin emas. Qisqa qilib aytganda, “oldinlari ona tilini, shu bilan bir qatorda arab va fors tillarini bilish kifoya qilgan bo‘lsa, emdi biz uchun zarur va foydali bo‘lgan har qaysi tilni o‘rganish muhim”, demoqchi shoir.

G‘ayri tilini sa‘y qiling bilgali yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar rivoji anda ayondur.

Diqqat qilgan bo‘lsangiz dastlabki baytda “har tilni” jumlasini qo‘llagan Avaz, bu baytda “g‘ayri tilini” iborasini qo‘llayapti. Bu bejiz emas. Mazkur jumla orqali Avaz qaysi tillarni nazarda tutganini bilish biz uchun muhim. U nazarda tutayotgan “g‘ayri tili” bu – yevropada o‘sha paytda sanoati va ishlab chiqarish sohalari endigina rivojlanayotgan davlatlarning tillari edi.

Avaz ta‘lim olgan eski uslubdagi madarasalarning mutaassib mullalari musulmon bo‘lmagan odamlarni “g‘ayridin” hisoblab, “ularning tillarini o‘rganishga hojat yo‘q” deb hisoblar edilar. Shuning uchun Avaz, yoshlarga murojaat qilib, “g‘ayri bo‘lsa-da, ularning tilini o‘rganishga harakat qiling, shunda dunyodagi turli ilm va hunarlarning sir-sinoati ayon bo‘lib, siz o‘zimizda mavjud bo‘lgan ilm-u hunarlarni yanada rivojlantira olasiz” demoqchi. Chunonchi, u “ilm-u hunarlar” iborasi orqali o‘sha davrdagi zamonaviy texnologiyalarni nazarda tutgan…

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g‘ayrat eting foydayi kondur.

Ushbu baytning birinchi misrasida har qanday tilni o‘zlashtirish, avvalo o‘z ona tilini chuqur o‘rganishdan boshlanishiga ishora bor. Zero, o‘z ona tilini puxta o‘rgangan odamgina o‘zga tilni yaxshi o‘zlashtirishi mumkin. Binobarin, Avazning ushbu ta‘kididan o‘zga tillarga nisbatan ham xuddi ona tiliga bo‘lgani kabi munosabatda bo‘lish darkorligini anglash qiyin emas. Etibor qiling, ushbu fikrlar O‘zbekiston Respublikasining til to‘g‘risidagi yangi tahrirdagi qonunining 24-moddasida belgilab qo‘yilgan “O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga

yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi” degan jumlalarga naqadar o‘xshash…

Avazning fikricha, o‘zga tilni ana shu tarzda o‘rganishga kirishgan odamgina, pirovardida ko‘p foyda olishi, ya‘ni ko‘zlagan maqsadiga yetishi mumkin. Bu borada yana bir mulohaza borki, kezi kelganda aytib o‘taylik. Ma‘lumki, foydali qazilmalarga boy konni topib, uni ochish, dur-u javohirlarni qazib olish anchayin mashaqqatli va zahmatli ish. Buning uchun g‘ayrat va shijoat zarur. Fikrimizcha, shoir bu misraga ana shu ma‘noni ham yuklagan.

Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o‘qiganlar bori yaktoyi jahondur.

Shoir endi ota-onalarga murojaat qilib, ularni o‘z bolalarini “ilm-u fan uyiga” yuborishga da‘vat etadi. Uning nazarida bolalar uchun til o‘rganish barobarida ilm olishlari uchun eng maqbul joy “ilm-u fan uyi”dir. Avaz aytmoqchi, “ilm-u fan uyi” bu XX asrning boshlaridagi *ilmgoh* va *dorulfunun* istilohi bilan yuritilgan va xozirgi kunda *institut* va *universitet* deb ataluvchi oily bilim maskanlaridir. Ayon bo‘ladiki, Avaz O‘tar tasavvurida til o‘rganish ilm olish yo‘lida bir ochqich, “oltin kalit” vazifasini o‘taydi.

Nazarimizda, “Ilm-u fan uyiga yuboringlar…” deganda shoir, zinhor Sherg‘ozixon yoki Arab Muhammadxon madrasalarini nazarda tutayotgani yo‘q. Chunki, u nazarda tutayotgan ilm-u fan uyida o‘qiganlarning barchasi o‘z zamonasining yagonalari sanaladi. Ehtimol, bular - Turkiyada tahsil ko‘rgan Bekchon Rahmonov, Fransiyada ta‘lim olgan Hoji Aminaddinov va Germaniyada o‘qigan Maryam Sultonmurodova kabi yigit-qizlardir !?

Zor o‘lmasun onlar dog‘i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidin oning bag‘ri to‘la qondur.

Ilm o‘rganib, xalqimga ziyo ulashib, ularni jaholat botqog‘idan qutqaraman deb niyat qilgan yoshlar albatta til bilishlari shart, bo‘lmasa foydasi yo‘q - ular xuddi bizdek “zor”, “bag‘ri qon” bo‘lib qolaveradilar deydi shoir. G‘azal maqta‘sining ushbu so‘nggi baytidan Avazning til bilmasligidan afsus va nadomatda ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, istibdod va jaholatga qarshi kurashishda; bundan tashqari, mustaqillikka erishish va jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun ham eng avvalo ilm olish, ma‘rifatli bo‘lish lozim ekan. Ilm olish va ma‘rifatli bo‘lish uchun esa albatta til o‘rganish zarur.

Adabiyotlar va manbalar:

1. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonuni. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari, 1989 yil, №26-28, 453-modda.
2. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. – O‘zR 167-1-son PQ. 21 dekabr, 1995 yil. https://lex.uz/docs/121051#121093
3. Devoni Avaz. – qo‘lyozma. – O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. №7102.

Mengliyeva S.S.
Tillarni o‘rganish kafedrasi o‘qituvchisi

TILNI ASRASH ELNI ASRASH DEMAKDIR

Avvalambor, til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayot, aks holda inqirozga mahkumdir. Tilning Onaga qiyoslanishi, Ona so‘zi bilan birikib kelishi bejiz emas, chunki inson o‘z onasini ko‘rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: “Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”.

Ona tili – millatning ruhi, ma’naviyatidir. Tilga davlat timsoli, mulki sifatida qarash lozim. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi

demak. Sir emaski, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Al Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur Mirzo, Mirzo Ulug‘bek singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo‘qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq til to‘g‘risida qonun qabul qilinmaganda edi, o‘zbek tili ham tarix sahifalaridan joy olgan bo‘larmidi.

Mana bu yil o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 34 yil to‘lmoqda. Shu davr ichida o‘zbek tilining haqiqiy jozibasini anglashga, uning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanishga va tilimizning fusunkor tarovatini dunyoga taratishga imkon yaratildi. Tilga milliy mustaqillik va o‘zlik ramzi sifatida qarashga, uning nafaqat vatanimiz sarhadlarida, balki dunyo bo‘ylab dovruq taratishiga munosabat yaxshilandi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so‘z va so‘z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Shu o‘rinda statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilinganligining guvohi bo‘lamiz. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, purma’no, jozibador va, albatta, mukammalligining yorqin dalilidir. O‘zbek tili AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va shu kabi bir qator davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o‘rganilayotganligi tilimizning insoniy va xalqlararo aloqa, takomillashish va taraqqiyot vositasi sifatida xizmat qila boshlaganining namunasidir. Chunonchi, rossiyalik tilshunos olima, professor A.M.Kozlyanina “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deb bejiz ta’kidlamaganligini ham eslatib o‘tmoqchiman.

Afsuski, jamiatimizda o‘z ona tiliga bo‘lgan munosabatni har doim ham ijobiy baholab bo‘lmayapti. Masalan, barchamizga ma’lumki, ko‘chalarda do‘konlar, supermarketlar, turli xil ustaxona shoxobchalari, go‘zallik salonlari, turli xil osmono‘par binolar, bog‘chalarga qo‘yilgan nomlar o‘zbek tilida emas, balki boshqa xorijiy tillarda yozilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Va bundan ham achinarlisi, bu reklama yozuv taxtalari va bannerlaridagi reklama matnlarining jiddiy xatolar bilan yozilayotganidir. Tilga hurmatsizlik, va hatto, mensimaslik kayfiyatini eslatuvchi bunday hatti-harakatlarni oqlab bo‘lmaydi, albatta. Chunki, tilga e’tibor – elga e’tibor, deyishadi. Fikrimizcha, biz har qanday holatda ham tilimizni asrashga, uni boyitishga va himoya qilishga tayyor turishimiz kerak. Bu bizning ham ma’naviy, ham fuqarolik burchimiz!

Adabiyotlar:

1. Abdukamol Po‘latov, “Til – millat ko‘zgusi” http://pravacheloveka.uz/oz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son “2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” https://lex.uz/docs/-5058351
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 20-oktyabr “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-5058351
4. Sherzod Yuldashev, “Til- millat ko‘zgusi”. https://sbtsue.uz/ru/news/view/314
5. Oyshajon Ametova, “Til – millat ko‘zgusi”, https://xs.uz/uz/post/til-millat-kozgusi

Mo‘minova O.Q.
O‘zDJTU dotsenti, f.f.n.

TALABALAR NUTQINI KEYS TEXNOLOGIYASI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar nutqini keys texnologiyasi orqali rivojlantirishda nutqqa tayyorgarlik ko‘rishning ahamiyati, talabalar

nutqining to‘g‘rilik darajasini aniqlash, nutqqa tayyorgarlik ko‘rishdagi xatolarni tahlil etish, xatolarga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmasi ustida ishlash kabi masalalar yoritilgan.

Kalit sozlar: vaziyat, jamoa bo‘lib ishlash, fikr-mulohaza, nutq to‘g‘riligi, aniqligi, ta’sirchanligi, mustaqillik.

Bugungi kunda talaba-o‘quvchilarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashda zamonaviy texnologiyalar yordam bermoqda. Ayniqsa, keys texnologiyasi o‘zining o‘zaro hamkorlik qilish uchun qulay vaziyatlarni yaratib berishi bilan boshqa interfaol usullardan ajralib turadi. Hozirgi kunda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishda ham shu metodga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Mazkur usul talabalarni mushohada yuritishga, qarorlar qabul qilishga, jamoa bo‘lib ishlashga, muammoning sabablarini izlashga va tahlil qilishga hamda kommunikativ aloqaga kirishga o‘rgatadi. Mazkur metod ta'lim jarayoni ishtirokchilarini muayyan faktlar bilan tanishtiradi hamda ta'lim oluvchilar oldiga quyidagi masalalarni qo‘yadi: jamoa bilan birgalikda muayyan bir vaziyatni hal qilish bo‘yicha tahlil o‘tkazish. Tahlil bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi. Material bilan yakka tanishish, jamoada muhokama qilish, guruhlararo diskussiya va xulosa chiqarish. Aniq vaziyatlar asosida o‘qitishni tashkil etish bosqichi quyidagilardan iborat:

1.Tayyorlov bosqichi.

Bosqich maqsadi: aniq bir vaziyatni va darsning borish maqsadini aniqlash, belgilash.

2.Tanishtirish bosqichi (dars vaqtida)

Bosqich maqsadi:tahlil uchun real vaziyatni keltirish

3.Tahlil bosqichi (keys muhokamasining boshlanishi).

Bosqich maqsadi: keysni jamoa bilan birgalikda tahlil qilish va yechimini ishlab chiqish.

4. Yakunlovchi bosqich (jamoa yechimlari taqdimoti).

Maqsad: yechimni taqdim qilish va asoslash (keys bo‘yicha jamoa xulosalari).

Quyida keys-stadi texnologiyasiga “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanidan ishlab chiqilgan amaliy mashg‘ulot namunasini

misol qilib keltiramiz: Ushbu mashg‘ulot “Nutqqa tayyorgarlik ko‘rish” mavzusi bo‘yicha yakunlovchi dars hisoblanadi va mashg‘ulot quyidagilarni maqsad qilib qo‘yadi: nutqqa tayyorgarlik ko‘rishning ahamiyati; nutqqa tayyorgarlik ko‘rishning strukturasini to‘liq ko‘rsatib berish; talabalar nutqining to‘g‘rilik darajasini aniqlash; nutqqa tayyorgarlik ko‘rishdagi xatolarni tahlil etish, xatolarga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmasi ustida ishlash.

Talabalarga 3 ta keys beriladi va ular uch guruhga bo‘linadi. Matn tahlilida ular nutqqa tayyorgarlik ko‘rish strukturasini aniqlaydilar; mavzuga mos ravishda nutqqa tayyorgarlik ko‘rish strukturasini guruhlaydilar; nutqqa tayyorgarlik ko‘rish strukturasining tuzatilgan variantini keltiradilar. Avval talabalar matn bilan yakka ishlaydilar, keyin guruhda muhokama qiladilar. Har bir keys muhokamasidan so‘ng har bir guruh o‘z keysi tahlilini qiladi. Har bir keys taqdimotidan keyin muhokama dialog tarzida tashkil etiladi. So‘ngra barchasi umumlashtiriladi.

Vaziyat:“O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanidan talabalarga nutq tayyorlash uchun mavzular berildi va bu nutqni 10 kun ichida tayyorlab, uni ma'ruza qilish topshirildi. 2 talaba bir joyda yashashardi. Ularning biri mavzuga doir adabiyotlarni yig‘ish va ular bilan tanishishni boshladi. Kerakli o‘rinlarni konspekt qilib ola boshladi. Do‘sti hozirdan buncha kitob titkilashning hojati yo‘qligini, mavzuga doir materialllarni internetdan olib taqdimot qilish mumkinligini aytdi. Taqdimot kuni ham yetib keldi. Materiallarni to‘plab o‘z mulohazalarini kiritib, matn ustida mashq qilgan talaba muvaffaqiyatli ma'ruza qildi, do‘sti esa...

Muammo:1-talabaning ma'ruzasi nima sababdan muvaffaqiyatli chiqdi?

1-variant:

Nutqqa bir necha hafta oldin tayyorgarlik ko‘rishni boshlash kerak. Bu mavzuning ichiga kirishga yordam beradi, natijada uni yodlashga hojat qolmaydi. Avval mavzuga oid material to‘planadi, so‘ngra ishchi reja tuziladi, reja negizida nutqning asosiy qismi va xulosa tayyorlanadi. Nutq matni uslubiy jihatdan tahrir qilingach, nutqni so‘zlashga tayyorgarlik ko‘rish ishi boshlanadi. Bular ovoz chiqarib gapirish, oyna oldida so‘zlash,

vaqtga qarab so‘zlash, videotasmaga yozib olish kabilardan iborat bo‘ladi. Nutqni bo‘laklab emas, “butun”icha mashq qilish yaxshiroq natija beradi. So‘zlashni boshlagan bo‘lsangiz nimadir yoddan chiqqan bo‘lsa ham, nimanidir o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz ham to‘xtamasdan, esdan chiqqan o‘rinlarni “yodimdan ko‘tarilay debdi” deya qulay joyda kiritib ketish mumkin. Eng asosiysi nutqni ravon, tushunarli va ta'sirchan qilib so‘zlash lozim bo‘ladi.

2-variant:

Notiqning maqsadi nutqining asosiy g‘oyasini eslab qolish qolish bo‘lishi kerak. Nutqqa pishiq - puxta tayyorlanadigan bo‘lsa, notiqda erkin so‘zlashish qobiliyati malakasi yetarli darajada shakllantirilsa, ortiqcha hayajonlanish bo‘lmaydi; mashq davomida notiq, avvalo, o‘ziga yaqin odamlar (do‘sti, kursdoshi...) oldida nutq so‘zlab ko‘rsa, o‘ziga ishonch va qat'iyat kuchayadi; har bir nutqning boshlanishi, o‘rtasi va oxiri bo‘ladi. Muhimi, to‘plagan materialiga o‘z shaxsiy fikrlarini qo‘shishi hamda oxirini qanday tugatishni yodda saqlashi kerak. Notiq o‘ziga ishongan, ko‘rinishi dadil, adabiy til me'yorlarini chuqur egallagan bo‘lsa nutqi ravon, aniq va tushunarli bo‘ladi.

3-variant:

Nutqqa tayyorgarlik ko‘rish uni qog‘ozga yozib olib, yod olish emas, bu - o‘ylash, eslab qolish va uni saralash, tartib bilan mavzuga mos tarzda joylashtirib chiqishdir. Og‘zaki ma'ruzaning tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib, uning qismlari butun ma'ruzaning asosiy mag‘zini tashkil qiladi. Bu kompozitsiya deb atalib, u kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. Bu uch qism bir-biri bilan bog‘langan bo‘lishi nutqning muvaffaqiyatli chiqishiga sabab bo‘ladi. Eng asosiy fikrni ochib berish uchun materialni mantiqiy izchillikda joylashtirish kompozitsiyaga qo‘yiladigan eng birinchi talablardan biri hisoblanadi. Har bir qismning o‘z maqsadi bo‘ladi va bular quyidagilardan iborat:

- Kirish qismining maqsadi:
- - o‘qituvchi auditoriyani o‘ziga jalb qilishi va ishontirish natijasida ular bilan aloqa o‘rnatishi;
- -talabalarni qiziqtirishi;
- -talabalarni nutqni qabul qilishga tayyorlashi;

- Asosiy qismning maqsadi:
- -o‘quvchilarga yangi xabarlarni aytish;
- -olib chiqilgan masalalarning to‘g‘riligini isbotlash hamda tushuntirish;
- -talabalarni kerakli xulosalar chiqarishga tayyorlab borish.
- Xulosa qismining maqsadi:
- -aytilganlarni umumlashtirish;
- -ko‘rib chiqilgan masalalarning takrorlanishi va yodda saqlab qolinishiga sharoit yaratish;
- -nutqning ishonchli chiqishiga qo‘shimcha argumentlarni keltirish;
- -o‘quvchilarni undash va u yoki bu masalarni hal qilishga chaqirish.
- Keys-stadidagi asosiy muammo:
- Auditoriya oldida nutq so‘zlay olmaslik. Avvalo, nutqni tayyorlashni bilmaslik hamda unga qanday tayyorgarlik ko‘rishdan ham bexabarlik.
- Muammoni tasdiqlovchi dalillar
- Muammoli vaziyatni tahlil qilishga harakat qilamiz. Jamiyatimizda uchrab turadigan salbiy illatlarni aniqlaymiz.
- 1. Internetdan tayyor materialni olish.
- 2. Tayyor materialni tinglovchilarga moslashtirmaslik va uni yodlab olish.
- 3. Shaxsiy mulohazalarni bildirmaslik.
- 4.Qismlarni to‘g‘ri joylashtirmaslik.
- 5. Ta'sirchan va ishonarli nutq tuza olmaydi.

Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari:

Tayyor materialni internetdan olib, uni yodlash va ma'ruza qilish bilan ish bitadi deb o‘ylash.

Muallif o‘z maqolasida muammoning oldini olishda quyidagi yo‘llarni ko‘rsatib bergan:

1.Yig‘ilgan materialni saralab, o‘z fikr-mulohazalarini shaxsiy misollar bilan boyitish.

2.Notiqning fikr-u o‘ylari, qalb kechinmalari mashq qilish jarayonida pishib boradi.

3.Mashq qilish natijasida ishonch va dadillik bilan so‘zlash.

4. Eng asosiy fikrni ochib berish uchun materialni mantiqiy izchillikda joylashtirish kompozitsiyaga qo‘yiladigan eng birinchi talablardan biri hisoblanadi.

5. Tinglovchilarga yangi xabarlarni aytish.

6.Olib chiqilgan masalalarning to‘g‘riligini isbotlash hamda tushuntirish;

7.Tinglovchilarni kerakli xulosalar chiqarishga tayyorlab olib borish.

Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari:

Muammoning yechimi: Nutqqa puxta tayyorgarlik ko‘rish tufayli talaba o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq va mantiqiy izchillikda hamda ishonarli tarzda so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘ladi va muvaffaqiyatga erishadi.

Demak, keys-stadi texnologiyasida asosiy maqsad berilgan muammoni tahlil qilishga, uning turli-tuman variantlarini keltirishga va uning yechimini topishga hamda variantlar ichida eng yaxshisini ajratib olishga qaratiladi. Ushbu metodni qo‘llash shuni ko‘rsatadiki, bunda talaba va o‘qituvchi munosabatlarida erkinlik va yaqinlik paydo bo‘ladi. Talabalar mustaqil axborot izlashga va ularni to‘plashga va tizimlashtirishga hamda tahlil qilishga harakat qilganlari uchun guruhdagilar orasida obro‘-e'tibori oshib, diqqat markazida bo‘lishi ularning ijodiy faolligiga yanada ta'sir ko‘rsatadi. Keys-stadi texnologiyasining qo‘llanishi talabalarning olgan bilimlarini amalda qo‘llash imkonini yaratadi, ta'limga kompetentlik bilan yondashuvni amalga oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Панфилова А.П., Громова Л.А. Основы менеджмента. Полное руководство по кейс-технологиям / А.П. Панфилова. - СПб.: Питер, 2004. - 240 с.)

2. Tolibov O‘., Usmonboyev M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. -T.:Fan, 2005.

3.Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.:Moliya, 2003.

Муҳаммадаминов С.А.
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
т.ф.н., катта ўқитувчи / ЎзРФАШИ катта илмий ходими

ТУРКИЙ ТИЛДА ЁЗИЛГАН ВА ТАРЖИМА ҚИЛИНГАН ИСЛОМ ҲУҚУҚИГА ОИД ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Марказий Осиёда туркий-ислом маданияти, санъати, адабиёти ва маънавияти тарихида юксалишлар даври Қорахонийлар замонидан бошланди. Бу даврда ёзма адабий тилни “ҳоқония туркчаси” деб атаган эди. Темурий даври даври ўзбек ёзма адабий тилни чиғатой туркийси дейилган.

Ҳозирги замон ориенталистикасида XV юз йилликнинг иккинчи ярми – XVI юзйиллик бошларидаги туркий адабиётнинг классик босқичини “чиғатой адабиёти”, тилини эса “туркий”, “эски ўзбек тили” номлари билан ёнма-ён “чиғатой тили”, “чиғатой туркийси” деб аталмоқда [1].

Кейинги даврларда, жумладан, Темурий ва Шайбонийлар замонида бир неча тарихий, адабий асарлар туркий тилда асарлар яратилди ва бошқа тиллардан туркий тилга таржималар амалга оширилди. Шу билан бирга ҳуқуқ соҳаси йўналишида ёзилган туркий тилда насрий ва назмий асарлар ёзилган бўлсада, лекин улар кўпчиликни ташкил қилмайди. Масалан, Алишер Навоийнинг «Сирож ул-муслимийн» ва «Арбаъин», Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг XVI асрга оид фиқҳий таълимий мавзудаги ноёб илмий-адабий ёдгорлик ҳисобланмиш «Мубаййин» номли назмий асарни эски ўзбек тилида яратди. Бу асар яқин кунларгача шариат аҳкомлари ҳақида ўзбек тилидаги ягона йирик назмий асар деб эътироф этилган. Бобурнинг «Мубаййин» асаридан кейин ҳам бу йўналишда туркий тилда ёзилган Сўфи Оллоёрнинг «Сабот ул-ожизин» асари ва

шарҳлари, унинг “Маслак ал-муттақин” асарини Қўзихожа Ҳафизахўжа томонидан туркий таржимаси “Ҳидоят ал-муттиқин” номи билан амалга оширилган асар [2], Ҳувайдонинг «Роҳати дил» асарлари илм аҳлига ва кенг жамоатчиликка тақдим этилгани маълум. Шунингдек, бу йўналишда ҳозиргача шахсияти ва фаолияти илм аҳлига номаълум бўлган, эски ўзбек тилида Афзалий тахаллуси билан ижод қилган шахснинг «Мажмаъ ул-масоил» номли манзумаси ҳам мавжудлиги муҳим илмий аҳамият касб этди. Бу асар 1111/1700 йилнинг охирида ёзиб тугатилган. Ва бу асар асосига Абу Ҳанифа мазҳабига оид манбалар асос қилиб олиниб, у туркий китобхонлар учун мўлжалланган [3]. XIX аср ўрталари-XX аср бошига келиб Мовароуннаҳрда ислом ҳуқуқшослиги соҳасида катта ўзгаришлар рўй берди. Бунда араб ва форс тилида ёзилган бир қатор анъанавий фиқҳий асарлар туркий тилига таржима қилина бошланган. Улардан баъзилари назмга солиб туркий таржимаси қилинган. Туркий таржималарнинг аксарияти форсий ва арабий тиллардан амалга оширилган. Масалан, тошкентлик қози Раҳимхўжа ибн Алихўжа Эшон Шоший (1835-1908) Марказий Осиёда кенг тарқалган XIII асрга тегишли Масъуд ибн Юсуф Самарқандийнинг форсий тилда ёзган Солату Масъудий асарини ўзбек тилига таржима қилиб ва нашр эттирган. Шунингдек, мазкур қози Убайдуллоҳ ибн Масъуднинг “Мухтасар ал-Виқоя” номли арабча фиқҳ илмига йўналтириб ёзилган асарини ўзбек тилига назмий таржима қилди. Яна бир мисол мутафаккир адиб Исҳоқхон Тўра Ибрат (1862-1937) араб тилида ёзилган Лутфуллоҳ Насафийнинг “Фиқҳи Кайдоний” асарини “Назми фиқҳи Кайдоний” номли шеърий таржимасини амалга оширди. XIX аср иккинчи ярми ва XX аср бошида яшаб ижод этган тошкентлик ҳамюртимиз Мақсудхўжа ибн Мансурхўжа қаламига мансуб “Мажмаъ ал-мақсуд” (Мақсадлар мажмуаси) асари туркий тилда ёзилган ислом ҳуқуқига оид муҳим асарлардан бири ҳисобланади [4]. Асар муаллифи араб ва форс тилларини мукаммал билган, диний ва дунёвий илмларни яхши билган. Лекин у ҳақда маълумотлар жуда кам сақланган. Мақсудхўжа ибн Мансурхўжа Марказий Осиёда ҳуқуқ бўйича кенг тарқалган ва мадрасаларда узоқ асарлар давомида ўқитиб

келинган Убайдуллоҳ ибн Масъуднинг (ваф.747/1346) араб тилида ёзилган “Мухтасар ал-виқоя” асарини ўзбек тилига таржима қилиб, шарҳлаб беришни мақсад қилган. Бу ҳақда унинг асарнинг кириш қисмида шундай дейди: “... Саводхон ва саводсиз кишиларни ислом ҳуқуқида соводини ошириш учун, унда баҳра олдирмоқ учун ушбу “Мухтасари Виқояни” туркий лафз бирла таржима қилдим ва баъзи тегишли масъалаларни бошқа китоблардан олиб жамъ қилдим ва қайси китобдан олганлигига ишорат қилдим”. Унинг айни туркий-узбек улуси ўз она тилида илмлардан баҳраманд бўлишларини орзу қилган [4]. Ушбу таржима асар ўзбек ҳалқи томонидан яхши қабул қилинди. Бунга асарнинг бир неча бор нашрлари далолат қилади. Ушбу “Мажмаъ ал-мақсуд” асари 1902, 1906, 1912 ва 1917 йиллари 2 та китоб ҳолида араб ёзувида нашр қилинган. Ҳозирги кунда ҳам бу асарга эътибор бор. Масалан, 1996, 2015 ва 2023 йилларда асарнинг замонавий ўзбек тилида нашр қилинди.

Ислом ҳуқуқига оид туркий тилда битилган бир неча қўлёзма асарлар замонавий ўзбек тилида нашр қилинган бўлсада, лекин ЎзР ФА Шарқшунослик институтида ҳали нашр қилинмаган ва ўз тадқиқотини кутиб турган асарлар бор. Масалан, ЎзР ФА ШИда ислом ҳуқуқига оид қўлёзмалар устида тадқиқот олиб бориш жараёнида туркий тилда ёзилган 4068 рақамли қўлёзма асарга дуч келдик. Асар номи *Масоил ал-фиққия (Фиққий масалалар)*, муаллифи - Муҳаммад Шариф ал-муфтий ибн Муҳаммад Саъид ал-Бухорийдир. У Аштархоний Имомқулихон (1611-1642) даврида Бухоро шаҳрининг машҳур муфтийси бўлган. У фуруъ ал-фиқҳ, хилоф, жадал, луғат, адабиёт, калом, мантиқ каби илмларда пешқадам бўлган. Унинг *Масоил ал-фиққия* асари бирон бир тадқиқотга жалб қилинмаган. Мазкур асар ҳанафий мазҳабида ёзилган бўлиб унда ўз даврининг бошқа фиқҳ китоблари каби ибодат ва муомалот масалалари жамланган. Асарнинг таркибий тузилиши 34 та китоб (мавзу) улар ўз навбатида фаслларга бўлинган. Асар услубий жиҳатдан ҳанафий мазҳаби доирасида тузилган бўлиб, ҳанафия мазҳабида мўътабар ҳисобланган “фиқҳ матнлари”га ўхшаб кетади. Ушбу асар ўз даври

талабидан келиб чиққан ҳолда ҳанафий мазҳаб доирасида *кодек* сифатида тузилган бўлиши эҳтимолдан холи эмас.

Умуман эски ўзбек тилида ёзилган ёки таржима қилинган ислом ҳуқуқига оид ёзма ёдгорликларнинг муаллифлари ўзбек ҳалқи ўз она тилида диний ҳуқуқий илмлардан баҳраманд бўлишларини орзу қилган ва шу йўлда имкони борича хизмат қилишган.

Адабиётлар:

1. Қосимжон Содиқов. Илк ўрта асрларда Марказий Осиёда кечган этно-лингвистик жараёнлар. – Тошкент: “Akademnashr”, 2018. – Б. 174.
2. Сўфи Оллоҳёр. Маслак ул-муттақин. Форсий тилдан туркий тилга таржимон Қ. Ҳафизахўжа. Нашрга тайёрловчилар: С. Сайфуллоҳ, А Деҳқон., Тошкент, “Sharq”, 2012. – 496 б.
3. Ғуломова Х. А. Афзалийнинг «Мажмаъ ул-масоил» асари қўлёзма нусхаларининг қиёсий-текстологик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2021й.
4. Мақсудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъ ал-мақсуд ёки Мухтасар ал-Виқоянинг ўзбекча шарҳи. 1-2 жилдлар. Нашрга тайрловчилар: Маҳмуд Ҳасаний, Абдусамад Ҳасаний ва Убайдулла Ҳасаний. Тошкент, “Адолат” 1996.

Musayeva Sh.I.

Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rganish kafedrasi o‘qituvchisi

MILLIY TIL – XALQLAR VA MILLATLARNING ASOSIY MULOQOT MANBAIDIR

Til, millat, madaniyat... Bu tushunchalarni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilish qiyin. Bizga ma’lumki har bir inson o‘z ona tilida so‘zlaydi, ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida his qiladi.. Til – milliy g‘urur, milliy iftixordir. Til muloqot vositasigina bo‘lib qolmay, u insonning ichki olami, madaniyatini ifodalaydi, dunyoni teran idrok

qilishiga koʻmaklashadi, dunyoqarashi va kamolotini belgilab beradi. Shuning uchun ham yer yuzida rivojlanaman degan davlat borki, oʻz tilining mavqeini koʻtarishga harakat qiladi.

Ta'kidlab oʻtish joizki, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oʻzbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Oʻzbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan soʻng barcha davlat hujjatlari oʻzbek tilida yuritila boshlandi, gazeta va jurnallarning oʻzbek tilida chop etilishi yoʻlga qoʻyildi. Shu oʻrinda statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak: dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud boʻlib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida oʻzbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligining yorqin dalilidir. Rossiyalik tilshunos olima, professor A. M. Kozlyanina "Oʻzbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador" [1] deb bejiz ta'kidlamagan edi.

Oʻzbek tili AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va shu kabi bir qator davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida oʻrganilayotgan bir paytda biz qurilgan binolarimizning, maishiy xizmat koʻrsatish joylarimizning, hattoki yangi ochilayotgan ta'lim maskanlarimizning ingliz yoki rus tillarida nomlab oʻtirganligimizni qanday tushunish kerak?!

Aynan shu yerda BMT vakillarining til borasida keltirgan faktini eslab oʻtsak: "Qachonlardir odamlar soʻzlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan boʻlsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud boʻlib, ularning 90 foizi yoʻqolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda soʻzlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega boʻlsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida soʻzlashuvchi aholining 80 foizi hamon oʻz yozuvlariga ega emas. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan soʻng hozir muomalada boʻlgan tillarning oʻntasidan bittasi saqlanib qolar ekan" [5].

YuNESKO tomonidan **21 fevral – Xalqaro ona tili kuni** deb e'lon qilingan.

Bu 1952 yil 21 fevralda boʻlib oʻtgan voqea – Bangladeshning Dakka shahrida oʻz ona tili – bengal tilini davlat tili darajasiga koʻtarish va uni himoya qilish maqsadida shahar koʻchalariga chiqqan talabalarning

politsiya xodimlari tomonidan o‘qqa tutilishi bilan bog‘liq. Mazkur sana 2000 yildan buyon xalqaro miqyosda nishonlab kelinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti **2022 yilni – Ko‘p tilli ta’limda texnologiyadan foydalanish: muammolar va imkoniyatlar yili [5]** deb e’lon qilgani ham bejiz emas.

Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o‘z milliy tafakkuri, ma’naviyati, ruhiyatining o‘zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o‘z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, shu munosabat bilan har bir insonning o‘z Vatani va ona tiliga bo‘lgan muhabbati, hurmat-ehtiromi hamda uni qadrlash tuyg‘ulari yangilanadi.

Milliy til – xalqlar va millatlarning asosiy muloqot manbai hisoblanadi. Til xalqlarni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, an’ana va madaniyatlarni saqlaydi, avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlaydi. U – mamlakat timsoli, qimmatbaho mulkdir, agar til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog‘ tushishi turgan gap.

Til – millat ko‘zgusi, deb bejiz aytishmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko‘hna va serqirra madaniyati o‘zbek tili – ona tilimiz ta’sirida shakllangan.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlarimiz ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Buning tasdig‘i o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro‘-e’tiborini tubdan oshirish bo‘yicha qabul qilingan tarixiy farmon va qarorlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Davlatimiz madhiyasi xalqaro maydonlarda o‘zbek tilida yangray boshladi. Ayniqsa, ona tilimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbarida, ulkan siyosiy sammit va uchrashuvlarda baralla yangrab, tinchlik, do‘stlik va hamkorlik vositasiga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

O‘zbekiston Prezidenti 2019-yil 21-oktyabrda “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Unga muvofiq, “2020 – 2030 yillarda

o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” [3] tasdiqlandi.

2020-yil 20-oktyabrda esa Prezidentimizning “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3] gi farmoni e’lon qilindi. 21 oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni, deb belgilandi.

Ona tilimizning xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat tilini hayotga to‘laqonli tatbiq etish barchamizning fuqarolik burchimizdir.

Hozirgi kunda Taraqqiyot strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu yo‘lda milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Bugun chet tillarini chuqurroq o‘rganishimizni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Xorijiy davlatlardan mamlakatimizga ko‘plab investor va tadbirkorlar kelishmoqda, ular bilan turli sohalar bo‘yicha hamkorliklar o‘rnatilmoqda. Turizmni rivojlantiryapmiz, ko‘plab yoshlar chet el universitetlarida o‘qishga katta qiziqish bildirishmoqda. Mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Chet tillarisiz katta muvaffaqiyatlarga erishish mushkul. Biroq, chet tillarini o‘rganish ona tilimizga e’tiborsizlik hisobiga bo‘lmasligi kerak. Zero, XX asr boshida olti tilli - o‘zbek, arab, fors, hind, turk, va rus tillarida lug‘at tuzgan Isoqhon Ibrat aytganlaridek, “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat - bu vataniy ishdir”[4]. Biror xorijiy tilni kamsitmasdan, til o‘rganishni qadrlagan va qo‘llab-quvvatlagan holda o‘z ona tilimiz sofligini saqlashimiz va dunyoda muhim til sifatida rivojlanishi uchun astoydil harakat qilmog‘imiz kerak. O‘zbek tilini yanada rivojlantirish, uni dunyoga tanitish nafaqat tilshunos olim, shoir, yozuvchi, san’atkor-u suxandonlarning vazifasi, balki har bir millat vakilining ham burchi

bo‘lmog‘i lozim. Ona tilimiz faqat so‘zlashuv tili bo‘lib qolmasdan, mamlakatimizda rasmiy ish yuritish tili, ilm-fan tili bo‘lishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini butun vujudimiz bilan his etishimiz lozim. Bunday vatanparvar harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz bilanoq o‘zbek tilini rivojlantirishga bevosita ulkan hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Zero, buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: «Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur» [5].

Adabiyotlar:

1. Abdukamol Po‘latov, “Til – millat ko‘zgusi” http://pravacheloveka.uz/oz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son “2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” https://lex.uz/docs/-5058351
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 20-oktyabr “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-5058351
4. Sherzod Yuldashev, “Til- millat ko‘zgusi”. https://sbtsue.uz/ru/news/view/314
5. Oyshajon Ametova, “Til – millat ko‘zgusi”, https://xs.uz/uz/post/til-millat-kozgusi

Nasirova S.A.
f.f.d. (DSc), prof. O‘zR JXU “Tillarni o‘rganish kafedrasi”

INTERFAOL TA’LIM VA UNING TIL SOHASIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. O‘qitishning yangi shakllari va usullarini izlash doimiy o‘zgaruvchan dunyoda yashash va ishlashga qodir bo‘lgan ko‘p qirrali shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta'limni rivojlantirishning asosiy shartidir. Shuning uchun, o‘qitish metodikasida chet tillari, o‘qitishning faol usullari va shakllarini izlashga alohida e'tibor qaratiladi, ularning yordamida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati yuqori darajadagi faolligiga erishiladi. Mazkur ilmiy maqola doidasida o‘quv faoliyatni rivojlantirishda interfaol ta’lim mohiyatining til sohasidagi o‘rni haqida; chet tillarni o‘qitish metodikasida o‘qitish usullarining ko‘plab tasniflari ichida ta’limda o‘quvchining roli xususida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so‘z va iboralar: o‘qitish metodikasi, interfaol ta’lim, ta’limda o‘quvchining roli.

Zamonaviy til ta'limi hozirgi paytda shaxsni shakllantirish jarayoni, u kundalik hayotda foydalanishi mumkin bo‘lgan ma'lum ko‘nikmalarni, malakalarni egallash jarayoni sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, chet tillarini o‘qitishda o‘quvchilarning bilim, kommunikativ va boshqa ko‘plab qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan o‘qitishning bunday tizimlari, usullari va texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati tug'iladi.

Pedagogik adabiyotlarda ta’limni tashkil qilishning ko‘plab usullari (talabalar faoliyati darajasi, ularni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish darajasi, didaktik maqsadlari, tashkil etish usullari va boshqalarga qarab) tavsiflanadi. Barkamollikka asoslangan yondashuv sharoitida ular o‘quvchilarning bilim qobiliyatini va o‘quv jarayonida ularning faolligini rivojlantirishga qaratilgan. O‘qishdagi faoliyatning manbasini uyushgan idrok jarayonida tashkil etilgan va rivojlanadigan shaxsiy mulk sifatida aniqlash mumkin.

Chet tillarni o‘qitish metodikasida o‘qitish usullarining ko‘plab tasniflari mavjud. Bizni ta’limda o‘quvchining roli qiziqtiradi. XX asrning 60-yillarida J. Golmit tomonidan taklif qilingan ushbu an'anaviy tasnif I.Plaksina [1] asarlarida tasvirlangan va u uchta usulni o‘z ichiga oladi:

1. Ta’limning passiv (reproduktiv) turi. Talaba ta'limning "ob'ekti" dir. U o‘qituvchi tomonidan berilgan darslik matni materialni o‘zlashtirishi va o‘rganishi kerak. Tegishli o‘qitish uslublariga talabalar faqat tinglash va tomosha qilish usullari (ma'ruza-monolog, o‘qish, tushuntirish, namoyish etish va talabalarning takroriy so‘roqlari) kiradi. O‘quvchilar, qoida tariqasida, bir-birlari bilan aloqa qilmaydi va ijodiy topshiriqlarni bajarmaydilar.

2. Faol o‘rganish. O‘qitishning bu turi o‘quvchilarning bilim faoliyati va mustaqilligini rag'batlantiruvchi usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Talaba ta'limning "sub'ekti" vazifasini bajaradi, ijodiy vazifalarni bajaradi, o‘qituvchi bilan muloqotga kirishadi. Asosiy usullar: mustaqil ish, muammoli va ijodiy topshiriqlar (ko‘pincha uy vazifalari), talabalardan o‘qituvchiga savollar va aksincha, bu ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

3. Interfaol ta'lim. Ta'lim jarayoni barcha talabalarning faol doimiy o‘zaro ta'siri sharoitida amalga oshiriladi. Bu o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘zaro o‘rganish (kollektiv, guruhda o‘qitish hamkorlikda), bu yerda talaba va o‘qituvchi teng ta'lim sub'ektlari hisoblanadi. Pedagog faqat o‘quv jarayonining tashkilotchisi, guruh rahbari sifatida ishlaydi.

Interfaol mashg'ulotni tashkil qilish hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o‘yinlardan foydalanish va muammolarni birgalikda hal qilishni ta'minlaydi. Bu ko‘nikma, qobiliyat va qadriyatlarni shakllantirishga, hamkorlik, o‘zaro ta'sir muhitini yaratishga samarali hissa qo‘shadi, o‘qituvchiga ko‘pgina muammolarni faqat interaktiv usul yordamida osonlikcha hal qilishga imkon beradi.

Bizning ta'lim tizimimizda chet tili o‘qitish jarayonining asosiy tarkibiy qism - bu dars. Bu murakkab aloqa akti sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonida aloqa "bir tomonlama" va "ko‘p tomonlama" bo‘lishi mumkin.

"Bir tomonlama" aloqa bilan ta'lim jarayonini tashkil etish frontal ish shakllarining ustunligi bilan amalga oshiriladi, ya'ni o‘qituvchi talabani nutq faoliyatiga undaydi va u javob beradi.

"Ko‘p tomonlama" aloqa bilan darsda odatdagi ish shakllari o‘quvchining o‘zini ma'lum bir faoliyatning mustaqil va to‘laqonli ishtirokchisi sifatida ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘zaro ta'sirning guruhli, kollektiv turlari bo‘ladi. Chet tili darsi davomida "ko‘p qirrali aloqa" ni tashkil etish jarayonida o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari o‘zaro ta'sir o‘tkazadilar va har bir o‘quvchida shaxsni ochib berish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Amalda an'anaviy usullar va ish shakllaridan foydalangan holda nutqning o‘zaro ta'sirini (dars yoki dars davomida) har doim ham tashkil etish mumkin emas. Shuning uchun yanada samarali texnologiyalar va o‘quv modellari mavjud. Bizning zamonamizdagi asosiy uslubiy yangiliklar mamlakatimizda chet tilini o‘qitish uchun interfaol usullar, texnika va texnologiyalarni qo‘llash bilan bevosita bog'liqdir.

"Interfaol usullar" va "interfaol ta'lim" tushunchalariga ta'rif berishni boshlashdan oldin, "interfaol" so‘zining o‘zi nimani anglatishini va o‘qitish amaliyotida qanday paydo bo‘lganligini bilishimiz kerak.


A.I. Juk "o‘zaro ta'sir" tushunchasi birinchi marta sotsiologiya va ijtimoiy psixologiyada paydo bo‘lganligini yozadi. O‘zaro aloqani kimdir o‘rtasidagi faollashtirilgan faoliyat deb talqin qilish mumkin, va interaktiv ta'lim rivojlanish uchun maqbul sharoit yaratish uchun o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirni maqsadga muvofiq ravishda kuchaytirish sifatida qaraladi [2].

Xuddi shu "interaktiv" so‘zi inglizcha "interact" ("Inter" - "o‘zaro", "act" - "harakat qilish") so‘zidan olingan. "Interaktiv" so‘zi o‘zaro aloqada bo‘lish, suhbatlashish, biror narsa (masalan, telefon) yoki kimdir (shaxs) bilan suhbatlashish rejimida bo‘lish qobiliyatini anglatadi [3].

Keling, B.M. Bim-Badning pedagogik entsiklopedik lug'atiga murojaat qilaylik va "interaktiv ta'lim" tushunchasiga ta'rif beraylik. "Interfaol ta'lim (ingliz tilidan. Interaction - o‘zaro ta'sir) - o‘quvchining o‘quv muhiti, o‘zlashtirgan tajriba maydoni sifatida xizmat qiladigan o‘quv muhiti bilan o‘zaro ta'siriga asoslangan holda o‘rganish » [4].

V.S. Kukushkin "interaktiv yondashuv" ning quyidagi ta'rifini beradi - interaktiv dars jarayonida o‘quv materialini o‘rganish bilan bog'liq o‘quvchilar faoliyatining ma'lum bir turi [5].

"Interfaol usul", o‘z navbatida, o‘quvchilar birov bilan suhbatlashish yoki dialog holatida bo‘lganidagi o‘zaro aloqani anglatadi [6]. "Interfaol usullar" deganda o‘quvchilar bir-birlari bilan teng sharoitlarda o‘zaro aloqada bo‘ladigan o‘qitish metodlari tushuniladi. (1-rasm). Ushbu usullar o‘quvchilarning o‘qituvchi bilan ham, bir-birlari bilan ham o‘zaro munosabatlari, o‘quv jarayonida bolalar faoliyatining ustunligiga qaratilgan [7].



1-rasm - interaktiv usul

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu mashg'ulotda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqalar jarayoniga ham kiradi, ammo u faqat dars maqsadlariga erishishga qaratilgan harakatlarning koordinatoridir. “O‘qituvchi, xuddi shunday o‘quv ma'lumotlarini o‘zi orqali o‘tkazadigan va ish manbalarida yordamchi vazifasini bajaradigan filtr turidan bosh tortadi » [7].

Shunday qilib, interfaol ta'lim barcha o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qiladi, ularni rag'batlantiradi va shakllangan muloqot qobiliyatlarini amalda qo‘llashga imkon beradi. Bundan tashqari, qo‘llaniladigan interaktiv metodlar (interfaol usullar doirasida) o‘quvchilarga bilimlarni mustaqil ravishda olish uchun bilim qobiliyatini faollashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Плаксина И.В. Интерактивные технологии в обучении и воспитании: метод. пособие/ И.В. Плаксина; Владим. гос. ун-т им. А.Г. и Н.Г. Столетовых. - Владимир: Изд-во ВлГУ, 2014. - 163 с. - 18БМ 978-5-9984-0479-5.

2. Жук А.И. Активные методы обучения в системе повышения квалификации педагогов: учебное пособие для слушателей системы повышения квалификации и переподготовки кадров образования/ А.И. Жук, Н.Н. Кошель. 2 изд. - Мн.: Аверсэв, 2004. - 336 с. - ISBN: 985-478-271-9.

3. Суворова Н.А. Интерактивное обучение: Новые подходы / Н.А. Суворова. -М.:Учитель.- 2000.- №1. - С.25-27.

4. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь / Б.М. Бим- Бад. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2003. - 528 с. - 18Б№ 5-85270-230-7.

5. Кукушкин В.С. Теория и методика обучения/ В.С. Кукушкин. Ростов н // Д.: Феникс, 2005. - 474 с. - ISBN: 5-222-07126-X.

6. Азимов Э.Г. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам)/ Э.Г. Азимов, А.Н. Щукин. - М.: Икар, 2009. - 448 с. - 18БМ 978-5-7974-0207-7.

7. Толстых Н.Х. Интерактивные приемы школьного обучения/ Н. Х. Толстых. - М.: Просвещение, 2013. - 45 с.

Orazimbetova Z.Q.,
Qoraqolpoq davlat universiteti Jurnalistika kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

TILGA E’TIBOR – MILLATGA, TARIXGA VA KELAJAKKA HURMATDUR

Annotatsiya: Ush bu maqolada til nafaqat odamlarning muloqot vositasi, balki insoniyatni tashqi olamni idrok etishning qudratli quroli

ekanligi va uning hayotimizdagi ahamiyatli o‘rni, tilga munosabat, tillarning yo‘qolishi, o‘lik tillar va internetning tilga ta'siri, tilimizni asrab-avaylash, uning qonun-qoidalariga amal qilish, tilimiz imkoniyatlarini to‘liq royobga chiqarish OAV roli haqidagi fikrlar aytilgan.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, millat, o‘lik til, xalq tili, ayn tili, Bikya tili, gazeta tili.

Til xalqning milliy qadriyatlari, ma'naviy olami, hatto mafkurasining bir qismi hisoblanib, u nafaqat insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi, balki insonparvarlik va tarbiya masalasining muhim vositasi hamdir. Ona tiliga hurmat insonning o‘z vataniga, millatiga hurmatini belgilab beradi. Tilga munosabat insoniyat madaniyatining ajralmas qismidir. Shu bilan birga, til millatning ruhi, davlat ramzi xamdir. Tilni sof holida asrab-avaylash, kelajak avlodlarga etkazish shu xalqning taraqqiyotidan dalolatdir. O‘zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyalarida ham davlat tilining xususiyatlari qonuniy mustahkamlangan. Binobarin, o‘zbek va qoraqalpoq tillari mamlakatimizning bayrog'i, gerbi va madhiyasi kabi Konstitutsiyamiz bilan himoyalangan muqaddas davlat ramziga aylandi [1].

Til – millat ko‘zgusi. Ushbu ko‘zguga qarab, biz o‘sha xalqning tarixini, milliy urf-odat va an’analarini, ko‘plab asrlarning qadriyatlarini tasavvur qilamiz. Biz dunyoga kelishimiz bilan-oq onalarimiz kuylagan alla bilan qalbimizga singib ketgan til – ona tilimizdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ko‘plab o‘zgarishlar ro‘y berdi. Madaniyat, siyosat va iqtisot sohalarida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda ilm-fan va ta'lim sohasida ham katta yutuqlarga erishilmoqda. Hayotimizni har tomonlama ravnaq toptirish, jamiyatimizni yuksaltirish, ayniqsa, milliy urf-odatlarimiz, madaniyatimiz, tilimizga alohida e’tibor qaratilayotgani ta'kidlashimiz joiz. 1989-yil 21-oktyabrda o‘zbek tiliga, 1-dekabrda esa qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu yil ushbu sanaga 34 yil to‘lmoqda.

Darhaqiqat, ona tili, milliy madaniyat, milliy tillar rivojiga alohida e’tibor qaratilayotgan bir davrda til insoniyatning o‘zaro muloqat vositasi ekanligi haqidagi g'oyaga ko‘proq e’tibor qaratishimiz zarur. Tilni chuqur

anglash, uni kelajak avlodlarga sof, toza holda etkazish muhim vazifadir. Bunda respublikamizning har bir fuqarosining munosib hissasi bor. Binobarin, til va nutqning ulug'ligi haqida doimo gapirish, o‘rganish va o‘rgatishimiz kerak. Bu haqda Alisher Navoi: «Ona tili – barcha ilmlarning ko‘zgusidir», Ajiniyoz shoir: «Menga tildan boshqa egam, o‘zga narsa bergan emas», - deb yozadi.

Ahmad Yugnakiy asarlarining birida quyidagicha rivoyat qilinadi. «Bir kuni Hindiston, Xitoy, Eron va Rim podshohlari yig'ilib: «Har birimiz shunday so‘z aytaylik-ki, bu so‘z dunyo turguncha tursin», - deb ahdlashibti. Shunda Xitoy podshohi: «Men aytilgan so‘zni qaytarib olishdan ko‘ra, uni og'zimdan chiqarmaslikli abzal bilaman» - debti. Hindiston podshohi: «Men o‘z manfaatini ko‘zlab so‘z aytgan va o‘limga sazovar kelgan insonga la'nat bo‘lsin, deyman», - dedi. Eron podshohi: «Og'zimdan chiqmagan so‘zim qulim, aytgan so‘zim xujam», - debti. Shunda Rim shohi deydi: «Men aytmagan gapimdan hech qachon azor chekmadim, aytganimdan ko‘p pushaymon bo‘laman. Bir odamning, podshohning sukunati bema'no so‘hbatdan ming karra afzaldir. Inson eng avvalo o‘z tilidan topib va har xil muammolarga duch keladi», - deydi. Bu erda ular so‘zning ulug'ligining ahamiyatini anglab va dunyo bor ekan, til va so‘z o‘lmaydi, - degan umumiy fikrga kelishadi.

Adabiy va ilmiy manbalarga tayangan holda, til nafaqat odamlarning muloqot vositasi, balki bizni tevarak-atrofdagi tashqi olamni idrok etishning qudratli quroli ekanligi har bir davrda tushuntirilgan va isbotlangan. Demak, «Tilga e’tibor – elga e’tibor» - degan gap bejizga aytilmagan.

Qoraqalpoq xalqida ham til haqida juda ko‘p hikmatli so‘zlar bor. Masalan: «Mol shoqidan, odam tilidan ilinadi», «Bug'doy noning bo‘lmasa ham, bug'doy so‘zing bo‘lsin», «Yaxshi-yaxshi gapirsang, ilon indan chiqadi, qattiq-qattiq gapirsan, qilich qinidan chiqadi» va hokazo [2]. Mana shunday ona tilini ulug'lovchi fiklar bilan birga, e’tiboringizni ayrim faktlarga ham qaratmoqchiman. YuNESKO ma'lumotlariga ko‘ra, bir vaqtlar odamlar so‘zlashadigan tillar soni 8000 ga etgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6000 ga yaqin til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘q bo‘lib ketish arafasida. Bu ayniqsa tsivilizatsiya tufayli madaniyatini

yo‘qotgan millatlarning tillaridir. Mutaxassislarning fikricha, ularning 50 tasi Evropada, 200 tasi Tinch okeanida joylashgan. Afrikadagi 1400 ta tildan 600 tasi yaqin kelajakda, 250 tasi esa yaqin yillarda yo‘q bo‘lib ketishi mumkin ekan [3].

Tsyurix universitetining professori Baltazar Bikelning so‘zlariga ko‘ra, Kavkazda faqat uch yoki to‘rtta odam gaplashadigan tillar ham mavjud ekan [4]. Ayrim olimlar va tadqiqotchilarning ta'kidlashiga ko‘ra tillarining yo‘qolishiga globallashuv jarayoni sabab emish. Biroq, ba'zi tadqiqotchilar va ekspertlar tillarning yo‘q bo‘lib ketishiga globallashuvdan tashqari, ayrim hukumatlar tomonidan olib borilayotgan siyosat ham sabab bo‘layotganini ta'kidlashmoqda. Nima bo‘lganida ham milliy tilni asrab-avaylash, avvalo, shu millat vakillarining qo‘lida.

YuNESKO ekspertlari yana o‘lik va yo‘q bo‘lib ketgan tillarni saqlab qolish mumkinligini aytishadi. Masalan, 1980-yillarda Yaponiyaning Xakkaydo shahrida Ayn tilida atigi 8 kishi so‘zlashgan bo‘lib, hozir bu tilda bir necha ming kishi so‘zlashadi. Ikki ming yil davomida o‘lik til hisoblangan Ivrit tili ham qayta tirilib, hozirda bu tilda 9 million kishi muloqat qiladi.

Shuni ham alohida ta'kidlashimiz kerak-ki, dunyodagi minglab tillar ta'lim tizimida foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bugungi globallashuv davrida Internetda foydalana olmaydigan tillar ham mavjud. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ba'zi xalqlar o‘zlarining milliy tillaridan ko‘ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo‘lmoqdalar. Hozirgi internet tilining 80 foizdan ortig'ini ingliz tili tashkil etadi.

Sizning e’tiboringizga qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etmoqchiman:

• Dunyoda atigi 40 ta tilning og'zaki va yozma shakllari to‘liq shakllangan deb hisoblanadi. Bu tillar orasida o‘zbek tili ham bor.

• Dunyodagi eng leksik jihatidan boy tillar arab va ingliz tillaridir.

• Gvineyada (Afrika) mahalliy Taki tilida jami 300 dan ortiq so‘z bor.

• Dunyoda eng kam odam gapiradigan tili Bikya tilidir.

• Latviyada shunday til borki, uni atigi 200 kishi tushunadi. Bu Livon tili.

• Eng kam tarqalgan hind tillaridan biri bu marati.

Dunyoda o‘lik tillar bor. Ularga,

• sanskrit tili;

• Zamonaviy tibbiyotda keng qo‘llaniladigan lotin tili;

• Qadimiy xitoy tili;

• Qadimiy ingliz tili.

Albatta, insoniyat tarixidan shuni aytishimiz mumkinki, tillar o‘tmishda paydo bo‘lgan, qo‘llanilgan, rivojlangan, ammo ma'lum vaqtdan keyin yo‘q bo‘lib ketgan. Biroq, tillarning bugingiday yuqori tezlikda yo‘q bo‘lib ketishi hech qachon ko‘zatilmagan. Yo‘qolib ketish xavfi yuqori bo‘lgan tillarni saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlar madaniyatlar va tillarning xilma-xilligini ta'minlashga qaratilgan. Chunki til orqali xalq va millatlarning urf-odatlari, madaniyati saqlanib qolinadi va e’zozlanadi. Ana shu ma'lumotlardan kelib chiqib, ona tilimizga e’tiborni kuchaytirishimiz kerak, degan fikrning naqadar muhimligini his qilish qiyin emas.

Tilning davlat tili sifatidagi o‘rnini bilgilash – ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, iqtisodiy hayot, ta'lim, ish yuritish, nashriyot ishlari, ommaviy axborot vositalarida yuksak madaniyat bilan tildan foydalanish, tilning rivojlanishi uchun uta muhim. Ayniqsa adabiy til qoidalariga rioya qilish, xalqning savodxonligi, nutq va yozish madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalari muhim o‘rin tutadi.

Ammo, bugungi kunda ayrim gazetadagi maqolalarda so‘zlarning ma'nosini to‘liq tushunmay noto‘g'ri qo‘llash, so‘zning boshqa leksik birliklar bilan shalkash qo‘llanilishi, uslubiy jihatdan bir-biriga mos kelmaydigan so‘zlardan foydalanish, chet tillaridan olingan so‘zlarning o‘rinsiz qo‘llanilishi va takrorlanishi, tilda paronimlarning aralash qo‘llanilishi, dialektizm, og'zaki nutqga oid so‘zlarni ishlatish, ayniqsa, so‘zlarni qo‘llashda ularning ma'nosiga e’tibor bermaslik yoki boshqa tildagi so‘zlarni bee’tiborlik bilan qo‘llash holatlari uchraydi.

Ularga befarqlik ona tilining keyingi rivojiga, yangi avlod jurnalistlarning tarbiyasiga, savodxonlik, yozish va nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi muqarrar. Taniqli olim va publitsist Ozod Sharafuddinov tildagi bunday ziddiyatlar haqida shunday yozadi: «Tilga oid nojo‘ya hatti-harakatlarga yo‘l qo‘ygan shaxslarni javobgarlikka

tortish jinoyat kodeksida ko‘zda tutilmagan. Binobarin, tilimizni asrab-avaylash, qonun-qoidalariga qat’iy amal qilish, tilimiz imkoniyatlarini to‘liq royobga chiqarish OAV xodimlarining zimmasiga katta mas’ulyat yuklaydi». Demak, xalq madaniyatining ildizi bo‘lgan milliy tilimizning sofligi, ozodaligi, to‘g'ri qo‘llanilishi ta'minlash – millat kelajagini ta'minlaydi. Binobarin, ona tilimizning xalqaro mavqeini mustahkamlash, uni milliy va rivojlangan tillar qatoriga qo‘shish uchun har birimiz ona tilimizga chuqur hurmat bilan qarashimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. https://lex.uz/docs/4953674
2. Qaraqalpaq folklorы. 100 tomlыq. 88-tom. N.: Ilim, 2015. – B. 75.
3. Bobojonov M. Jahon tillari haqida. T.: Muharrir, 2010. – B. 94.
4. https://ling.tspu.edu.ru/files/ling/PDF/2013 - 2.pdf

Попова А.А.,
преподаватель кафедры русского языка и литературы
Ургенчского государственного университета

ЯЗЫК – ГЛАВНОЕ ДОСТОЯНИЕ НАРОДА

Аннотация: в статье речь идет о роли и значении узбекского языка, как государственного языка Республики Узбекистан. Государственный язык обладает высоким юридическим статусом в стране. Он несет важную миссию объединения всех наций и народностей, проживающие в Республике Узбекистан. Знание других языков расширяет территорию деятельности личности, помогает ей более глубоко понять родной язык.

Ключевые слова: узбекский язык, государственный язык, родной язык, личность, нация, народ, поколения, закон, статус, общество, общение, развитие.

Язык нации – это язык предков, который объединяет человека с его народом, с предыдущими поколениями, их духовностью и

культурой. Родной язык человека, на котором он говорит, пишет, читает, слушает, думает – великая ценность. Это показатель мировоззрения и самобытности нации. Это отражение истории народа и развития государства, важнейшая составляющая менталитета нации.

Узбекский язык как уникальный результат многовекового культурного, научного, духовного и художественного мышления, интеллектуального потенциала народа сегодня выступает в качестве одного из древних и богатых языков мира

С началом независимости в Узбекистане уделяется огромное внимание сохранению и развитию узбекского языка как государственного. На этом пути проделана колоссальная работа, направленная на использование современных программ обучения языку, создание и внедрение узбекского алфавита, основанного на латинской графике, подготовку соответствующих кадров, изучение богатейшего литературного и научного наследия нашего народа, его популяризацию. Данная работа продолжается и сегодня, содействуя росту статуса узбекского языка, углубляя его роль в воспитании молодежи в духе любви к Родине.

Вместе с тем создание официально-установленных правовых предпосылок для сохранения и развития языков других наций и народностей, проживающих в Узбекистане, явилось важным аспектом улучшения межнациональных отношений, укрепления единства и согласия в нашем обществе, где проживают более 130 наций.

Провозгласив язык «государственным», титульная национальная культура утверждает его высочайший статус. А применение языка в политической официальной сфере способствует повышению престижа языка. Изучение такого языка, овладение им превращается в обязательное условие карьерного роста, особенно роста на политическом поприще, обретения высокого социального статуса.

Государственный язык — это язык, который имеет конституционно зафиксированный самый высокий юридический статус в государстве, использующийся в официальных сферах

общения и выступающий одним из символов данного государства. Государственный язык устанавливается с целью достижения общественного единства в пределах конкретного государства. Государство ответственно за сохранение, развитие и заботу о государственном языке.

Вопрос об узбекском языке как государственном языке Республики Узбекистан является ключевым в языковой политике страны.

Узбекский язык – это средство общения между представителями разных наций и народностей, проживающих в республике. На это есть ряд причин. Во-первых, лингвистические причины. Масштабные международные конференции и симпозиумы проводятся на государственном языке, на нем публикуются официальные документы, бюллетени, специальные научные и научно-популярные журналы, разрабатываются сайты в Интернете, ведутся теле- и радиопередачи.

На узбекском языке происходит общение во время встреч на высшем уровне. Во-вторых, знание узбекского языка помогает карьерному росту специалистов в разных областях народного хозяйства.

В-третьих, узбекский язык открывает дорогу к сокровищницам науки и культуры Узбекистана, потому что на узбекский язык постоянно переводится большая часть научной, исторической и художественной литературы, выходящей в мире.

Важным достижением являются изменения и поправки в Конституции, касающиеся узбекского языка и культуры народов Узбекистана. Данным действием закрепляется статус узбекского языка как языка государствообразующего народа, признание культуры узбеков уникальным наследием, подчеркивается положение о самобытности культуры народа, фиксируется защита прав и поддержки соотечественников за рубежом.

Вместе с тем Узбекистан гарантирует всем народам, живущим на ее территории, право на сохранение своего родного языка, создание условий для его изучения и развития.

Интеграция в любое общество, в любую национальную культуру предполагает изучение обычаев, культуры и языка этого общества. В противном случае, живя в этом социуме, человек непременно будет чувствовать себя чужим. Без высокоэффективного включения индивидума в единую зону социальной коммуникации нельзя говорить о его комфортном существовании, ибо окружающая информационная среда неизбежно затрагивает интересы, права, обязанности любого члена общества.

Знание узбекского языка способствует эффективному общению людей различных национальностей, населяющих нашу страну.

Новый Узбекистан стремительно развивается, активно укрепляет международное сотрудничество во всех областях, включая образование и науку. Наша страна становится все более открытой. В этих условиях значительную роль играет повышение статуса государственного языка.

Но вместе с развитием узбекского языка не должны забываться и другие языки, особенно носящие статус мировых. Массовое владение узбекистанцами минимум тремя языками явится инструментом, который с неизбежностью будет расширять информационные возможности в современном мире. Изучение и знание языков – один из элементов, составляющих конкурентоспособность нашей страны.

Новые поколения наших соотечественников должны в совершенстве владеть хотя бы тремя языками, т.е. быть полиглотами, что тоже является требованием современного мирового сообщества. Сегодня к этому стремятся люди во всем мире, потому что необходимость и значимость изучения и обладания несколькими языками способствуют развитию личности и доступа каждого человека к всемирной информации.

В процессе изучения языков представителям нашего общества, особенно подросткам и молодежи, необходимо помнить, что знание родного языка, в нашем случае, древнего и молодого узбекского языка, и овладение при его помощи и на его основе современными знаниями говорит о высоком патриотическом духе, широком

кругозоре, самопознании и самосознании, безмерной гордости за свою нацию и страну.

Знание родного языка на должном уровне, уважение и любовь к нему являются признаком высочайшей культуры и образованности человека.

Литература:

1. Муртазаева Р.Х. Узбекистан – уникальный край межнационального согласия и толерантности // Узбекистан – страна мира и согласия: Сб. материалов конференции. Ташкент: Узбекистан, 2017. С. 343.
2. Толерантность – основа демократии в Республике Узбекистан. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://ovnews.com/2017/07/23/толерантность-основа-демократии-в/ (дата обращения: 25.09.2018).
3. Назаров Р. Р. Этническая политика в полиэтническом социуме (на примере Узбекистана). [Электронный ресурс] http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/32345/1/klo_2015_198.pdf/ (дата обращения: 25.09.2018).
4. Башатова Н.А., Исакова Р.К., Гуральская И.М. Проблемы функционирования и преподавания русского языка в Узбекистане в современных условиях // Вестник МАПРЯЛ. М., 2006. № 50. С. 21-26.

Pulatova D.Z.,
O‘zDJTU katta o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILINI ONA TILI, IKKINCHI TIL VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijlik talabalarga o‘zbek tilini o‘rgatishda tilning o‘ziga xos xususiyatlari, uning orfoepik va orfografik me’yorlarining interferensiyasi va uni bartaraf etish usullari ilgari suriladi. Shuningdek, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganishda grammatikaning

alohida o‘rni belgilanadi hamda grammatikasiz tildan to‘liq foydalanishning iloji yo‘qligi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: orfoepiya, orfografiya, interferensiya, nutq, kommunikatsiya, kompetensiya.

Chet tillarni o‘qitish metodikasi – bu “ta'lim tizimining qonuniyatlari, maqsad va mazmuni, vosita, yo‘l hamda usullarini tadqiq qiladigan, shuningdek, xorijiy til materiali asosida ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganadigan fan” [I.]. Shu o‘rinda, qayd qilish joizki, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi, o‘z navbatida, tilshunoslik, tilning fonetika, grammatika, leksikologiya, semantika kabi bo‘limlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chet elliklarga o‘zbek tilini o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ancha faollashdi. Bu, albatta, yurtimizdagi mavjud barqaror iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy jarayon, shuningdek, o‘zaro madaniyatlararo muloqotning ta'siri natijasidir.

O‘zbek tilini o‘rgatishning dastlabki bosqichida xorijiy talabalarning to‘g‘ri talaffuzni o‘zlashtirishlari uchun ularni o‘zbek tili fonetikasi, morfologiya va sintaksis asoslari bilan yaqindan tanishtirish talab etiladi. Talabalarga beriladigan lug‘at hajmi 330-380 so‘z miqdorida bo‘lishi, shundan faol leksika 220-240 so‘zdan iborat bo‘lishi nazarda tutiladi. Shuningdek, ular O‘zbekiston haqidagi mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlar bilan tanishishi va tinglash (audirovaniye), gapirish, o‘qish va yozish kabi nutq ko‘nikmalarini egallashlari kerak. Majburiy darslar “Asosiy o‘zbek tili” (shu jumladan, fonetikaga kirish va nutqni rivojlantirish kursi), “grammatika”, “o‘qish” va “tinglash”, shu jumladan, ixtiyoriy (fakultativ) - “O‘zbekiston tarixi”, o‘zbek urf-odatlari va an’analari, o‘zbek allomalari hamda o‘zbek milliy taomlari qamrab olinishi ilgari suriladi.

Aslida, xitoylik talabalar uchun o‘zbek tilini o‘zlashtirish ancha murakkab jarayon hisoblanadi, chunki o‘zbek va xitoy tillari o‘zaro qardosh sanalmaydi hamda bir-biridan (fonetika, leksika, grammatika, gap tuzilishi jihatidan) sezilarli darajada farq qiladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida madaniy-ma'rifiy almashinuv sezilarli darajada faollashib

bormoqda. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida diplomatik munosabatlarning o‘rnatilganligi (1992 yil 2 yanvar), Xitoyda o‘zbek tilining va O‘zbekistonda xitoy tilining o‘rganilishi, tillarga bo‘lgan o‘zaro qiziqishning ortishi, o‘z navbatida, ikki tomonlama ta'lim va madaniy almashinuvni yanada chuqurlashtirishga yordam bermoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston va Xitoy hukumati, vazirlik va idoralari, qolaversa, tadqiqodchi olimlar o‘rtasida hamkorlik aloqalari keng yo‘lga qo‘yilgan. Xitoylik olimlar O‘zbekistonning zamonaviy siyosati va iqtisodiy taraqqiyotini o‘rganishga katta e'tibor qaratmoqda. Bunga misol tariqasida 2019-yilning dekabr oyida Xitoy xalqaro muammolar akademiyasida «Prezident Shavkat Mirziyoyev - O‘zbekistondagi islohotlar davrining me’mori» nomli kitobi chop etilganligini keltirish mumkin. Asarda davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyo mintaqasi, ShHT va Yevroosiyo hududida xavfsizlik va taraqqiyot ta'minlanishida tutayotgan faol o‘rni, mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatida amalga oshirilayotgan izchil o‘zgarishlar o‘z ifodasini topgan [II].

O‘zbek an’analarini namoyish qilish va Xitoyda o‘zbek tilini o‘qitishning zamonaviy holati asosida xitoylik talabalarga o‘zbek tilining o‘ziga xos talaffuzini o‘rgatishda bir qator qiyinchiliklarni aniqlash mumkin. Avvalo, bu to‘rt fonetik aralashuv: ingliz-rus-o‘zbek-xitoy interferensiyasi hisoblanadi. Interferensiyaning akademik ta’rifini “Lingvistik ensiklopedik lug‘at”da uchratish mumkin: “Interferensiya (lotinchadan ***inter*** - “o‘zaro, bir-biri bilan” va ***ferio*** - “tilga olmoq, ta’sir qilmoq”) – mavjud til aloqalari jarayonida yoki ona tili sanalmagan tilni individual o‘zlashtirish orqali shakllanadigan ikki tillilik sharoitida til tizimlarining o‘zaro aloqasi; ona tilining ta’siri natijasida me’yor va ikkinchi til tizimidan og‘ishi (chetga chiqishi) bilan belgilanadi” [III.].

Chet tillarini o‘qitish metodikasida interferensiya avvalgi lingvistik tajribaning ongsiz ifodasi salbiy natijasi hisoblanadi. Ushbu hodisa o‘rganilayotgan chet tilini to‘laqonli idrok etishga to‘sqinlik qilishi tabiiy. Interferensiya tilning barcha jabhalari: fonetik, grammatik, leksik darajalarida namoyon bo‘ladi. Xitoylik talabalarga o‘zbekcha talaffuzni o‘rgatishda fonetik interferensiyaga, ya’ni ona tili yoki sheva (dialekt) ta’siri ostida yuzaga keladigan xatolar majmuiga alohida e’tibor qaratish

lozim [IV.]. “Fonetik interferensiyani tovush vositasidagi interferensiya (aralashuv) orqali namoyon bo‘ladigan biling (ikki tilli) fonetik tizimlarni hamda ikki, ba’zan undan ortiq tillarning talaffuz me'yorlarini (ikki tomonlama jarayon) yaratishda o‘zaro ta’sirning yashirin va murakkab mexanizmi sifatida baholash mumkin.

Har qanday chet tilini, shu jumladan, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish jarayonida grammatikaning alohida o‘rni shundaki, grammatika aynan zaruriy asos sanaladi, usiz chet tilidan to‘liq foydalanish, uni aloqa vositasi sifatida ishlatishning iloji yo‘q. Ona tili grammatikasi, bilamizki, ona tilida so‘zlashuvchining ongiga singib ketgan va faqat mulohaza yuritish, uni tahlil qilishga moyillik orqali (savol yuzaga kelganda: qanday to‘g‘ri aytsa bo‘ladi?) anglaniladi. Chet tilini o‘qitishda o‘qituvchining oldiga katta vazifa qo‘yiladi - o‘rganilayotgan tildan foydalanish shakl va qoidalari tizimini avtomatik, ya'ni beixtiyor qo‘llash darajasiga yetkazish ilgari suriladi.

Grammatika, ma’lumki, morfologiya, sintaksis va so‘z yasalishidan iborat rasmiy tizimni o‘zida namoyon qiladi, uni biz til grammatik tuzilishining quyi tizimlari deb atashimiz mumkin. Biroq grammatikani bilish, ya’ni o‘rganilayotgan tilning qoida va shakllarini o‘zlashtirish muloqotni amalga oshirish uchun yetarli emas. Fonetika va lug‘atni (so‘zlarni) bilmasdan turib, inson nutqda grammatikaga oid bilimlarini amalda qo‘llay olmaydi. Nutq faoliyati turlarini (o‘qish va yozish, tinglash va gapirish) bilmay turib, u tildan aloqa vositasi sifatida foydalana olmaydi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish metodogiyasida grammatikani o‘zlashtirishga mustaqil ish sohasi sifatida qaralmaydi. Aslida grammatika o‘quv jarayonining vaziyatli-tematik tashkil etilishi, ya'ni nutq amaliyoti orqali amalga oshirilishi lozim. Darsda talaba oldiga ma'lum bir fikr yoki g‘oyani ifodalash vazifasi qo‘yiladi, grammatika esa uni amalga oshirish vositasiga aylanadi.

Har qanday chet tilini, shu jumladan, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish jarayonida grammatikaning alohida o‘rni mavjud bo‘lib, u aynan nutq uchun zaruriy asos hisoblanadi, grammatikasiz chet tilidan to‘laqonli foydalanish, tilni aloqa vositasi sifatida ishlatish mumkin emas. Masalan,

barchaga ma’lumki, o‘zbek tilida, boshqa tillardan farqli o‘laroq, egalik qo‘shimchalari mavjud bo‘lib, biz ko‘pincha shaxs yoki predmetni kimga qarashliligini aniqlash maqsadida qaratqich orqali ifodalanuvchi olmoshlardan voz kechgan holda qaralmishga egalik qo‘shimchasini qo‘shib ishlatishimiz mumkin.

Masalan: - ***Mening kitobimni ko‘rmadingizmi?*** kabi gaplarni bemalol olmoshlarsiz ishlata olamiz, chunki olmoshdan keyingi so‘zdagi mavjud egalik qo‘shimchasi kitobning kimga qarashli ekanligini ifodalash uchun yetarli sanaladi, ya’ni: - ***Kitobimni ko‘rmadingizmi?***

Misoldan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida egalik qo‘shimchalari har bir uch shaxsda mavjud bo‘lib, ularning shaxslarga tegishli shakllarini bilmaslik, o‘z navbatida, gap tuzilishida xatolikka yo‘l qo‘yilishiga olib keladi.

Demak, ushbu yondashuv asosida tilning uch elementi birligi mohiyati borasidagi tasavvur yotadi: ***til - nutq - aloqa.***

Ta’kidlash joizki, ***til*** tovushlar, so‘z, konstruksiyalar tizimidir. ***Nutq*** - bu foydalanishning o‘z qoidalariga ega bo‘lgan fonetik, leksik va grammatik tizimlarni amalga oshirish sanaladi. ***Kommunikatsiya*** - haqiqiy muloqotdagi til tizimi va nutq modellaridan foydalanishni anglatib, bunda lingvistik omillardan tashqari holatlar ham inobatga olinishi zarur.

Shu asosda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish metodologiyasida talabalarda shakllanishi lozim bo‘lgan til kompetensiyasining uch turi borasida tasavvur yuzaga kelgan:

1) tilga oid (lingvistik) – bu morfologiya, sintaksis, so‘z yasalishi haqidagi bilimdir;

2) nutqiy – bu grammatik modellarga muvofiq nutqni to‘g‘ri shakllantirish ko‘nikma va malakalari;

3) kommunikativ – bu turli vaziyatlarda muloqotni amalga oshirish qobiliyatidir.

Shu o‘rinda ta'kidlash joizki, o‘zbek tilini ona tili sifatida o‘rganayotgan va o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan talabalar bilan ishlash albatta bir-biridan farq qiladi. Ona tilida so‘zlashuvchilar allaqachon til kompetensiyasiga egadirlar, chunki ular til bilan bog‘liq ma’lum bir lingvistik va madaniy muhitda voyaga yetgan. Ular faqat

morfologik, sintaktik va so‘z yasash qoidalarini o‘zlashtirgan holda o‘z bilimlarini tizimlashtirishlari, to‘g‘ri o‘qish va yozishni o‘rganishlari talab etiladi.

O‘zbek tilini o‘rganayotgan, shuningdek, boshqa madaniy muhitda tarbiyalangan chet ellik o‘quvchilar esa til kompetensiyasiga ega bo‘lmaydilar. Ular til egalari kabi grammatika qoidalariga binoan nutqni erkin qurish imkoniyatiga, nutq kompetensiyasiga ega emaslar. Shaxslararo muloqot doirasida ham kommunikativ (aloqa) jihatdan alohida murakkabliklarga duch keladilar.

Shunday qilib, o‘zbek tili ona tili bo‘lmagan talabalarni yangi til muhitida tilga o‘rgatish vazifasi, o‘z navbatida, kompetensiyaning barcha turlarini bosqichma-bosqich shakllantirishni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Э.Г. Азимов А.Н. Щукин. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) М., 1999, 152.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev - O‘zbekistondagi islohotlar davrining me’mori. XXR. «Xalqaro hayot» nashriyoti, 2019.

3. Elektron resurs. O‘quv qo‘llanma. Falsafa. T., 2019.

4. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. М., 1984.

Qabulova D.R.,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

O‘ZBEK AYOL ISMLARINING XORAZM SHEVALARIGA XOS KO‘RINISHLARI TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu tezisda Xorazm shevalarida ayol ismlarining mintaqaga xos ko‘rinishlari hamda ularning shevalarga xos variantlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: ayol ismlari, adabiy shakl, mahalliy shakl, shevaga xos ismlar, o‘zbek ayol ismlari.

Xorazm ayol ismlari tilimiz boyligining tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbek tili turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan xilma-xil ismlarga boy bo‘lib, bu nomlar o‘zbek xalqining uzoq madaniy va ma’naviy qadriyatining ajoyib durdonalaridir. Chunki bu nomlarda xalqimizning tarixiy yo‘li, xalqning orzu -umidlari, armonlari, falsafiy, diniy, ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlari, e’tiqodlari, hurmat-ehtiromi o‘z ifodasini topgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, ismlar ham tarixdan guvohlik berib turadi.

Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi tadqiqotchisi S.Rahimov “Xorazm antroponimiyasiga oid ba’zi kuzatishlar” maqolasida Oy komponenti bilan keluvchi *Oyjon (Oyi jahon)*, *Ayundi* (*döndi* Xorazm shevasida o‘zgarmoq, almashmoq, oyga aylandi ma’nosida), *Aysara* (sara so‘zi o‘g‘uz lahjasida “yaxshi” degan ma’noni anglatadi), *Oybiyi, Oysuluv, Oyposhsha, Oymoma, Oysanam, Oyjamol* kabi ismlarni Xorazm mintaqaviy ismlari qatorida talqin qiladilar [Раҳимов 1997:39].

Yana shuni aytish mumkinki, ot turkumidan ko‘chgan ismlar qatorida *Boljon, Olmaxon, Olmagul, Olmajon, Anorgul, Anorposhsha, Nuquljon, Nuqulposhsha, Tugma, Tuymajon, Qunduz, Qunduzoy, Qunduzposhsha, Yoqitjon, Yoqitposhsha, Qumrijon, Qumriposhsha* kabi ayol ismlari; fe’l turkumidan ko‘chgan *Durdigul, Durdim, To‘xtagul, To‘xtajon* kabi ayol ismlari; sifatdan ko‘chgan *Sarajon, Sarabiyi, Ziyada* kabi ayol ismlarini sanab o‘tishimiz mumkin.

Shuningdek, Xorazmning o‘zigagina xos bo‘lgan ism sifatida *Yaxtiliq* (yaxti so‘zi XIV asr yodnomalarida *yaxtu, yaxti, yaxtulu* tarzida uchraydi) ismini keltiradilar va ushbu ismning sinonimlari sifatida *Yorqin, Yorqinoy, Ro‘vshan, Ro‘vshanoy, Oyjon, Oychira, Oydin* ismlarini, nur bilan bog‘liq *Nurmat, Nuryaz, Nurposhsha, Nurjamol* kabi ismlarni kuzatdik.

Biz ushbu mavzu bilan shug‘ullanish jarayonida yana bir qancha ismlarni taniqladikki, ularni faqat Xorazm mintaqasiga xos ismlar deb aytishimiz mumkin:

Gujum ismi umri sadaqayrag‘ochdek mustahkam, chidamli bo‘lsin degan ma’noda qo‘yilar ekan [Бегматов 2010:91].

Pechakgul ayollarga paxta gullaganda tug‘ilsa Paxtagul, pista, bodom gullaganda tug‘ilsa Pistabodom, pista gulidek go‘zal bo‘lsin deb Pistagul ismlari qo‘yilgan bo‘lsa Xorazmda Pechakguldek go‘zal qiz yoki pechakguldek chirmashib, yopishib olsin, ya’ni yashasin, o‘lmasin degan ma’noda Pechakgul qo‘yilgan ekan.

Sirg‘a badanida sirg‘aga o‘xshash osilgan ortiqcha belgi (nishon) bilan tug‘ilgan bola yo sirg‘ali urug‘iga mansub bola.

Zämčä (qovun) pishganda tug‘ilgan bola

Gänǯä Kenja, eht: Ganj+a, *Ganjina* tarzida ayol ismi sifatida izohlanadi, ammo bizga ma’lumki, ushbu ism Xorazmda ayol va erkaklar nomi sifatida bir xilda ishlatiladi. Ravshan Xudoyberganov o‘zbek tilida erkak va ayollarga bir xilda beriluvchi ismlar (Davlat, Darmon, Jamol, Izzat, Karomat) qatorida Kenja ismini ham keltirib o‘tadi [Худойберганов 2008:46].

Ushbu ism Xorazm qipchoq lahjalarida *Kenja* shaklida, o‘g‘uz lahjasida *Gänǯä* shaklida uchraydi. Kenja turkiy tillarda *kenja* (o‘zb); *kanja, kanji* (uyg‘ur), *kenje* (qozoq, qirg‘iz), *kenje, genje* (qoraqalpoq) so‘zi umuman “oxirgi bola” ma’nosida qo‘llaniladi. Ushbu so‘z keyin so‘zi bilan aloqador.

Lahja va shevalarda ismlar aksariyat holda qisqargan shaklda qo‘llaniladi. F.Abdullayevning fikricha, ismlarning qisqarishi shevalardagi fonetik o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Ammo u bunday o‘zgarishlar uchun sabab bo‘luvchi omilni aniq ko‘rsatib bermagan.

E.Y.O‘rozov janubiy Xorazmdagi o‘zbek shevalarida ismlarning quyidagi qisqargan variantlari mavjudligini qayd qilib, *Nurrì* (Nurposhsha), *Dokkì* (Durdixonim) ismlarini keltirgan bo‘lsa, keyinchalik mana shu hodisa Ahmad Ishayevning Mang‘it shevasida shaklan toraygan quyidagi ismlarni keltiradi: *Adal, Adiš* (Adolat), *Zűmmì* (Zumrat), *Durpaš* (Durdiposhsha), *Sannì* (Sanobar) kabi ismlarni ko‘rsatib o‘tadilar [Худойберганов 2008:36].

Shuningdek, Xorazmda *Gul* komponenti bilan boshlanuvchi bir qator ismlar borki, ularning erkalash-qisqartirish shakllari *Gul/Gullì/Gulìš/Gulìšìm* kabi bir xil shaklga ega bo‘lib qoladi.

Shuningdek, Xorazmdagi erkalash-qisqartirish affikslari sifatida quyidagi holatlarni ko‘rsatishimiz mumkin:

1. *-m,//-im: Durdimurat-Durum, Guljan-Gulim* kabi. Ushbu affiks otga egalikni qo‘shish orqali Nazira+m kabi yoki ota o‘z o‘g‘liga otam deb murojaat qiladi va egalik zaif, erkalatish kuchli bo‘lganligi sababli hosil bo‘ladi.

2. *-i //-ï: Zumrat-Zummi, Minavvar-Minni, Guljon-Gulli, Anabiyi-Anni, Nazira-Nazzi* kabi va ushbu affiksning erkalatish ma’nosi kuchaytirish taqozosi bilan yuzaga kelgan.

3. -š (-sh)//-ïš (-ish)//-uš (-uš): *Anabiyi-Anash, Jumagul-Jumash, Xanimjon-Xanish, Dilbar-Dilush, Aypashsha-Ayish, To‘xtajon-To‘qish, Guljon-Gulish, Oyimposhsha-Oyposh, Norposhsha-Norposh, Xolposhsho-Xolposh* kabi.

Xullas, Xorazm vohasiga xos ayol ismlarini, shuningdek, o‘zbek tilida mavjud ayol ismlarining Xorazm shevalariga xos variantlarini o‘rganish ham o‘z tadqiqotchisini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Киши отларини кискартириш усуллари // Ўзбек тили адабиёти. 1960. 3-сон. -Б. 34-39.
2. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010.
3. Раҳимов С. Хоразм антропонимиясига оид баъзи кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. 5-сон.- Б.39.
4. Худойберганов Р. Ўзбек антропономияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. 2008.

Radjabov N.N.
filologiya fanlari bo‘yichafalsafa doktori (PhD), dotsent
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Tillarni o‘rganish kafedrasi

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA UNLILARNING ORFOEPIK INTERFERENSIYASI

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tilga bo‘lgan e’tibor tubdan o‘zgardi. Avvalo, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi mustahkamlandi. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘rganish va ularni yoshlar orasida keng targ‘ib qilish uchun etarli shart-sharoitlar yaratildi. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish hamda xorijiy tillarni o‘zlashtirish tizimini tubdan isloh qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF–4797-sonli, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli, 2019 yil 21 oktyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-sonli, 2020 yil 20 oktyabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida» PF-6084-sonli, 2021 yil 19 maydagi «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5117-sonli kabi farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi «Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Natijada, “... xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish”[2], “xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratish”[1] vazifalari kun tartibiga qo‘yildi. Mazkur vazifalarning ijrosini ta’minlashda o‘zbek tili bilan xorijiy tillarni, xususan, ingliz tili tovush tizimini chog‘ishtirish, fonemalarning

artikulyasion-akustik xususiyatlari bilan birga ularning orfoepik jihatdan o‘ziga xosliklarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonemalarning orfoepik xususiyatlari shakllanishida ularning fonetik va fonologik o‘ziga xosliklari ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek va ingliz tillarida unlilarning fonetik va fonologik xususiyatlari borasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan[3]. Mazkur tadqiqotlarda unlilarning fonetik va fonologik jihatlariga oid erishilgan natijalar asosida chog‘ishtirilayotgan tillarda unli fonemalarning orfoepik xususiyatlaridagi o‘ziga xosliklarni aniqlash ham ahamiyatli sanaladi.

O‘zbek va ingliz tillarida unli fonemalar son jihatdan jiddiy tafovutga ega bo‘lsa-da, yozuvda ular har ikkala tilda ham 6 ta unli harf bilan ifodalanadi, ammo bu unli harflarning orfoepiyasi (o‘qilishi) o‘zaro keskin farqlanadi. Ingliz tilida har bir unli harf to‘rtta bo‘g‘in turida (*I tur ochiq bo‘g‘in, I tur yopiq bo‘g‘in, II tur ochiq bo‘g‘in (r+unli bo‘g‘in), II tur yopiq (r+undosh) bo‘g‘in.*) to‘rt xil fonema bilan talaffuz qilinadi. Masalan, “a” harfi I tur ochiq bo‘g‘inda /eɪ/ (take [teɪk]), I tur yopiq bo‘g‘inda /æ/ (fat [fæt]), II tur ochiq (r+unli) bo‘g‘inda /ɛə/ (rare [rɛə]), II tur yopiq (r+undosh) bo‘g‘inda /ɑː/ (hard [hɑːd]) fonemalari bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida esa bir unli harf har qanday bo‘g‘inda ham bir fonema bilan o‘qiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Ingliz va o‘zbek tillarida unli harflar orfoepiyasi

Ingliz tili					O‘zbek tili	
Unli harf-lar	Unli harflar orfoepiyasi				Unli harf-lar	Unli harflar orfoepiyasi
	I tur ochiq bo‘g‘in	I tur yopiq bo‘g‘in	II tur ochiq bo‘g‘in	II tur yopiq bo‘g‘in		Sifat va miqdor belgisiga ko‘ra u yoki bu darajada farq qiladigan:
“i”	[aɪ] *fine* [faɪn]	[ɪ] *pin* [pɪn]	[aɪə] *tire* [taɪə]	[z:] *bird* [bz:d]	“i”	[ɪ] tovushi bilan o‘qiladi: *kiy [kɪy], kir [kɪr], qir [qɪr].*
“a”	[eɪ] *pale* [peɪl]	[æ] *pat* [pæt]	[ɛə] *care* [kɛə]	[ɑː] *hard* [hɑːd]	“a”	[ʌ] tovushi bilan o‘qiladi: pat [pʌt], cana [sʌnʌ].

“e”	[i:] *scene* [si:n]	[e] ten [ten]	[ɪə] *here* [hɪə]	[z:] per [pz:]	“e”	[e] tovushi bilan o‘qiladi: erk [ɛrk], seni [senɪ].
“o”	[əʊ] *hope* [həʊp]	[ɒ] pot [pɒt]	[ɔ:] *core* [kɔ:]	[ɔ:] corn [kɔ:n]	“o”	[ɒ]tovushi bilan o‘qiladi: bor [bɒr], momo [mɒ′mɒ].
“u”	[u:]/ [ju:] *cube* [kju:b]	[ʌ] but [bʌt]	[ʊə]/ [jʊə] *pure* [pjʊə]	[z:] turn [tz:n]	“u”	[ʊ] tovushi bilan o‘qiladi: tur [tʊr], turib [tʊ′rɪb].
“y”	[aɪ] *deny* [dɪ′naɪ]	[ɪ] *myth* [mɪθ]	[aɪə] *lyre* [laɪə]	[z:] *myrtle* [′mz:tl]	“o′”	[o′] tovushi bilan o‘qiladi: to‘r [to′r], to‘ri [to′rɪ].

Ingliz tilida har bir unli harfning bir nechta fonema bilan o‘qilishi o‘zbek tili uchun noodatiy ekanligi chog‘ishtirilayotgan tillarning tovush tizimlarida orfoepik interferensiyaga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ingliz tilida bir unli harf birikmasi ham talaffuzda bir nechta unli fonema orqali ifodalanishi mumkin. Masalan, “ea” harf birikmasi h<u>ea</u>d [hed] so‘zida [e], <u>ea</u>st [i:st] so‘zida [i:], gr<u>ea</u>t [greɪt] so‘zida [eɪ] tarzida talaffuz qilinadi. Ona tili talaffuz me’yorlariga ko‘ra bir unli harfni og‘zaki nutqda bir xil talaffuz qilishga odatlangan o‘zbek til sohiblari ingliz tilida fonetik kontekstga bog‘liq holda turli xil o‘qiladigan bir unli harf yoki harf birikmasini barcha holatlarda bir xil tovush bilan talaffuz qilishlari tabiiy. Masalan, ingliz tilidagi “a” harfini ona tili ta’sirida o‘zbek til sohiblari barcha o‘rinlarda bir xil – [æ] yoki [eɪ] tarzida talaffuz qilib xatoga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida aksariyat unli harflarning orfografiyasi o‘xshashligi ham o‘zbek til sohiblarining ingliz tili unli harflarini og‘zaki nutqda noto‘g‘ri talaffuz qilishlariga olib keladi. O‘zbek til sohiblari “a” harfi orqali /ʌ/ fonemasini, “i, e, o, u” harflari orqali /ɪ/, /e/, /ɒ/, /ʊ/ fonemalarini tasavvur qiladi. Natijada, ular ingliz tilidagi “a, i, e, o, u” unli harflarini turli fonetik kontekstlarda ham ona tili ta’sirida bir xil – /ʌ/, /ɪ/, /e/, /ɒ/, /ʊ/ tarzida noto‘g‘ri talaffuz qilib, xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Манба:// https://lex.uz/docs/5058351.
2. «Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-5117-сонли Ўзбекистон Республикаси президентининг Қарори. Манба: https://lex.uz/docs/5426736
3. Абдуазизов А.А. Сопоставительный анализ гласных фонем английского и узбекского языков (на основе рентгенографических фотографических данных): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1967. – 37 с.
4. Nasimovich R. N. Language Interference in Teaching English Diphthongs to Uzbek Learners //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 8. – С. 16-21.
5. Nasimovich R. N. Quality and quantity reduction //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 4. – №. 1. – С. 48-49.
6. Nasimovich R.N. A simple classification of English unstressed vowel phonological oppositions//Innovative developments and research education. – 2022. – С. 60.
7. Nasimovich R.N. Ўзбек тилида тил олди унлилар дистрибуцияси //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 117-120.;
8. Nasimovich, R. N. . (2021). Phonological Oppositions of Unstressed Vowels in The Uzbek Language. *Middle European Scientific Bulletin*, *15*. https://doi.org/10.47494/mesb.2021.15.693.
9. Radjabov N.N. Reduction in the English and Uzbek languages // Контактная информация организационного комитета конференции. – С. 73.

10. Раджабов Н. Н. Ўзбек тилида тил орқа унлилар дистрибуцияси // Science and pedagogy in the modern world: Problems and solutions – 2023. – Т. 1. – №. 1.
11. Раджабов Н. Н. УЎК (УДК, UDC) 811.111 ’342. 41 Инглиз тилида унли фонемаларнинг позицион кўринишлари //Scientific reports of Bukara state university. – С. 114.
12. Раджабов Н. Н. Фонема тушунчасининг юзага келиш тарихи // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 305-308.
13. Раджабов Н. Н. Фонетические особенности безударных гласных в узбекском языке //Вестник Челябинского государственного университета. – 2016. – №. 9 (391). – С. 140-145.
14. Раджабов Н.Н. Инглиз ва ўзбек тилларида унлилар интерференцияси //Aniq va tabiiy fanlar mundarija.
15. Раджабов Н.Н. Ўзбек тилида унли фонемаларнинг позицион кўринишлари//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 26. – С. 650-652.

Rashidova M.X., Namozova D.B.
The University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
Senior teachers at the Department of Foreign Languages

THE IMPORTANCE OF MILITARY EDUCATION IN STRENGTHENING PATRIOTISM AMONG UZBEKISTAN’S YOUTH

Аннотация. В данной статье рассматривается такие понятия как воспитание молодежи в духе патриотизма, любовь к Родине, значение и важность военного образования, а также роль семьи и школы в формировании чувства патриотизма у подрастающего поколения.

Patriotism as the quality of a personality is manifested in love for Motherland, devotion and willingness to serve the Homeland, human attachment to his native land, language, culture and the best traditions of

his people. Patriotic education is a part of the general civil culture and general civil education, based on universal values (life, health, spiritual and moral education of man, rights and freedoms of the individual). It is aimed at the education of patriots of Uzbekistan, citizens of the legal, democratic state, capable of socialization in a civil society, respecting the rights and freedoms of the individual, with high morality and showing national and religious tolerance, respect for other peoples, languages, traditions and culture of the peoples living in the Republic of Uzbekistan.

As a result of the reform of the Armed Forces of Uzbekistan, Patriotic feelings, spiritual and moral culture are developing in the conscious of today's youth. Young people are ready to accept the changes taking place in the socio-economic, political, cultural, spiritual and moral spheres of society. Today, a significant part of students of military age, including high school students, have Patriotic feelings, moral principles and culture of behavior. For this category of youth inherent humane qualities of personality, such as respectful attitude to the historical past, responsibility, morality and spiritual and moral guidelines are very essential. All this has a positive impact on the Patriotic and moral education of young generation.

Military service, as a rule, requires a lot of physical and neuro-emotional stress and physical effort. A person's readiness for these conditions and his ability to endure physical and mental stress are one of the decisive conditions for the success of hostilities. Physical culture and sport should provide future soldiers with a high level of development of physical, moral and volitional qualities. Physical education of students of pre-conscription and military age should be directed to the solution of this task.

Undoubtedly, the skills of fast running, walking, skiing, throwing grenades, swimming, shooting, hand-to-hand combat, overcoming the obstacle course, carrying cargo, driving a motorcycle, tractor and car are of great military applications. This is why; in the system of physical education of students of pre-conscription these sports are being given sufficient attention.

Sporting activities, fostering patriotism and form moral-volitional qualities (honesty, fairness, responsibility, hard work, discipline, kindness, determination, commitment, courage, will power), develops young men of military age the sense of love to their country and responsibility in sports training. Athletes-youth strive to glorify their team with new sports achievements that is one of the most important forms of patriotism. In addition, in the process of sports, diverse national relations between athletes and coaches from different regions, cities, republics and states are manifested and formed. Sport and sport competitions unite and bring together different peoples, spiritual and moral culture of different ethnic groups and nationalities, foster love and devotion to their Homeland, act as a means of moral and Patriotic education.

Reforms being conducted in the sphere of Armed Forces have a positive impact on Patriotic preparation of our youth during educational process; their physical preparation and extracurricular time proceed. Thus it is constantly emphasized that military Patriotic education is urged to provide morally - political and practical readiness of our youth for the defense of Motherland and service in the Uzbekistan Armed Forces. Accordingly, it is possible to characterize one of the main orders of modern society - the education of a healthy, physically strong younger generation in the spirit of patriotism and its preparation for the defense of Motherland.

In modern conditions, when the fundamental foundations of our society are changing, when the social situation in the world is extremely tense, the main task is to do everything to make patriotism as a fundamental value become today the unifying force of Uzbek society, to inspire people to love their Motherland and to protect it. Actively working with youth, paying a special attention to their Patriotic and moral education, we do the main thing - we guaranty prosperous future of Uzbekistan. Physical education and sports can be an effective means not only to improve the physical fitness of young people to serve in the Armed Forces, but also their military-Patriotic education.

In the physical, civil and military-Patriotic education of young people, one of the first places can and should be occupied by sport. It is

regular physical training and sports that allow you to develop the best character traits necessary for military service, as well as improve health, both physical and mental. Military-Patriotic education is characterized by a specific focus of young people on the formation of their readiness for military service, high personal responsibility for fulfilling the requirements of military regulations, the belief in the need to develop military-applied skills, physical qualities and military-professional skills for the successful performance of military duty in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan.

References:

1. Rashidova Munavvar Xaydarovna, Namozova Dilnoza Berdimurotovna. Effective methods of teaching. Materials of the republican 33-multidisciplinary online distance conference on “Scientific and practical research in Uzbekistan. Part 10. 2021. p. 23
2. Rashidova Munavvar Xaydarovna, Namozova Dilnoza Berdimurotovna. Teaching technical subjects through English. Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: даврий анжуманлар: 10-қисм. 32-б.
3. Rashidova Munavvar Khaydarovna. 2023. Techniques for emproving cadets’ conversational skills. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Oriental renessans. 3.(3) pp.637-640.
4. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2022. Recommendations on the use of scaffolding technology in English classes. Science and education. 3 (9) pp. 459-461.
5. M.X.Rashidova. 2023. The importance of oral communicative tasks in developing communicative competence. Science and education. 4 (2) pp. 1033-1038.
6. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2023. Instructional scaffolding to improve learning. Innovative development in educational activities. 2 (7) pp. 135-140.
7. D.A.Akhmedov, D.I.Xashimov, M.X.Rashidova, D.B.Namozova. 2020. Simulation of the effect of turning steering wheel intensity on the vehicle stability. International journal of recent technology and engineering (IJRTE). 9 (2) pp. 242-247.

8. Рашидова Мунаввар Хайдаровна. 2022. Из истории развития скаффолдинга. International conferences. 1 (16). С.16-18.

9. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2023. Improving learning through scaffolding. Educational research in universal sciences. 2 (4). pp.530-534.

10. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2020. Problems of teaching communicative English language at the Military Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan and the ways of eliminating them. EPRA International Journal of Research and Development. Volume 5. Issue 3. pp.502-504

11. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2020. Problems of competence approach in teaching a foreign language in a non-linguistic tertiary institution. EPRA International Journal of multidisciplinary Research. Volume 6. Issue 3. pp.165-167

12. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2021. On linguistic competence as the component of communicative competence. EPRA International Journal of multidisciplinary Research. Volume 7. Issue 3. pp.165-167

Рузметова З.Н., Артыкова Г.Ш.
УрГУкафедра русского языка и литературы

РОЛЬ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ГАРМОНИЧНОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: В данной статье раскрывается значение двуязычия в процессе формирования, становления и развития личности, в воспитании патриотизма, преданности Родине, народу, обществу. Целью статьи ставится описание соотношения языка, личности и национального характера, а также функций языка как орудия культуры, значения национальной культуры, воплощенной в языке, в процессе воспитания личности.

Ключевые слова: язык и культура, функции языка, речевая коммуникация, языковая личность, лексические и грамматические нормы.

Проблеме поднятия на качественно новый уровень преподавание узбекского языка посвящен ряд исследований, где авторы описывают на опытном материале методы и приемы усовершенствования знаний узбекского языка. Преподаватели русского языка и литературы вносят определенный вклад в повышение качества обучения языкам в условиях узбекско-русского двуязычия. Решение проблемы они видят в усилении режима функционирования национального языка во всех типах учебных заведений и республики в целом. При этом, сохраняя двуязычие как необходимое условие единства многонациональной культуры. Эту позицию, на наш взгляд, в подавляющем большинстве будет поддерживать вся интеллигенция. Необходима серьезная эволюция, усиление преподавания как ответственный шаг в поддержке и пропаганде государственного языка. Благодаря переводам литературных текстов родной язык стал хранилищем норм, культуры, искусства всех народов, населяющих многонациональный Узбекистан. В смысле культурных источников наше положение в стране значительно выгоднее, чем в других государствах. Наше родное слово – это наше богатство. Оно отражено не только в литературе, но и во всей традиции образования и воспитания в школе. Богатство эпосов, знание их принципов – это начало патриотического воспитания молодежи. Мы наследники замечательной литературы Востока, и наша задача – передать это будущему поколению в полном объеме.

Знание же других национальных культур, литературы разных народов позволяет научить любить свою историю и воспитать высококультурное молодое поколение, а это на сегодня одна из основных задач нашего государства. Глубокое изучение своего исторического наследия обогащает духовный мир современного человека, воспитывает бережное отношение к тому, что его окружает, к людям, которые живут рядом.

Последнее время в области преподавания русского языка ставится вопрос об активном привлечении фактов родного языка, которые способствуют быстрейшему усвоению реалий двух народов.

Такой подход к изучению русского языка в значительной мере облегчает и ускоряет его усвоение. Совершенно очевидно, что роль узбекского языка в овладении труднодоступными фактами русского языка неоценима и неоспорима. Именно материалы русского языка могут быть легко объяснимы при помощи сопоставления с аналогичными данными родного языка. Преподавание языка на основе этого метода, то есть сопоставления, требует больших творческих усилий, так как учитель должен знать и практически и теоретически оба языка. Русский и узбекский языки как учебные предметы занимают особое место среди других школьных дисциплин в решении воспитательных задач. В процессе изучения двух языков учащиеся расширяют и углубляют свои знания о языке как общественном явлении, приучаются рассматривать языковые особенности с различных сторон, учитывать взаимосвязи между языковыми явлениями. Они имеют возможность сопоставить родной и русский языки и увидеть то взаимное обогащение, которое оказывают эти языки друг на друга, понять роль и значение их в независимом многонациональном государстве.

О сопоставлении как методическом приеме обучения языку следует особо остановиться. Оно ставит целью довести до сознания учащегося те расхождения, которые существуют между строем родного и изучаемого языков. Не будь таких расхождений между языками, изучение нового языка свелось бы к усвоению лишь его лексики. Сопоставляя структуру иностранного языка со строем родного языка учащийся сознательно усваивает особенности изучаемого языка и одновременно глубже вникает в родную речь. Осознание того факта, что в различных языках могут иметься разные способы выражения однозначных мыслей, естественно, расширяет кругозор у учащегося и имеет, несомненно, общеобразовательное значение. Все это, конечно, если умело использовать прием сопоставления даст свои хорошие результаты.

Рассмотрим некоторые случаи расхождений в узбекском и русском языках.

1.В русском языке различается три рода. Однако категория рода отсутствует в ряде языков (грузинском, армянском, тюркских), в том числе и узбекском. Учащиеся с таким родным языком склонны одну форму употреблять для всех родов.

2. Наблюдаются расхождения и в формах прилагательных. Русское прилагательное изменяется по родам, числам и падежам (красивый, красивая, красивое, красивые). В узбекском же прилагательное – это неизменяемая часть речи (katta daraht, katta kitob, katta deraza, katta maktablar).

3. В синтаксисе также наблюдаются несовпадения в порядке слов: в русском языке сочетаниям типа o‘qituvchining kitobi соответствует сочетание с несогласованным определением в родительном падеже (книга учителя).

4. Русский язык изобилует инфинитивными предложениями, в которых главный член выражен неопределенной формой глагола. Этот главный член предложения не зависит ни от какого другого слова в предложении. В узбекском языке такие конструкции отсутствуют вообще. Они переводятся на узбекский язык или именем действия (с суффиксами – м, - мок) в сочетании со словом kerak или без него: В здании не курить– Binoda chekish mumkin emas. Иногда в состав инфинитивных предложений включается частица бы, если они выражают желательность, предпочтительность действия, а иногда и опасение: Не опоздать бы на урок – Darsga kechikmasak edi.

5. Русскому составному сказуемому, состоящему из вспомогательного глагола и инфинитива, в узбекском языке соответствует сочетание деепричастной формы ведущего глагола с вспомогательными глаголами boshlamok, olmok, bermok и другие.

Например: Она начала рисовать – U rasm chiza boshladi, Она не смогла удержать собаку – U itni tuta olmadi.

Большое значение в воспитании учащихся в духе патриотизма играют отрывки из произведений известных узбекских писателей: Абдуллы Кадыри, Айбека, Гафура Гуляма, Абдуллы Каххара, Саида Ахмата, Уткира Хашимова и других. Из этих произведений ребята узнают о доброте и щедрости узбекского народа. Они рассказывают

об этих прекрасных особенностях характера человека на примерах из собственного опыта. Отношение народа к этим качествам ученики передают через пословицы и поговорки двух народов и стремятся воспитывать эти черты в себе.

Таким образом, такой подход к изучению языков повышает роль и значение родного языка в успешном овладении вторым языком, повышает речевую культуру, способствует воспитанию в духе любви и преданности к Родине, формированию и развитию нравственных и моральных качеств подрастающего поколения.

Литература

1.Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков: Морфология. [Учеб. пособие для филол. фак. ун-тов] / А. А. Азизов. - 2-е изд., перераб. и доп. - Ташкент : Укитувчи, 1983. - 239 с.

2.Бабаходжаев А. Б., Барсикьян С.А. Сравнительно-сопоставительная типология русского и узбекского языков. – Самарканд: СамГУ, 2013 - 150 с.

3.Хамраева Ё.Н. Классификация частей речи в русском и узбекском языках.

4. [Электронный ресурс] / Ё.Н. Хамраева // Электронный периодический научный журнал «SCI–ARTICLE.RU». – 2014 – № 9 (май). – Режим доступа: http://sci-article.ru/stat.php?i=1401383096

Шаменова Г.М.
Phd, доцент, старший преподаватель кафедры «Изучение языков»
Университета общественной безопасности

ТЕХНОЛОГИЯ ТВОРЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА БУДУЩИМ ВОЕННЫМ ПСИХОЛОГАМ

Аннотация. Применение технологии творческого обучения в процессе преподавания русского языка будущим военным

психологам связано с её большими возможностями, с ролью творческой деятельности в становлении личности будущего офицера. Это обусловлено тем, что в творческих заданиях происходит снятие барьеров, возникающие у многих курсантов в условиях традиционного обучения, когда как, во время творческой деятельности отсутствует жесткий контроль со стороны преподавателя. Творческая деятельность, на наш взгляд, является тем инструментом, который побуждает силу внутренней мотивации курсанта.

Ключевые слова: методика, технология творческого обучения, русский язык, курсанты, военные психологи.

Одной из педагогических технологий, реализующей задачи личностно-ориентированного подхода в учебно-воспитательном процессе, является технология творческого обучения, представляющая собой систему применения различных дидактических игр, творческих заданий в обучении, развивающих умения решать сложные задачи на основе компонентного выбора альтернативных вариантов. Применение творческих заданий в процессе обучения русскому языку будущих военных психологов связано с её большими возможностями, с ролью творческой деятельности в становлении личности будущего офицера. Это обусловлено тем, что в творческих заданиях происходит снятие барьеров, возникающие у многих курсантов в условиях традиционного обучения, когда как, во время творческой деятельности отсутствует жесткий контроль со стороны преподавателя. Творческая деятельность, на наш взгляд, является тем инструментом, который побуждает силу внутренней мотивации курсанта. Благодаря чему у каждого будущего офицера появляется возможность развить нестандартное мышление и проявить свободу мысли, а также формировать безграничное воображение. Мы полагаем, что на занятиях по русскому языку использование творческой деятельности успешно повысит эффективность обучения курсантов, так как у них проявится интерес к изучаемой дисциплине,

а также данная технология обеспечит высокий уровень учебной мотивации, что, в свою очередь, поможет курсанту – будущему военному психологу, выразить свою индивидуальность, что является немаловажным компонентом на пути становления профессионального специалиста – военного психолога. Собственная педагогическая практика показывает, что использование творческих заданий и других инновационных педагогических технологий в учебном процессе, а также их внедрение в образование, имеет большие преимущества по сравнению с традиционными методами обучения.

Термин «творчество» являлось объектом исследования многих узбекских, российских и зарубежных ученых, педагогов, психологов, таких, как Я. А. Коменский, К. Д. Ушинский, Л. С. Выготский, Т. А. Барышева, Е. П. Ильин, А. М. Матюшкин, Г. С. Альтшуллер, Э. Аронсон, А. В. Хуторской, Н. Роджерс, П. Торренс, Л.Т. Ахмедова, Д.У. Хошимова, С.С. Магдиева и другие. В научных источниках даётся разные определения данному термину, но больше всего нам подходит определение Г.С. Батищева: «Творчество – это процесс деятельности человека, результатом которого является создание материальных и духовных ценностей. Творчество является высшим проявлением активности человека».

Одним из эффективных технологий творческих заданий является музыка. На наш взгляд, с помощью музыки можно воздействовать на эмоциональное состояние курсанта. Музыка и текст в ней отражают культуру страны изучаемого языка. Например, прослушивая русские песни, курсанты на занятиях могут выполнять такие творческие задания, как: 1) определить какое слово скрыто за картинками; 2) определить значение новых слов и т.п. (смотрите рисунок 1)



Рис. 1. Творческое задание с музыкой.

Использование инновационных педагогических технологий в процессе обучения даёт большие возможности как в дидактическом плане, так и для развития личности в целом. Инновационные педтехнологии могут классифицироваться по своим целевым ориентациям (дидактические, воспитывающие, развивающие), по характеру педагогического процесса (обучающие, тренировочные, контролирующие и обобщающие; познавательные, воспитательные, развивающие; репродуктивные, продуктивные, творческие; коммуникативные, диагностические, профориентационные, психотехнические и др.), по дидактическим задачам (обучающие, контролирующие и обобщающие). В условиях вузовского обучения в военных образовательных учреждениях на занятиях по русскому языку целесообразно применять различные модификации инновационных педагогических технологий. В нашем научном исследовании мы применяем технологии творческого обучения на занятиях по русскому языку курсантов, обучающихся по 95 направлению «Воспитательно-психологическое обеспечение служебной деятельности» Университета общественной безопасности РУз для совершенствования их стратегической компетенции.

Литература:

1. Utenbaeva G. M. Games as a means of innovative pedagogical technologies in teaching Russian as a foreign language to cadets //Journal of critical review. – Т. 7. – №. 5. – С. 367-371.

2. Mukhtarovna U. G. Improving the strategic competence of future military psychologists in teaching the Russian language //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 449-452.

3. Najmutdinova M., Narkulova I. R. Q. O‘zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 895-899.

4. Наркулова И. Р. К. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку курсантов юридического профиля на основе интерактивной программы //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1348-1352.

5. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2021. Discourse competence as the component of communicative competence. EPRA International Journal of Research and Development. Volume 6. Issue 3. pp.39-41.

6. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2021. On linguistic competence as the component of communicative competence. EPRA International Journal of multidisciplinary Research. Volume 7. Issue 3. pp.165-167.

7. Namozova, Dilnoza Berdimurotovna. "Development of phonetic competence." Science and Education 3.9 (2022): 413-415.

8. Berdimurotovna, Namozova Dilnoza. "New methods in teaching a foreign language to students of nonlinguistic universities." EPRA International Journal of Research and Development 5.5 (2020): 84-86.

Shirinova Nargiza

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, p.f.n.

INGLIZ TILI DARSLARIDA HARBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARIGA TIL MATERIALINI O‘RGATISH USULLARI

Annotatsiya: Ingliz tili darslarida harbiy oliy ta'lim muassasalari kursantlariga til materialini o‘rgatish usullari maqolada bayon qilindi.

Kursantlarga til materialini o‘rgatish orqali nutq faoliyati turlari, ya’ni gapirish, o‘qish, yozuv va tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga erishiladi.

Keywords: til materialiga o‘rgatish, o‘yin-topshiriqlarning samaradorligi, grammatik materiallar, leksik materiallar, talaffuz materiallari, kursantlarning qiziqishini oshirish.

Hozirgi kunda turli soha vakillariga chet tillarni o‘rgatish, ularning sohalari bo‘yicha chet tilda ish yurita olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish dolzarb vazifadir. Kursantlarning ingliz tili o‘rganishi uchun til materiali, ya'ni leksika, grammatika va talaffuz bo‘yicha ko‘nikma va malakalar hosil qilish muhim ahamiyatga egadir. Til materialini o‘rgatish kursantlarning nutq faoliyati turlari(gapirish, o‘qish, tinglab tushunish, yozuv) bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Kursantlarning gap qurilishi bo‘yicha bilimlarini oshirish, ularning leksik bazasini shakllantirish, shuningdek, ingliz tilining talaffuzini o‘rgatish ularning gapirish, o‘qish, tinglab tushunish va yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, kursantlarga til materialini o‘rgatish o‘qituvchilar oldida turgan katta vazifadir.

Grammatik ko‘nikma kursantlarning ingliz tilida gap tuzishlari, hikoya tuzishlari, ya'ni o‘z fikrlarini ingliz tilida bayon qilishlari uchun zarurdir. Ingliz tili grammatikasini o‘rgatish chet til o‘qitishda yordamchi vazifasini bajaradi, ya’ni asosiy maqsadimiz grammatikani o‘rgatish emas, balki ingliz tilida nutq yuritishda grammatik ko‘nikmalardan foydalanishdir. Grammatik materialdan tilni qo‘llash jarayonida foydalanish, ya'ni induktiv yo‘l asosida o‘rgatish zamonaviy chet til o‘qitish metodikasining vazifasidir. Dars jarayonida amaliyotdan qoidaga qarab borish chet til o‘qitishda o‘zining ijobiy ifodasini topgan. Masalan, “Present Continuous Tense” zamonini o‘rgatish jarayonida hozirgi zamon davom fe'lidan foydalangan holda savol-javoblar tashkil qilishga harakat qilish va ularni ko‘rgazmali taqdim etish asosiy o‘rin tutadi.

Masalan, What are you doing now? I am speaking English. I am doing the task. kabi savol-javoblarni bajarish orqali kursantlar mavzu haqida tushunchaga ega bo‘lib borishadi.

Kursantlar ushbu zamonda yasalgan gaplarni ko‘rib, ulardan foydalangan holda gap tuzishga harakat qilishadi va shu asosda qoida yaratiladi. Masalan, “Present Simple Tense” zamoni yasalishi “subject+to be+verbI+ing” kabi qoidaning yaratilishi va mashq qilishi maqsadga muvoffiqdir.

Leksik materialni o‘rgatish ham muhim vazifalarimizdan biri bo‘lib, o‘qituvchidan yuksak mahorat talab qiladi. Leksik materialni taqdim qilish, mashq qilish va qo‘llash metodikasi kundan kunga o‘zgarib, zamonaviylashib bormoqda. Masalan, an'anaviy ta’limda so‘zlar tarjima usuli orqali taqdim etilgan bo‘lsa, ayni kunda ularni tarjimada emas, balki ko‘rgazmali taqdim etish yoki izohlar, sinonim yoki antonimlar orqali yetkazish usullari mavjud. Mashq qilish va qo‘llashda ham kursantlarning faqatgina so‘zlardan gap va hikoyalar tuzishlari emas, balki ijodiy topshiriqlar, masalan rol` ijro etish, muammoli vaziyatlar yaratish va ularni yechish, she’r va qo‘shiqlar yaratish kabi kreativ amallarni ham bajarishlari zarur. Bu esa kursantlarning ingliz tilini turli vaziyatlarda qo‘llashlari va uni puxta egallashlariga imkon yaratadi.

Masalan, “Sport” mavzusi bo‘yicha leksik materialni taqdim etish maqsadida quyidagi topshiriqdan foydalanish mumkin:

Look at these situations and decide what spot is described.

These people are kicking a ball and defending their team.

karate football

Look! Soldiers are moving fast with their commander.

hand fighting running

Cadets are training now. They are using their hands and feet very quickly.

sit ups karate

It`s early morning. They are doing their physical exercise.

hand fighting PT

These two strong men are fighting physically with their opponent.

running kurash

Ushbu turdagi topshiriq kursantlarning “Sport” mavzusi bo‘yicha leksik materialni mustahkamlashlarida xizmat qiladi.

Ingliz tili talaffuzini o‘rgatish ham muhim vazifalarimizdan biri hisoblanib, uni o‘rgatish metodikasi bilan o‘qituvchi to‘la qurollantirilishi zarur.

Kursantlar ingliz tilidagi talaffuzda ba’zi bir qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bizga ma’lumki, ayni paytdagi texnik vositalarning zamonaviylashuvi o‘rganuvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda, ya’ni tabiiy til egalarining nutqini tinglash va o‘zlarining nutqlarini ham unga moslashtirish imkoniyatlari mavjudligi bilan belgilanadi. Kompyuter va “Aqlli doska”larning multimedia imkoniyatlari bunga misol bo‘la oladi va kursantlarning talaffuz ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ingliz tili fonetikasidan xabardor bo‘lish, so‘z va iboralarni to‘g‘ri talaffuz qilish til o‘rganishda asosiy o‘rin tutadi. Ingliz tili o‘rganuvchilari bilan ishlash tajribalaridan ma’lumki, ingliz tilining talaffuzidan juda ham ko‘p muammolarga duch kelinmoqda. Masalan, kursantlar “ed” ning talaffuzida ko‘p xatoliklarga duch kelishmoqda, uni mashq qilishda ovozli audio va videofilmlardan keyin quyidagi topshiriqni bajarish mumkin.

Fill in the columns with the words which are pronounced /d/, /t/, /id/

Wash iron clean parade separate brush pick

/d/	/t/	/id/

Ushbu turdagi topshiriq kursantlarni “ed” ni to‘g'ri talaffuz qilinishi uchun xizmat qiladi.

O‘qituvchi darslarni to‘g‘ri tashkil qilishi va til materialini o‘rgatishning zamonaviy usullaridan foydalanishi lozim. Bunga o‘yin-topshiriqlari va turli xildagi qiziqarli mashqlar misol bo‘la oladi.

Adabiyotlar

1. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: Чет тил ўқтитиш методикаси.– Т.: Ўқитувчи, 2012.–429 б.

2. Ширинова Н., Ширинова Н. English for Military. – T.: JXU, 2020. – 100 б.

3. James Thomas. Focus on teaching. – Brno, Czechia, Versatile, 2018, P.185.

Shirinova Nilufar Dj.
O‘zR JXU Tillarni o‘rganish kafedrasi dotsenti, filol.f.n.

PARALLELIZM – LISONIY HODISA SIFATIDA

Annotatsiya: Mazkur ishda, asosan, texnika va informatika sohalarida ishlatiladigan parallelizm hodisasi lisoniy tadqiq usuli sifatida namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z va iboralar: parallelizm, informatsion parallelizm, mantiqiy parallelizm, lisoniy parallelizm, poetik parallelizm, sintaktik parallelizm.

Parallelizm (grekcha *parallelos* – yonma-yon turuvchi) – fanda o‘zaro solishtirilayotgan ikki predmet/hodisaning umumiy va o‘xshash tomon(lar)i, noto‘liq takrori sifatida ma’lum bo‘lib, tilda lisoniy (lingvistik) parallelizm shaklida ro‘yobga chiqadi [3, 46-47]. Parallelizm hodisasini biologiya, fizika, matematika, informatika kabi ko‘plab sohalarda kuzatish mumkin. Masalan, informatika va hisoblash muhandisligi sohasidagi parallelizm – bir paytning o‘zida yechilishi mumkin bo‘lgan kichik topshiriqlarni nazarda tutishi mumkin. Bunda ko‘plab hisoblash tugunlarida ma’lumotlarni parallel qayta ishlashni u yoki bu usul orqali ro‘yobga chiqaradigan fizik hamda dasturlash tizimlari nazarda tutiladi. Masalan, ikki protsessorli mashinada massivni tezkor

guruhlash uchun uni teng ikkiga bo‘lish yoki har ikki qismni alohida protsessorda saralash mumkin. Har bir qismning saralanishi turlicha vaqtni olishi mumkin, shuning uchun sinxronizatsiya (bir vaqtning o‘zida bir necha operatsiyalarning bajarilishi) kerak bo‘ladi [1]. Dasturlashda parallelizmning – bitlar sathida parallelizm, instruksiyalar sathida parallelizm, ma’lumotlar parallelizmi, vazifalar parallelizmi kabi turlari mavjud bo‘lib, har biri o‘ziga xos vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashgan. Umuman olganda, parallel hisoblashlar kompyuterlar arxitekturasida dominant paradigma sifatida asosan ko‘pyadroli protsessorlar ko‘rinishida ifodalanadi.

Aslida parallelizm biologik (tabiiy) ong sathidan boshlanib, sun’iy ong sohasiga ko‘chirildi. 1970-yillarning boshida Massachusets texnologiya universitetining Sun’iy intellekt laboratoriyasi mutaxassislari Marvin Minskiy va Seymur Peypert “Aql jamiyati” deb nomlangan nazariya orqali biologik ongni ommaviy parallel hisoblash mashinasi sifatida qarashadi. 1986-yilda Marvin Minskiy “Aql jamiyati” deb nomlangan kitobida esa “ong o‘z-o‘zicha anglash qobiliyatiga ega bo‘lmagan ko‘plab kichkina agentlardan iborat”, degan fikrni ilgari surdi [3, 47]. Mazkur nazariyaga ko‘ra intellekt – o‘zi ongli bo‘lmagan agentlar deb nomlangan sodda qismlarning o‘zaro aloqadorligi mahsulidir. Muayyan anglash operatsiyasini bajarayotganda mazkur qism(cha)lar bir vaqtning o‘zida avtomatik harakatga keladi va o‘zaro munosabatga kirishadi. Mana shu jarayon (biologik, tabiiy) intellektual parallelizm deb hisoblanadi.

Demak, parallelizm tabiiy intellektual hodisa sifatida nafaqat insoniy tafakkur sathida, balki insoniy tafakkurning reallashuv shakli bo‘lgan lisoniy ong hamda insoniy til sathlarida ham reallashadi. Bunda obyektiv borliqda mavjud real va irreal

hodisalarning inson ongida aks etish jarayonini kuzatish mumkin. Insoniy tafakkur reallikda diskret (alohida, ajralgan) bo‘lgan narsa/hodisalarni sinkretlashtirish (birlashtirish, umumlashtirish) yoki aksincha, sinkret bo‘lgan voqeliklarni diskretlashtirish yo‘lidan borar ekan, buni o‘ziga xos mantiqiy parallel operatsiyalar orqali amalga oshiradi.

Mantiqiy parallelizm, o‘z navbatida, lisoniy parallelizm shaklida reallashadi, bunda muayyan mantiqiy kategoriya va tushunchalar lisoniy birliklar ifodasida ro‘yobga chiqadi. Lisoniy parallelizm tilda grammatik kategoriyalar, leksik va grammatik ma’nolarni ifodalash, fonetik/fonologik ekspressiya kabi lisoniy operatsiyalar jarayonida kuzatiladi [3, 48; 4]; muayyan grammatik kategoriyani ifodalashda ishtirok etuvchi turli lisoniy birliklar bir vaqtning o‘zida bir maqsad – shu grammatik ma’noni yuzaga chiqarish yo‘lida qatorlashadi.

Biroq o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, fanda lisoniy parallelizm hodisasi ko‘proq nazmiy adabiyotda takror, anafora, qofiya va radiflarning parallel (muqobil) ishlatilishi yo‘nalishida o‘rganilganlik bilan cheklangan bo‘lib, sof lingvistik (lisoniy ma'nolarning ifodalanishida til sathlariaro va/yoki til birliklariaro parallelizm) yo‘sinda kamroq o‘rganilgan. Aslida lingvistik parallelizmning hatto tilning struktur sathlarida voqelanishida yuzaga keladigan stilistik, konnotativ funksiyasini ham inkor etib bo‘lmaydi, chunki har qanday parallel model, konstruksiya, tuzilma va hatto birlik – xoh so‘zlashuv yoki ilmiy, xoh poetik uslub bo‘lsin, asosiy denotativ ma’no asosiga qurilgan intensifikatsiyani namoyish etadi – bu holat birin-ketinlik bilan mikrosathdan makrosathga qarab o‘sishi va shu orqali turli lisoniy va nutqiy voqelanishlarni aks ettirishi mumkin [3, 49]. Tilning nazmiy ifodasini namoyon etuvchi adabiy uslubda parallelizm – lirik g'oyani yetkazish jarayonida fonetik, morfologik va sintaktik birliklar orasidagi o‘zaro assimilyatsiyani ifodalovchi yo‘lga aylangan: bu tovushlar parallelizmi (tovushlar va bo‘g‘inlar o‘rtasida), leksik parallelizm (takroriy so‘z va iboralar vositasida) yoki sintaktik parallelizm (so‘z birikmalari va gap orasidagi) bo‘lishi ma'lum [4]. Masalan, A.Nedogonovning quyidagi satrlarida sintaktik parallelizmni kuzatishimiz mumkin:

Алмаз шлифуется алмазом,

Строка шлифуется строкой.

Xuddi shunday holatni o‘zbek tilida yozilgan asarlar matnida ham uchratish mumkin: “Gap shundaki, men adabiyot tarixi imtihonidan o‘tmay turib, muhabbat dardiga mubtalo bo‘ldim. Oqibatda na imtihondan o‘tdim, na u dardga davo topdim. Endi o‘ylab ko‘rsam, imtihondan eson-

omon qutulgan taqdirimda ham unga davo topmog'im gumon ekan (Erkin A'zamning “Otoyining tug‘ilgan yili” asaridan keltirildi)”. Bu misolda tasvirlanayotgan voqea parallel birliklar orqali (bir harakat ikki xil ma’no ifodalab), parallel birlikning ma’nosi kengaygan holda ifodalangan, ya’ni sintaktik parallelizm yuzaga chiqqan. Tovushlar parallelizmini izchil tadqiq etgan N.Djusupovning haqli ta’kidlashicha, bu tip hodisa nafaqat nutqning ravonligi, silliqligi va o‘qishliligini, balki ma’noviy/mantiqiy yukning simmetrik tarzda singdirilishini ta’minlaydi [2].

Darhaqiqat, bu kabi o‘rinlarda parallelizm imkoniyatlaridan foydalanish – nafaqat o‘ziga xoslik, alohidalik, individuallik belgilarini, balki ikki va undan ortiq birliklar va ular o‘rtasidagi o‘zaro semantik aloqadorlikning hamda o‘zaro tobelanishning faollashuviga xizmat qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, lingvistik parallelizm, asosan, adabiyot va musiqa sohasida stilistik usul sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Lisoniy parallelizmning *obyektiv borliq – insoniy tafakkur – insoniy ong* munosabatlarini namoyon etuvchi kognitiv hamda kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish uchun tilning aynan struktur yaruslari darajasida voqelanishi masalasi esa dolzarbligicha qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Almasi, G.S. and A. Gottlieb (1989). Highly Parallel Computing. – Benjamin-Cummings publishers, Redwood City, CA.; https://www.textologia.ru/slovari/lingvisticheskie-terminy/parallelizm/ ?q=486 &n=1248

2. Джусупов Н.М. Лингвистический параллелизм в англоязычном поэтическом тексте: когнитивно-стилистический потенциал и проблема интерпретации//“Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал. – № 4 (23)/ 2018. – С. 113-119

3. Shirinova N.D. Turli tizimli tillarda graduonimik munosabatlar. Monografiya. – Toshkent, 2023.

4. Shukurov R.M. Parallel sintaktik butunliklar: filol.f.n. ... diss.avtoref. – T., 2004.

Shonazarova D.J.
O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi
“O‘zbekiston” telereadiokanali”
DM tarkibidagi ‘‘O‘zbekiston tarixi”
telekanali bosh muharrir o‘rinbosari

INTERVYU MATNNING LINGOKULTUROLOGIK ASPEKTI VA NUTQ MADANIYATI BILAN ALOQASI

Annotatsiya: mazkur maqola intervьyu matnning lingokulturologik aspekti va nutq madaniyati bilan aloqasi haqida .

Kalit so‘zlar: lingokultrologiya, aspekt, kontsept intervyu, kontsept kognitiv tilshunoslik

Ma’lumki, lingvokulturologiya maxsus fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha sermahsul tushunchalarni yuzaga keltirdi: lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniyat kontsepti, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniy universaliya, madaniy salohiyat, madaniy meros, madaniy an’analar, madaniy jarayon, madaniy ko‘rsatmalar va h.k. Shuningdek, lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy apparatiga mentalitet, mentallik, taomil, rasm - rusumlar, madaniyat doirasi, madaniyat turi, tamaddun va boshqalar kiradi. Mazkur tushunchalardan eng muhimlari madaniy sema, madaniy fon, madaniy kontsept va madaniy konnotatsiya bo‘lib, ular madaniy informatsiyaning til birliklari vositasida ko‘rsata oladi. Intervyu diskurs jarayonida ana shularning aksariyati ishtirok etadi, deyish mumkin va ular intervьyuning jonli chiqishi hamda milliy jihatini belgilab beradi.

N.Mahmudov tilshunoslikda lingvokultrologik jarayonni ta’riflar ekan, uni nutq madaniyati bilan aralashtirib yubormaslikni, lingvomadaniyat hamda nutqiy madaniyat bir hodisa emasligini alohida uqtiradi. Olimning ko‘rsatishicha, “lingvokulьtrologiyadagi asosiy muammo sanalgan til va madaniyat munosabatiga to‘xtalganda madaniyat tushunchasini to‘g‘ri tasavvur etish lozim...Til va madaniyat deganda, odatda (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki

madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati) demakdir”. Lingvokulьturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasini, o‘zaro ta’sirini, tilda o‘z aksini topgan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etadigan soha ekan, fanning bu sohasi tilni madaniyatning fenomeni, tashuvchisi sifatida o‘rganishini e’tiborda tutish lozim. Mazkur fan doirasida leksik darajaning til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslikning tarkibiy qismlari va madaniy ma’nolar e’tiborda tutiladi.

Agar intervyu diskursni lingvokultrologik aspektda ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, masalaning ana shu jihatlarini e’tibordan soqit qilmagan holda yondashmoq zarur bo‘ladi. Negaki, interyu diskursning asosiy maqsadi fikr almashuv masalasiga juda yaqin kelar ekan, savol beruvchi va javob qiluvchi o‘rtasidagi fikr almashuv kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy - ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Intervyu OAVda e’lon qilinadi. Undan jamiyat a’zolarining deyarli barchasi ogoh bo‘ladi. Ayni shu jihatiga ko‘ra intervyu diskursda lingvomadaniyatning qator jihatlari ishtirok etadi va bular intervyu olayotgan hamda intervyu berayotgan shaxslarning nutqlarida namoyon bo‘lib turadi. Shu o‘rinda intervyu diskurslarda lingvomadaniy kontsept masalasiga ham mumkin qadar to‘xtab o‘tish lozim bo‘ladi. Faylasuf S. Askoldovning qarashicha, kontseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishar ekan, kontseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Bu esa kontsept intervyu diskurslarning ham alohida harakatlantiruvchi elementi ekanligini ko‘rsatadi. Zero ”Lisoniy makonda mavjud bo‘lgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining o‘ziga xosligini belgilaydi. XX asrning birinchi choragida kontsept haqida mulohazalarga tanqidiy yondashilgan. Faqat 80-yillarga kelib, bu terminga ehtiyoj qayta paydo bo‘ldi. Yu. S. Stepanov o‘zining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, kontsept so‘zining etimologiyasiga murojaat qiladi. Kontsept

lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” so‘zining kalkasidir. Kontsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat kontsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson kontsept yordamida madaniyatga kiradi va ba’zan unga ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, kontsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi. Kontseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o‘zaro farqlanadi. Ushbu termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko‘rish mumkin. Binobarin, N.Yu. Shvedova kontseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o‘z tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini ta’kidlagan. Modomiki, kontsept lingvokulturologiyada eng faol qo‘llanuvchi birlik sanalar ekan, intervьyu diskursda ham uning o‘z o‘rni, o‘z ta’sir quvvati mavjud. Kontsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Lingvomadaniy kontsept milliy xarakterning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Nutq lingvistikasining tekshiruv obyekti nimadan iborat? Nutq lingvistikasi xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari. – Samarqand: SamDChTI, 2006. – B.4.

2. Bu haqda qarang: Safarov Sh. Ko‘rsatilgan manba. – B.4; Schiffrin D. Approaches to Discourse. – Oxford, Cambridge: MA. 1994.

Mahmudov N. Ko‘rsatilgan manba. – B.61-62.

3. Askolьdov, S. A. Kontsept i slovo [Tekst] / S. A. Askolьdov // Russkaya slovesnostь. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. Antologiya. – M. : Academia, 1997. – S. 267–280.

4. Stepanov, Yu. S. Konstantы: Slovarь russkoy kulьturы [Tekst] / Yu. S. Stepanov. – M. : Akademiche-skiy proekt, 2004.

5. Demьyankov V.Z. Ponyatie i kontsept v xudojestvennom litarature i v nauchnom yazыke // Voprosы filologii. –Moskva, 2001. -№ 1. –S. 35-47.

6. Demyankov V.Z. Ko‘rsatilga maqola. – s.39.

7.Shvedova N.Yu. Izbrannыe raboty. –M., 2005. –S.603.

Shonazarova D.J.

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telereadiokanali” DM tarkibidagi ‘‘O‘zbekiston tarixi” telekanali bosh muharrir o‘rinbosari

INTERVYUDA DISKURSNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada intervyu, diskurs, lingvistik tushunchasining mohiyati, diskursning sotsiopragmatik xususiyatlari,paralingvistik omillar yuzasidan so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: intervyu, diskurs, sotsiopragmatik, pragmatik lingvistika, paralingvistik va tahlil.

Intervyu diskursning lingvistik xususiyatlarini turli aspektlarga ko‘ra tadqiq etish, bu boradagi nazariy va ilmiy mulohazalarni tahliliy va tanqidiy asosda o‘rganish, jumladan, intervyu diskursning sotsiopragmatik hamda gender xususiyatlarini ochib berish orqali til, madaniyat va jamiyatning turli qatlamlari tiliga xos bo‘lgan umumiylik va o‘ziga xosliklarni aniqlashtirish muhim vazifalardan sanaladi. Biz mushohada yuritayotgan jarayonda intervyu diskurs qatnashchilaridan sinchkovlik, mantiqiy mulohaza, intuvitiv faraz va izchillikni, shu bilan birga, bu jarayonga xos sotsiopragmatik jihatlarni hisobga olish talab qilinadi. Bu jarayondada intervyu qatnashchilariga xos gender xususiyatlarni o‘rganish ham voqelikning tinglovchi ong ostida reallashuviga va tinglovchilarga gap nima haqida borayotganligini aniqroq va puxtaroq tushunilishiga yordam beradi.

Zamonaviy ilm-fan, xususan, tilshunoslik o‘ziga tegishli hodisalarni o‘rganishga aniq fanlararo yondashuvlar mavjudligi bilan e’tiborni tortib turadi. Ayrim dalillarni tushuntirishda tegishli fan yoki sohalardan olingan

ma’lumotlarni jalb qilish zarurati antropotsentrizm yo‘nalishidagi ilmiy obyektlarni ko‘rib chiqishda diqqatning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy tilshunoslikda shu tariqa til hodisalariga kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik yondashuvlarning kirib kelishi faollashdi. Bunga bir tomondan, til, aloqa vositasi va ikkinchi tomondan, ijtimoiy ongning o‘ziga xos xususiyatlaridan yuzaga keladigan hodisa sifatida qaraladi. Ayni shu jihatdan anglashiladiki, o‘zbek tili hodisalarini “nutq-lison” tamoyili asosida o‘rganish jarayonida qo‘lga kiritilgan lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishi nafaqat sathlar hamkorligi nuqtai nazaridan, balki paralingvistik omillar bilan birgalikda tadqiq qilish, ulardan shaxsning oqilona va samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish pragmatik lingvistika oldida turgan asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Yuqorida ham ko‘rsatib o‘tganimiz kabi N.Mahmudov, L.Raupova, D.Xudoyberganova, M.Hakimov, Sh.Safarov kabi o‘zbek, Y.S.Kubryakova, Boduen de Kurtene singari chet el tilshunoslarining tadqiqotlarida pragmatika lingvistikaning yangi amaliy yo‘nalishi, tarmog‘i sifatida tilning nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador muammolarini o‘rganuvchi soha sifatida shakllanganligi ta’kidlab o‘tilgan. “Zamonaviy tilshunoslikning ekspantsionizmi – boshqa fanlarga, birinchi navbatda, gumanitar fanlarga kirish va tadqiqot obyekti hamda sub’ektining kengayishi, murakkablashuvi kabi munosabatning paydo bo‘lishiga olib keldi”. Bu mulohazalarni Boduen de Kurtene fikrlari to‘la tasdiqlaydi: “Tilda ham psixologik, ham ijtimoiy omillar faoliyat ko‘rsatganligi tufayli psixologiyani tilshunoslik uchun yordamchi fanlar, sotsiologiyani jamiyatda kishilarning muloqot fani, ijtimoiy hayot fani deb hisoblashimiz kerak”. Yu.S.Stapanovning fikricha, “Inson nutqining mazmunida asosiy informatsiyadan – fikrdan tashqari deyarli hamma vaqt so‘zlovchining sotsial holatini ko‘rsatuvchi sotsial informatsiyani va emotsional informatsiyani topish mumkin”. Ayon bo‘ladiki, intervьyu diskurslarda so‘zlovchilarning sotsial holati oldingi planga chiqadi. Uning yoshi va jinsi, jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyi, tarbiyalanganlik darajasi, bilim saviyasi, tafakkur tarzi ayni muayyan savollarga javob berish jarayonida oydinlashadi.

Inson biosotsial mavjudot bo‘lib, tug‘ilgandan boshlab, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi ma’lum qobiliyatlarni shakllantirishga moyillik bo‘rtib turadi. Ammo bu kabi o‘ziga xos ruhiy xususiyatlarni shakllantirish faqat jamiyat ichida, oldingi ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniyat normalarini o‘zlashtirish orqali amalga oshishi mumkin. Bu jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi, deb atalishi ham yuqorida nomlari keltirilgan tilshunoslar asarlarida qayd etilgan. Ularning yakdil ta’kidlashlariga ko‘ra, ijtimoiylashuvning kuchli omili, mavjud bo‘lganlarning eng kuchlisi til hisoblanadi. Til shaxsning boshqa odamlar bilan muloqoti orqali va unga muvofiq muayyan qarashlar, e’tiqodlar, baholar va hokazolar tizimi orqali “o‘zlashtiradigan” ijtimoiy xotiraning bir qismidir. Shaxs bir butun yaratiq sifatida jamiyatda shakllanadi. Bu tizim shaxsning xulq-atvori uchun ma’lum bir asosni tashkil etadi. Muayyan odamlar ongida, u dunyoning muayyan shaxsiy modeli ichida o‘z tajribasiga muvofiq rivojlanadi.

Kommunikantlarning yoshiga hamda ijtimoiy mavqeiga ko‘ra farqlanishi alohida-alohida fenomenlar sifatida o‘z mavqeyi doirasida ko‘zga tashlanadi. Haqiqatan ham, bolalar bilan kattalar nutqi orasida anchagina tafovutlar mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, intervyu diskursda ham 18-25 yoshdagi respondentlar bilan 30-50 va undan katta yoshdagi respondnetlarlar nutqi grammatik, leksik va ohang jihatidan anchagina farqlanadi. 18-25 yoshdagi kishilar nutqida shiddat, mulohazakorlikdan ko‘ra shoshma-shosharlik, maqsadni kamroq so‘zlar bilan bayon etib qo‘ya qolish, ko‘proq ovro‘pacha olinma so‘zlar tez-tez qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Bu o‘rinda ularning ijtimoiy mavqeyi (jamiyatda tutgan o‘rni) uning leksikoniga ta’sir qilib, yoshi ulug‘lardek emas, balki dunyoning baland-pastini ko‘rgan, hayotiy-ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgan respondent sifatida namoyon bo‘ladi. Intervyu olayotgan jurnalist yosh bo‘lsa, uning savollarida adresantning nutqiga yaqinlik darajasi ham ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot jarayonining ishtirokchilari: adresant (kommunikator) hamda adresat (javob qiluvchi)dir. Ularning ma’lum bir aniq amaliy ahamiyatli umumiy maqsadi bo‘ladi. Adresatning aloqa-aralashuv jarayonidan maqsadi (intentsiyasi) nimadir xususidagi axborotni yetkazish va odamlarning

ruhiyatiga, axloqiga ta’sir etishdan iborat bo‘lsa, adresatning maqsadi tinglashdir va bu masala to‘g‘risida o‘z fikrini bayon qilishdan iborat bo‘ladi. Ularning umumiy maqsadi fikr almashishdan iborat bo‘lar ekan, bu jarayonning tempi biri faol, ikkinchisi nofaol bo‘lmaydi. Balki har ikki tomon jarayonda baravar mavqeda qatnashadi. Ularning muhim bir masalada bir-birlari bilan muloqotga kirishishlari natijasida tinglovchilarga muayyan bir axborot yetkaziladi, tinglovchining axloqi, dunyoqarashi, bilim saviyasiga ta’sir o‘tkazadi. Bir so‘z bilan aytganda, kishilarning intervьyu diskursda ishtiroki muayyan mavzuda axborot yetkazish, ularning axloqi va dunyoqarashiga ta’sir qilish, hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolarning yechimini aniqlashga ko‘mak berishdan iborat bo‘ladi. Shu orqali intervьyu diskurslar faqat axborot yetkazuvchi oddiy intervyulardan farq qilib turadi. Intervyu diskurslarning leksikoni o‘ziga xos bo‘lishi, unda mavzuga tegishli lug‘aviy birliklar, sintaktik qurilishi o‘ziga xos jumlalarning ishtirok etishi ham aslida shundan. Nazarimizda, intervьyu diskursning sotsial xoslanishi bunda asosiy o‘rinni tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

1.Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss.– Toshkent, 2001. – B. 14.

2.Stepanov Yu.S. Frantsuzkaya stilistika. – M.: Vыsshaya shkola, 1965. – Str. 21

3.Kubryakova Ye.S. Smena paradigm znaniya v lingvistike XX veka Tekst. / Ye. S. Kubryakova // Lingvistika na isxode XX veka: Itogi i perspektivы: tezisы mejdunar. konf. – Moskva: MGU, 1995. - T. 1. - S. 278-280.

4.Boduen de Kurtene Izbrannыe trudы po obщemu yazыkoznaniyu Tekst.: v 2 t. / I.A.Boduen de Kurtene. Moskva: Izd-vo AN SSSR, 1963. – T. 1. – 384 ye., T. 2. – 391 s.

5.Niyazova G.G‘. Detektiv romanlar tilining sotsiopragmatik aspekti va gender xususiyatlari.// Filologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya. – T.: 2022. – B.87-132.

6. 5. Mengliev B.R. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar. ADD., Toshkent, 2002.

7.Qurbonova M.A. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – Toshkent: O‘zDJTU, 2009. – 25 b.

8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. — B. 254.

9. Arutyunova N. D. Diskurs // Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovarь; gl. red. V. N. Yartseva. – M. : Sov. Entsiklopediya, 1990. 10. Shpetnыy K.I. Pragmaticheskie parametrы professionalьnogo diskursa (na materiale bbs News/ News Front Page) // Vestnik MGLU. 2010. № 596. S. 214–234.

Тангиров О.
Ўзбекистондаги ислом цивилизацияси маркази илмий ходими,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ЎЗБЕК ТИЛИ БОРАСИДА ҲОЖИ МУИННИНГ ҒОЯЛАРИ

Аннотация. Туркистон жадидлари таълим-тарбия, матбуот, театр, адабиёт, илм-фан тараққиёти, юрт мустақиллиги каби ғоялар билан бир қаторда тил масаласини ҳам кўтариб чиққанлар. Хусусан, тараққийпарвар жадидлардан бири Ҳожи Муин она тилининг расмий тил сифатидаги аҳамиятини тиклаш, идора ишларини рус тилида эмас миллий тилда юритиш каби масалаларга эътибор қаратади. Мана шундай миллатпарварлик ишлари туфайли Ҳожи Муин совет даврининг қатағонига учради.

Калит сўзлар: тараққийпарвар, ўзбек тили, рус тили, ҳуррият, номус, қатағон.

1989 йил 21 октябрда Ўзбек тилига давлат тили мақоми бериш тўғрисидаги Қонуннинг қабул қилиниши халқимизнинг мустабид тузум ҳукмронлигидан қайта мустақилликка эришиши учун дадил қадамлардан бири бўлган. Аслида маърифатпарвар зиёли аждодларимиз она тилимизнинг юртимизда расмий тил сифатида фойдаланиш лозимлиги борасидаги дадил қарашларини совет

ҳукуматининг Туркистон ўлкасидаги дастлабки ҳукмронлик йилларида кўтариб чиққан эдилар. Улар мана шу ватанига, юртига, халқига бўлган фидойиликлари учун ҳам мустабид тузумнинг қатағон қурбонига айланишди. Жумладан, 1918 йилда она тилимизни “расмий идораларимизда қарорнома, тазкира ва буйруқдек расмий қоғозларимизни туркийча (ўзбекча) тилда ёзарға ва тарқатурға эрклимиз” [3:81] деган фикрни ўртага ташлаган Ҳожи Муин Шукрулло ўғли [1:164] шундай маърифатпарвар, юртпарвар аждодларимиздан бири эди. У ҳали коммунистик мафкуранинг қора ниятларидан унчалик бехабар бўлган ҳолда “биз Туркистон туркларии она тилимиз бўлғон тил билан бирга яшарға ва тилимизни ўз ҳаётимиз ва ўз ҳуқуқимиз билан баробар муҳофаза этарға тевишмиз” [3:81] – деб, кўпчиликнинг эътиборини тил масаласига қаратган ва тилимизни расмий тил даражасига кўтариш муаммосини ўртага ташлаган эди. Ҳожи Муин 1883 йил Самарқандда савдогар оиласида туғилади [3:5]. У ёшлигидан илм-маърифатга қизиқиб педагог, ношир, журналист сифатида етишиб чиқди ва Туркистондаги илм-фан, маданият, маърифатчилик ишларидаги ислоҳотчиларидан бири бўлди. У совет ҳукумати Туркистонда ҳокимиятни қўлга олиб, халқимизга турли ваъдалар бериб турган бир пайтда юртдошлари манфаатларига мос турли ғояларни матбуот орқали ўртага ташлади. Ҳожи Муин “яшамак шартлари ва ҳаёти ижтимоиядага вазифаларининг энг умдалари: аскарлик, маориф, тил, адабиёт, зироат, тижорат ва санойиъ эканлиги маълумдир. Мана, ҳаёти ижтимоиямизда лозим бўлғон бу нарсаларнинг барчаси ҳозирда бизда борми? Бўлса қайси ҳолдадир?” – деб, мустамлака даврда бошқа ижтимоий масалалар қатори миллий тилнинг аҳволидан ҳам ташвишланади [2:2].

Ҳожи Муиннинг она тилимизга ҳукумат томонидан расмий мақом бериши лозимлиги борасидаги фикрларида Россия империяси давридаги тил масаласига бўлган муносабатига эътибор қаратиб, “биз туркистонлилар ҳукуматнинг расмий идора ва мактаблари нари турсин, ўз мактабларимизда ҳам она тилимизда илм ва фан ўқимоққа комили ихтиёрли эмас эдик. Чунки ул мустабид ҳукуматнинг чин

муддаоси бизларни ва ғайри русларни руслаштирмоқ бўлғонлиғи сабабли бизларни ҳар жиҳатдан қисарға, эзарға тиришиб тура эди” [3:80] – дейди. У маҳаллий таълим муассасаларида ўқитиш тизими, ҳукумат идораларида расмий ҳужжатлар она тилимизда бўлишлигини хоҳлаб, бунга барчанинг эътиборини жалб этиши кераклигини таъкидлайди: “...иш бошинда турғон улуғларимизға, ёшларимизға ва матбуотимизға лозимдирки, фурсатни ўткармасдан тездан ушбу масаланинг ҳаллиға тиришгайлар”. Ўзининг фикрларини асослаш учун Самарқандда маҳаллий ҳукумат идораларининг рус тилида расмий қоғозларни олиб бораётганлигини танқид қилиб “бу иш ўз тилимиз ҳақинда бир жиноятдир” [3:82] – деб муносабат билдиради. Туркистондаги фидойи аждодларимизнинг ҳаракатлари билан Туркистон коммунистларнинг бир қурултойида она тилимизга расмий тил бериш бўйича қарор ҳам тасдиқлансада, лекин совет ҳукуматининг бундай ишлари халқнинг ишончига кириш учун қилинган кўзбўямачиликдан бошқа нарса бўлмади. Ҳожи Муин шундай дейди: “Дунёда золим остинда номуссиз яшамакдан ҳуқуқ ва ҳуррият йўлинда номус билан ўлмак минг марта яхширокдир”. [3:87] Ҳақиқатдан у шу фидойилиги, ватанпарварлиги, халқпарварлиги қурбони бўлди. Унинг илғор ғоялари ва ҳаракатлар туфайли Ҳожи Муин совет даҳрийлари томонидан 1929-1932 йилларда қамоқда сақланади. 1938 йил яна ҳибсга олинади ва 1942 йил оғир тазйиқлар туфайли қамоқ лагерларидан бирида оламдан ўтади.

Ҳожи Муин каби фидойи аждодларимизнинг интилишлари ўшалиб, она тилимиз яна қайтадан давлат тили сифатида фойдаланила бошланди. Ўзбекистон яна қайтадан мустақилликка эришиб, ўзининг она тили-ўзбек тилига эга давлат сифатида ҳар жабҳада ривожланиш йўлидан дадил одимлаб бормоқда.

Адабиётлар:

1. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент. “Маънавият”, 2004.

2. Ҳожи Муин. Бизга нима керак? *“Меҳнаткашлар товуши” газетаси, 1918 йил, 13 август.*

3. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Тошкент. “Маънавият”, 2005.

Туйчибаева Ш.Ш.
к.п.н., доцент, ст. преп. каф. «Узбекский язык и литература» ТГУВ
Белых Л.Х.,
ст. преп. каф. «Узбекский язык и литература» ТГУВ

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

В настоящее время – в период глобализации, активного сотрудничества Республики Узбекистан со многими зарубежными странами в сфере экономики, культуры и др., предъявляются особые требования к подготовке высококвалифицированных национальных кадров, хорошо владеющих своей специальностью, а также иностранными языками, в число которых входит и русский язык.

В работе рассматриваются теоретические аспекты формирования и развития коммуникативной компетенции в процессе обучения русскому языку как иностранному.

Одной из важнейших составляющих профессиональной компетентности современного специалиста считается иноязычная коммуникативная компетенция, под которой понимается «выбор и реализация программ речевого поведения в зависимости от способности человека ориентироваться в той или иной обстановке общения; умение классифицировать ситуации в зависимости от темы, задач, коммуникативных установок» [3, с.40].

Основная цель обучения русскому языку как иностранному – развитие речи, умение выражать свои мысли как в письменной, так и в устной форме, поэтому обучение говорению является важнейшим аспектом устной речи и состоит в том, чтобы научить студентов понимать на слух речь собеседника и говорить самому. Для решения этой задачи нужно учитывать, что навыки понимания и говорения формируются на основе грамматических, лексических, фонетических

знаний.

Разработка методики формирования и развития профессиональной компетенции студентов при обучении русскому языку сохраняет свою актуальность. Как показывает практика, многие студенты сталкиваются с трудностями при общении на русском языке, что свидетельствует о недостаточном уровне развития у них коммуникативной компетенции.

В учебном процессе устная речь является основной формой коммуникативного взаимодействия студентов и преподавателей. Студенты выступают с научными сообщениями, докладами, презентациями и т.д., но это устная монологическая речь, заранее подготовленная. О.А. Лаптева относит учебно-профессиональную диалогическую речь – практическое занятие, экзамен, консультацию, защиту курсовой работы – к диалогическим жанрам устной научной речи [4, с.4].

В процессе обучения говорению различают две формы речевой деятельности: диалогическую и монологическую речь. Они развивают у студентов навыки и умения, необходимые для воспроизведения прочитанной или услышанной информации, выражения собственного мнения по тому или иному вопросу. Обучение говорению тесно связано с обучением чтению и аудированию. Предъявляются следующие требования к уровню сформированности навыков и умений в диалогической речи,

– достижение коммуникативных целей в различных формах и условиях общения;

– использование формул речевого этикета и средств невербального общения;

– владение собственно речевыми умениями: вступать в общение, поддерживать и завершать общение; менять речевую тактику с учетом вариативности ситуации общения; продуцировать развернутые реплики смешанного типа; осуществлять адекватную речевую стратегию, добиваясь желаемой реакции собеседника; репродуцировать письменные тексты в форме монолога, используя элементы анализа; применять адекватные и разнообразные средства

выражения разных интенций (одобрение, утверждение, согласие / несогласие, подтверждение, возражение, сомнение, удивление и т. д.); строить логичные и связные высказывания, целостные в смысловом и структурном отношениях.

Изменение коммуникативных ролей в общении требует от студентов, выступающих в роли адресата, умений понимать основное содержание высказывания; определять его тему и коммуникативные интенции говорящего; использовать приемы компенсаторной стратегии для понимания звучащего диалогического текста. Необходимо целенаправленно стимулировать студентов к активному участию в различных видах общения (беседа, спор, дискуссия и т.д.), используя вопросы, разъяснение, уточнение точки зрения и др.

Для разработки эффективной методики развития коммуникативной компетенции необходимо проанализировать аспекты, влияющие на результат обучения русскому языку как иностранному.

Языковые аспекты:

Произношение и интонация. Для большинства студентов овладение фонетическими навыками требует длительной работы, их отсутствие препятствует адекватному восприятию и пониманию речи преподавателя на русском языке.

Лексика и грамматика. Зачастую студенты не могут выбрать подходящую лексику и грамматические конструкции для построения собственного высказывания.

Интерференция. Причиной возникновения многих ошибок в русской устной речи студентов, изучающих этот язык, является межъязыковая и внутриязыковая интерференция.

Лингвострановедческий и страноведческий аспекты. Изучение иностранного языка связано с пониманием культурно-национальных особенностей страны изучаемого языка. Студенты должны обладать достаточным объемом лингвострановедческих знаний, необходимых для осознания сходств и различий во взаимодействующих культурах.

Психологический аспект. Одним из важнейших психологических принципов обучения общению на иностранном

языке является принцип мотивации. Сильная мотивация приводит к быстрым и положительным результатам в обучении русскому языку как иностранному. Необходимо разработать действенные способы повышения уровня мотивации у студентов с целью формирования их профессиональной компетенции. Целесообразно предлагать для обсуждения проблемные вопросы, связанные с будущей специальностью и сферами деятельности студентов, темы общекультурного характера для дискуссий. Система оценок также является фактором повышения мотивации студентов к учебно-профессиональной деятельности.

Развивающий аспект. Развитие практических умений и навыков в учебно-профессиональной компетенции, что способствует формированию поликультурной личности.

Стратегический аспект. С помощью определенных учебных стратегий студенты могут преодолевать проблемы, возникающие в процессе иноязычного общения на учебно-профессиональные темы.

К компонентам содержания обучения студентов учебно-профессиональной русской речи можно отнести следующие:

– в обучении студентов русской диалогической речи приоритетной является учебно-профессиональная сфера общения. Специфика этой сферы обусловлена использованием научного стиля речи, признаки которого (точность, ясность, логичность, строгая аргументированность, однозначность выражения мысли, нормативность) ярко проявляются в учебно-профессиональных диалогах;

– создание речевых ситуаций является необходимым условием для эффективного обучения учебно-профессиональному общению. Речевая ситуация не только помогает студентам правильно понять смысл высказываний, но и дает возможность овладеть правилами употребления изучаемых языковых явлений, что позволяет совершенствовать умения адаптироваться к меняющимся условиям общения;

– обучение речевому общению предполагает обучение восприятию, пониманию и порождению текстов. Текст, выполняя

коммуникативную функцию, становится компонентом коммуникативного взаимодействия. Следует систематизировать языковые средства, используемые в разных жанрах научного стиля речи, чтобы научить студентов правильному восприятию речи собеседника и правильному формулированию высказывания с соблюдением языковых норм изучаемого языка. Учебный диалогический текст позволяет воссоздать реальную ситуацию общения.

С точки зрения И.Н. Борисовой, коммуникативная координация речевого поведения участников диалога представляет собой многоаспектную характеристику согласованности их речевых поступков в интеракции и речевых партий диалогического взаимодействия в целом [2, с.15].

Обучение устной речи заключается в том, чтобы научить студентов понимать на слух речь своих собеседников, уметь выражать свои мысли. При обучении устной речи важно учитывать, что навыки говорения формируются на основе грамматических, лексических и фонетических знаний, поэтому работа по развитию навыков аудирования и говорения должна вестись на каждом уроке.

Аудирование на начальном этапе – это умение слушать и понимать собеседника, т. к. устная речь в естественном общении чаще осуществляется в форме диалога или монолога. Обучение диалогической речи на начальном этапе позволяет студентам участвовать в диалоге в стандартных ситуациях (в магазине, кафе и т.д.); общаться с друзьями и однокурсниками на культурно обиходные темы; участвовать в речевом общении на занятии.

Участвуя в диалоге, студент должен: понимать высказывание на слух; адекватно реагировать на него; формулировать вопросы и ответы.

При составлении монолога студент должен: высказываться по предложенной теме; сообщить о себе, своих интересах, учебе; составить описание; составить логически завершенное высказывание на основе анализа и сравнения.

Все виды речевой деятельности вызваны потребностью общения

и реализуют ее. На начальном этапе обучения русскому языку как иностранному ведется комплексная работа над всеми видами речевой деятельности. Обучение говорению проходит поэтапно: презентация и усвоение языкового материала; усвоение лексико-грамматической модели-образца; отработка практических навыков и умений; развитие речевых умений.

Диалог является основной формой организации устной речи. При использовании диалога в учебном процессе преподаватель преследует следующее методические задачи: научить понимать услышанное высказывание; адекватно реагировать на него; научить формулировать вопрос и ответную реплику; выработать у учащихся умение самим начинать беседу.

При обучении монологической речи необходимо научить студентов: выражать законченную мысль, имеющую коммуникативную направленность; логически развертывать мысль, пояснять ее; логически рассуждать, сопоставлять, обобщать; строить грамотное высказывание.

В процессе монологической речи выделяются трудности в определении предмета высказывания, логической последовательности изложения, отборе языковых средств.

При обучении русскому языку как иностранному на продвинутом этапе одной из важнейших задач является развитие навыков монологической речи, т.к. устная и письменная речь в учебной деятельности студентов в значительной степени представляет собой монолог (сообщение или выступление на уроке, ответ на экзамене и т.п.). Монологическая речь как форма языковой деятельности обладает определенными характеристиками: насыщенность смысловым содержанием; организованность изложения; композиционная стройность, последовательность и логичность; развернутость речи; односторонний характер высказываний. Основными видами монологической речи являются монолог-описание, монолог-повествование и монолог-рассуждение. В диалоге, в отличие от монолога, стержневым компонентом является предложение, которое выражает основную мысль высказывания и

содержит речевой стимул к последующему высказыванию или речевую реакцию на предыдущий стимул.

Важными составляющими формирования коммуникативной компетенции студентов являются: внедрение инновационных технологий в учебный процесс; организация самостоятельной и творческой работы; совершенствование междисциплинарных связей и системы контроля; отбор лексико-грамматического материала, учет трудностей и др. Развитие методики обучения студентов русской устной речи должно осуществляться в следующих направлениях: разработка содержания учебной программы в соответствии с современными потребностями общества и учащихся; выбор оптимального способа обучения русской устной речи с учетом инновационных педагогических технологий, новейших достижений теории и практики обучения русскому языку; рассмотрение лингвистических, психологических и психолингвистических вопросов обучения устному общению с разных точек зрения, что потребует разработки, тестирования и внедрения новых методов и форм обучения; оптимальная организация учебного процесса.

Литература:

1. Баранова И.И. Актуальные проблемы формирования коммуникативной компетенции иностранных студентов в учебно-профессиональной сфере общения // Интернационализация региональных вузов: тенденции, стратегия, пути развития. – Волгоград, 2012. – С. 192 – 199.

2. Борисова И.Н. Русский разговорный диалог: структура и динамика. – М., 2009.

3. Вятютнев М.Н. Коммуникативная направленность обучения русскому языку в зарубежных школах // Русский язык за рубежом. 1977. № 6. – С. 38 –45.

4. Лаптева О.А., Скорикова Т.П. и др. Обучение устной научной речи: теория и практика. – М., 2000.

5. Туйчибаева Ш. Проблемы изучения русского языка как иностранного и пути их решения. // Востоковедения 2 (2), 2020. – С. 120-127.

Umarova F.Z.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
“Tillarni o‘rganish” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

TIL BILGANGA MING TANGA, YOXUD ONA TILI HAQIDA O‘YLAR

Annotatsiya. Maqolada til bilishning ahamiyati, ona tilining o‘zga tillarni o‘rganishga ta’siri, o‘zbekcha nutqda uchrayotgan xatolar, o‘zbek tilini rivojlantirish yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, millat, ta’lim, tarbiya, ma’rifatparvarlar, odob-axloq, o‘qituvchinig roli, konsepsiya.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish niyatida Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan xalqimiz azaldan farzand tarbiyasi, ta’limi, axloq-odobiga katta e’tibor qaratib keladi. Zero, taniqli ma’rifatparvar ajdodimiz Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida yozganidek, «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir». Har bir ezgu ish, yirik muvaffaqiyat, barakali umr negizida mukammal tarbiya yotadi. Ta’lim olishga ishtiyoq ham aynan to‘g‘ri tarbiya natijasida uyg‘onadi. “Usuli 176oda176” maktablarining asoschisi, ilg‘or fikrli pedagog Abdulla Avloniy bolalarga samarali ta’lim-tarbiya berish yo‘llarini tahlil qilar ekan, ta’lim va tarbiyaning uzviyligini, ushbu jarayonda muallimning roli kattaligini bot-bot ta’kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan oyilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur (...). Tarbiya qiluvchi muallimlarning o‘zlari ilmlariga omil bo‘lub, shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila chaqushturub o‘rgatmaklari lozimdur. Bu ravishi ta’lim ila berilgan dars va ma’lumot shogirdlarning diliga tez ta’sir qilub, mulloyi boamal bo‘lurlar» [1, B.15-16].

Yurtimizdan yetishib chiqqan donishmand mutafakkirlarning ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlangan ko‘plab asarlari mavjud. Yusuf Xos Hojibning

«Qutadg‘u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Sa’diyning «Guliston» va «Bo‘ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Ahmad Donishning «Farzandlarga vasiyat» kabi nodir durdonalari milliy merosimizning dur-u gavharidir. Ularning barchasida farzand tarbiyasining nechog‘li muhimligi, tarbiya va ta’lim jarayoni bola tug‘ilganidan boshlanib, uzluksiz va tizimli davom etishi lozimligi, ta’lim va tarbiya xususiy ish bo‘lmay, balki millat ishi ekanligi ta’kidlanadi.

Axborot asri nomini olgan XXI asrda barcha sohada faoliyat yuritayotgan kadrlardan chuqur bilimga ega bo‘lish bilan birga, undan unumli va o‘rinli foydalana olish malakasi talab etilmoqda. O‘qitish tizimlarida kompetensiyaviy yondashuv faol targ‘ib qilinmoqda. Tarixchi olim Valeriy Xanning yozishicha, «Bugun biz SPOD-dunyodan (Steady — barqaror; Predictable — oldindan aytib bo‘ladigan; Ordinary — oddiy; Definite — aniq) VUCA-dunyoga (Volatility — o‘zgaruvchanlik; Uncertainty — noaniqlik; Complexity — murakkablik; Ambiguity — mujmallik) o‘tayotganimiz haqida ko‘p aytilmoqda. Bizni kelajakdan turib o‘ziga chorlovchi dunyo zamonaviy ta’lim oldiga vazifalar qo‘yadi va uning yo‘nalishlarini aniqlaydi. Ko‘pchilik maktab bolalari va talabalarga umumiy bilimlarni emas (fundamental fanlar sohasidagi mutaxassislar boshqa masala), balki yangi dunyoda qo‘llaniluvchi bilim, ko‘nikma berish lozim» [2].

Hozirgi kunda ijtimoiy hayotda zarur bo‘lgan malakalar qatorida axborot ummonidan ehtiyojiga keragini topa olish, tanqidiy fikrlash, kreativlik, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlik, emotsional tafakkur va kommunikativ kompetensiya sanalmoqda.

Kommunikativ kompetensiya tilni turli sharoitlarda vaziyatga mos uslubda qo‘llay olishni nazarda tutadi. Bugun ish beruvchilar o‘z tashkilotlarida axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, salohiyatli, o‘z ustida ishlaydigan, bir necha tilni biladigan zamonaviy kadrlarni ko‘rishni xohlaydilar. Baxtimizga, til o‘rganish uchun juda keng imkoniyatlar mavjud: ko‘plab o‘quv markazlari onlayn yoki oflayn kurslarni guruh bilan birga yoki yakka tartibda tashkil etishni taklif qilmoqdalar. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari qoshida maxsus tayyorlov kurslari faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorijiy tilni o‘rganish istagida

bo‘lgan yoshlar o‘zlariga har tomonlama mos o‘qish turini tanlashlari mumkin.

Shubhasiz, xorijiy tillarni bilish yangi bilim va malakalarni egallashda, muvofiq shart-sharoitli ish topishda imkoniyatlarni kengaytiradi, o‘zga xalqlarning madaniyati va tarixini o‘rganishga yo‘l ochadi. Biroq o‘zga tillarni o‘rganish zinhor ona tili hisobiga bo‘lishi kerak emas. Bu fikrni o‘tgan davrlar olimlari, tilshunoslar, pedagoglar, psixologlar bilan bir qatorda zamonaviy o‘qituvchilar, tadqiqotchilar ham ta’kidlamoqdalar. Millat kelajagi, ravnaqi uchun qayg‘urgan, o‘zi jonkuyar bo‘lib, boshqalardan ham shuni kutgan Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak: «Har bir millatning dunyoda borligin ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yuqotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan kun unutmak va yuqotmaqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, (...) rus lisonini bilmak (...) keraklik narsadur. Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdur. Zig‘ir yog‘I solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur» [1, B. 32].

Bugungi kunda axborot shiddat bilan yangilanayotgan, ijtimoiy hayotda soat sayin o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir vaqtda tillarning bunday jarayonlarga moslashib borishi tabiiy. Buning oqibatida tillarga, jumladan o‘zbek tiliga ham yangi so‘zlar kirib kelmoqda. Lekin so‘nggi vaqtlarda o‘zbekcha so‘z bo‘la turib, xorijiy tildagi so‘zlarni ishlatish, o‘zbekcha so‘zlarni buzib talaffuz qilish yoki yozish holatlari ko‘p uchramoqda. Bunga aksar vaziyatlarda suxandonlar, tadbirlar hamda radio- va teledasturlar boshlovchilari ham sababchi bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 20-oktabrda imzolangan Farmon bilan tasdiqlangan 2020−2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida aynan suxandon-boshlovchilarning o‘zbekcha nutqini takomillashtirish masalasi muhim yo‘nalishlar qatorida belgilangan [3].

Ona tilimizga rus tili orqali boshqa xorijiy tillardan, asosan, ingliz tilidan «kasting», «layk», «dedlayn», «professionallik», «kreativlik» (biz

ham bu so‘zni qo‘lladik), «chek-list», «konferensiya», «selfi», «bloger», «investor», «broker», «marketolog», «menejer», «shourum», «monitoring» kabi o‘nlab so‘zlar kirib keldi. Vaholanki, bu o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbekcha muqobilga ega va ularni tilga va mazmunga putur yetkazmagan holda bemalol qo‘llash mumkin va joiz.

O‘zbek tilidan unumli foydalanish, uni joylantirish jarayonining samarali kechishida o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir. O‘qituvchi doim ta’lim oluvchilarning ko‘z o‘ngida bo‘ladi, qaysidir ma’noda namuna vazifasini o‘taydi. Ko‘p davlatlarda o‘qituvchi kasbi eng hurmatli va e’zozlanadigan kasblar qatoriga kiradi. Yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishida, oqni qoradan ajratishni, keng mushohada qilishni o‘rganishida o‘qituvchining ta’siri kuchlidir. Abdulla Avloniy o‘qituvchining bola ta’lim-tarbiyasidagi vazifalari haqida shunday deydi: «Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur» [1, B. 15].

Alalxusus, davlatimiz rahbariyati ham ta’lim masalalari, o‘qituvchi nufuzining qanchalik muhimligini anglagan holda, o‘qituvchilarning obro‘-e’tiborini ko‘tarishga, ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko‘rmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu yil o‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigida «Muallimning obro‘-e’tibori – bu avvalo millatning, butun xalqning obro‘-e’tiboridir», deya ta’kidladi [4]. Yurtboshimiz bilimning inson hayotidagi, jamiyat ravnaqidagi ahamiyatiga alohida urg‘u berdi: «Hozirgi zamonda hamma jabhalarda ilm, bilim va salohiyat suv bilan havoday zarurligi, har qaysi davlat faqatgina shu asosda taraqqiyotga erishishi, 179oda qilib aytganda, inson bilak kuchidan ko‘ra ilm kuchi bilan ko‘proq daromad va obro‘-e’tibor topishi mumkinligini hammamiz yaxshi anglaymiz» [4].

O‘z-o‘zidan ma’lumki, bularning barchasiga tillarni, birinchi navbatda ona tilini mukammal o‘zlashtirish orqali erishish mumkin. Zero,

dono xalqimiz «Til bilgan dil bilar», «Ish bilganga bir tanga, til bilganga ming tanga» deb bejiz aytmaydi.

Adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Xan V. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning kuchi /Gazeta.uz. 19.08.2020. https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/19/individual-oriented-education/
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6084-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi. 2022-yil 29-sentyabr. https://uza.uz/posts/33248
5. Умарова Ф. З. Развитие личности учащегося–залог обеспечения устойчивого развития //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2011. – №. 9. – С. 644-645.
6. Umarova F. The student’s personal development as a key to sustainable development //Lifelong Learning: Continuous Education for Sustainable Development: proc. of Int. coop./arr. NA Lobanov; sci. ed. NA Lobanov, VN Skvortsov; LSU na AS Pushkin, Res. Inst. Soc.-Econ. and Ped. Probl. of Lifelong Learn.–SPb.: LSU na AS Pushkin, 2011.–Vol. 9.–656 p. – 2011. – С. 564.
7. Умарова Ф. З. Готовность педагога к личностно-ориентированному образовательному процессу в школе //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2010. – Т. 8. – С. 385-387.
8. Атаева Р. Р. СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ГНЕЗДА //Ответственный редактор. – 2022. – С. 34.
9. АТАЕВА Р. Р. ТИПОЛОГИЯ ПОЛИВЕРШИННЫХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ГНЕЗД СОВРЕМЕННОГО

РУССКОГО ЯЗЫКА //Иностранные языки в Узбекистане. – 2018. – №. 4. – С. 29-37.

10. ATAYEVA R. R., ARTIKOVA S. A. K. SYNTAX CONSTRUCTIONS WITH GRAND PARTICIPLES //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – №. 4. – С. 53-55.

11. Эгамбердиева Г. М. Эффективность использования технологии полного усвоения знаний в воу //XV1 Виноградовские чтения. – 2020. – С. 200-203.

12. Эгамбердиева, Гузал Мадияровна К ИСТОРИИ ВОПРОСА ОПТИМИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ // ORIENSS. 2022. №Special Issue 26. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/k-istorii-voprosa-optimizatsii-obucheniya-v-pedagogicheskoy-nauke (дата обращения: 12.04.2023).

13. Эгамбердиева Г. М. МЕТОД «ДЕБАТЫ» НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 155-162.

Usmonova Z.J.,
O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

XORIJLIKLARGA O‘ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHDA DIDAKTIK MATERIALLARNI TANLASH TAMOYILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatishda o‘zbek tilini lingvokulturologik yondashuv asosida o‘qitishda didaktik materiallarni tanlash tamoyillari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, lingvokulturologik yondashuv, tamoyil, autentik material, o‘quv materiali, realiya.

Tilni lingvokulturologik yondashuv asosida o‘qitish va ta’lim oluvchilarda lingvokulturologik kompetnsiyani shakllantirish o‘quv

materiallarini tanlash va til o‘rganuvchilarga taqdim etishning o‘ziga xos tamoyillari, usulllari va vositalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Xorijiy til ta’limida didaktik materiallarni tanlash masalasi juda muhim, lekin aynan shu masalada qarashlar har xil bo‘lib, ayrimlar bunda tamoyil terminini qo‘llasalar, ayrimlar esa omil atamasini ishlatadilar [2]. T.I. Gustomyasova B.A.Lapidus fikriga qo‘shilgan holda, prinsip – tamoyil atamasini qo‘llashni va “muayyan materialni o‘quv jarayonida qo‘llash yoki qo‘llamaslikning maqsadga muvofiq yoki maqsadga muvofiq emasligi” ni aniqlashni asosiy tamoyil sifatida tanlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi [3].

A.S. Stasenko va Yu.S. Baskovalar nofilologik oliy ta’lim muassasalarida chet tili mashg‘ulotlarida talabalarning lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda quyidagi tamoyillar yetakchilik qilishini uqtiradilar:

- kommunikativlik tamoyili;
- konsentrizm tamoyili;
- ona tili va madaniyatini hisobga olish tamoyili;
- madaniyatlararo muloqot tamoyili;
- o‘quv jarayonining ochiqligi kommunikativlik tamoyili;
- o‘quv materiallarini to‘ldirib borish tamoyili;
- internet-resurslardan mustaqil ta’lim vositasi sifatida foydalanish tamoyili;
- o‘quv materiallarining autentikligi tamoyili;
- o‘quv muloqot muhitini shakllantirish tamoyili [4].

O.V. Xalturina bo‘lg‘usi filolog-tarjimonlarda talabalarning madaniyatlararo muloqot yuritish kompetensiyasini videomateriallar vositasida shakllantirishda o‘quv materiallari tanlovini ijtimoiy-madaniy yo‘nalganlik, mavzuviylik, axborot-ma’lumot berish, muvofiqlik, vaziyatga moslik tamoyillari asosida amalga oshirishni zurur, deb hisoblaydi [6].

V.G.Babayeva fikricha, chet tillarni o‘rgatishda quyidagi tamoyillardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- lingvokulturologik yondashuv tamoyili;
- vazifaviylik tamoyili;

- mavzuviylik tamoyili;
- autentiklik tamoyili;
- ko‘rsatmalilik tamoyili;
- madaniyatlaaro muloqot yuritish tamoyili;
- yoshga va kasbga muvofiqlik tamoyili [1].

L.P.Tarnayeva filologik yo‘nalishdagi universitetlarda chet tillarni o‘qitishda o‘quv materiallarini tanlashning quyidagi 9 ta tamoyilini qayd qilib o‘tadi:

- lingvokulturologik yondashuv tamoyilini;
- ta’limning amaliy vazifalari va kommunikativ ehtiyojlariga muvofiqlik tamoyili;
- vazifaviylik tamoyili;
- mavzuviylik tamoyili;
- autentiklik tamoyili;
- kodlashtirilganlik tamoyili;
- kasbiylik tamoyili;
- o‘quv jarayonini mos uslubiy vositalar bilan rasmiylashtirilgan matnlar bilan ta’minlash tamoyili;
- o‘quv jarayonini ko‘chma ma’nolarni ifodalashning leksik-grammatik vositalari bilan ta’minlash tamoyili [5].

Metodistlarning fikrlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning qarashlari turlicha, biroq barcha yo‘nalishlarda lingvokulturologik tamoyil yetakchi tamoyil sifatida qayd etiladi. E’tibor bilan qaralsa, hatto filologik yo‘nalishda ham chet tillarini o‘rgatishda lingvokulturologik yondashuv tamoyili birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Bu tilni xorijiy til sifatida o‘qitishning ona tilini o‘qitish yondashuvidan ko‘p jihatdan farqlanishini, mazkur yondashuvda tilni bilishning o‘zi yetarli bo‘lmasligi, tilni til egalarining turmush tarzi bilan birgalikda o‘rganilsagina uni amaliyotda qo‘llay olishini dalillaydi.

Biz ushbu metodist-olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda o‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatishda yuqorida qayd etilgan barcha tamoyillardan foydalanish maqsadli, deb hisoblaymiz. Xorijliklarga taqdim etilayotgan har bir o‘quv materiali o‘zining yangiligi, real hayotni ko‘rsatish bilan, ular orqali o‘zbek etnosining ijtimoiy-madaniy turmush tarzini real holatda

ko‘rish va chuqur anglab yetish, muloqot vaziyatlarida qo‘llay olishga xizmat qilish mumkin, ya’ni hayotiy vaziyatlarda qo‘llanish ehtimollari va ehtiyojlari mavjud.

Shu bois, bunda ayniqsa milliy realiyalar tarkibida alohida o‘rin tutadigan lingvokulturemalarni o‘rganishning o‘rni katta bo‘lib, aynan tili o‘rganilayotgan mamlakat xalqining ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi barcha real narsa-buyumlarning nomlarini, joy nomlari, ushbu xalqlarda ismi-shariflarning qo‘yilishi, insonlarning turli vaziyatlarda bir-biriga murojaat qilish shakllari, uy tutumlari, urf-odatlari, qarindosh-urug‘chilik munosabatlari, ish, o‘qish va dam olish vaqtida, uyda, ko‘chada, ishda, o‘qishda, ko‘chada, bozorda, shifoxonada, turli marosimlarda faoliyat yuritish jarayonida muloqot yuritish shakllari, xushmuomalalik va rasmiy muloqot ko‘rinishlari, bunda muloqotdoshlarning yosh va gender xususiyatlari, qaysi sheva vakili ekanliklarini ham e’tiborga olish zarur bo‘ladi. Demak, o‘quv materiallarini tanlash va mavzularga taqsimlashda ushbu xususiyatlar ham katta rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Бабаева В.Г. Обучение учащихся старших классов гимназий с гуманитарным профилем культуроведческому дискурсу на основе медиа ресурсов. Дис-я на соис. канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2016. –С.32-37.

2. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: ped. fan. dokt. diss. – T.: 2019. – B.31.

3. Густомясова Т.И. Методика формирования социолинг-вистической компетенции студентов на материале E-mail-проектов: неязыковой вуз, английский язык: Дис. ... канд. пед. наук. – Волгоград, 2010. – 217 с.- С.138.

4. Стаценко А.С., Баскова Ю.С. Лингвокультурная компетенция: приемы формирования на занятиях по иностранному языку в неязыковом вузе: Монография / А.С. Стаценко, Ю.С. Баскова. – М. : Прометей, 2015. – 116 с.- С.44.

5. Тарнаева Л.П. К вопросу о содержании лингвокультурологического образования студентов переводческих факультетов и отделений // Материалы VI Российско-Американской конференции «Актуальные вопросы современного университетского образования». – СПб : Из-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2005. – С.102-103.

6. Халтурина О.В. Халтурина О.В. О проблеме отбора видеоподкастов, используемых при формировании межкультурной компетенции будущих лингвистов-переводчиков / Ж. Филологические науки. – 2014. – №7 (37). – Часть 2. – С. 204-206.

Xojanazarov A.
O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali tadqiqotchisi

JURNALISTNING ADABIY TILDAN FOYDALANISH MAHORATI VA NUTQ MADANIYaTI MASALASIGA DOIR

Annotatsiya: Ush bu maqolada jurnalistning adabiy tildan foydalanish mahorati, til madaniyati, nutq madaniyati va unga qo‘yiladigan talablar haqida aytilgan.

Kalit so‘zlar: til majaniyati, nutq madaniyati, tafakkur, ilm, nutqning to‘g'riligi, mantiq, tarbiya, telejurnalistka.

Nutq madaniyati inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, jamiyatning madaniy taraqqiyoti va millatning ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. O‘zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi deb e’lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Barcha sohalar kabi adabiy til va u bilan bog'liq muammolar ham asta-sekinlik bilan o‘z echimini topmoqda. Xususan, nutq madaniyatiga doir masalalarni hal qilishda tilshunos olimlarimizning izlanishlari tahsinga loyiqdir.

Qoraqalpoq xalqi uzoq o‘tmishdan ta'lim-tarbiya hususida boy merosga ega bo‘lib, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik,

do‘stlik, mehr-oqibat, birodarlik, kattaga izzat, kichikka hurmat kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga doir asarlari ham ana shu boy merosning tub negizini tashkil etadi. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning «Qutudg'u bilik» («Baxt keltiruvchi bilim») asari XII asrdagi ajoyib yodgorlik bo‘lgan. Kaykovusning «Qobusnoma» asari ham bu fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi.

Respublikamizning «Davlat tili haqidagi Qonuni», «Ta'lim to‘g'risidagi Qonuni», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, shuningdek, til masalalariga alohida e’tibor berilgan. Chunki, har qanday kadriyat, eng avvvalo, o‘z ona tilining chinakam sohibi bo‘lgandagina saqlanadi. Demak, nutq madaniyati va notiqlik san’ati sirlarini o‘rganish masalalari o‘z fikrini bayon qilayotganda til vositasini kerakli va lozim bo‘lgan o‘rinda to‘g'ri qo‘llash barcha sohada, ayniqsa, jurnalistika sohasida xizmat qiluvchi mutaxassislar uchun, umuman har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zaruriyat, deyish mumkin. Bu haqida taniqli olimlar ham o‘z fikrlarini bildirib, “nutq madaniyatining asosiy tayanchi adabiy tilining grammatikasidir” – deya ta'kidlashadi [1]. Chunki, nutq madaniyati – tilshunoslikning o‘ziga xos amaliy sohasi hisoblanadi.

Jurnalistning nutqi ma'lum bir auditoriyaga qaratilgan matnning shakllantirilgan tashqi ko‘rinishidir [2]. Albatta, bu yo‘llangan nutq tinglovchiga etib borib ma'lum bir ta'sir ko‘rsatsagina, unga nisbatan yaxshi nutq deyishimiz mumkin. Shuning uchun ham jurnalist nutqi har tomonlama yaxshi bo‘lishi uchun ma'lum bir talablar qo‘yiladi. Bu talablar nutqning to‘g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi, ta'sirchanligi, tozaligi, tushunarliligi va maqsadga muvofiqligidir. Endi ularga nazariy jihatdan tushunchalar berib o‘tsak:

1. Nutqning to‘g'riligi. «To‘g'rilik deganda, – deb yozadi rus tadqiqotchisi V.G.Kostomarov – nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me’yoriga qat’iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy lug'at va grammatik me’yorlarini egallashni tushunish lozim» [3]. Nutqning to‘g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Nutq to‘g'ri bo‘lmasa,

boshqa kommunikativ sifatlari ham yaxshi bo‘lmaydi. Nutqning tuzilishi to‘g'ri bo‘lmasa, uning mantiqiyligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur etadi.

Nutq to‘g'ri bo‘lishi uchun, asosan ikki me’yorga: urg'u va grammatik me’yorga amal qilishimiz kerak. So‘zlardagi urg'uning ko‘chishi bilan ba'zan ma'no ham o‘zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmasligimiz lozim. Bu ham nutqning buzilishiga olib keladi.

Gap ta'siridagi bir so‘zga tushadigan mantiqiy (logik) urg'uni ham ma'noni farqlashdagi xizmati katta. Grammatik me’yorga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to‘g'ri foydalanish, o‘zak va qo‘shimchalarni o‘z o‘rnida qo‘llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo‘laklarni ularga bog'lanish qonuniyatlari tushuniladi.

2. Nutqning aniqligi – bu so‘zning o‘zi ifodalanayotgan voqelikka mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Masalan, Aristotel: «Agar nutq noaniq bo‘lsa, u maqsadga erishmaydi», - degan bo‘lsa, Kaykovus: «Ey farzand so‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so‘zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirganda so‘zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang, qushga o‘xshaysan…», - deya ta'kidlaydi.

Aniqlik nutqning fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan, nutq predmetining ma'nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so‘z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo‘ladi. Agar jurnalist o‘zi fikr yuritmoqchi bo‘lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so‘zlar tanlasa va o‘zi tanlagan so‘zlarning ma'nolariga mos vazifalar yuklasa, nutqi aniq bo‘lishi tayin. Yaxshi, sodda, aniq fikrlar unitilishi mumkin, lekin hech qachon o‘lmaydi.

3. Nutqning mantiqiyligi. Bu to‘g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langan bo‘ladi. Chunki grammatik jihatdan to‘g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Jurnalistning nutqida mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib etmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga olib keladi. Nutqni tuzishdagi e’tiborsizlik natijasida ba'zan mantiqsizlik yuz

beradi. Quyidagi misolga e’tibor qiling: «Fermer jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatidan oldin bajardilar» («Ma'rifat» gazetasidan, 2018 yil, 19-noyabr). Gapda so‘zlarning to‘g'ri qo‘yilmaganligi mantiqqa putur etayapti, hatto xato fikr ifodalanayapti.

Nutqning mantiqliligi deganda yaxlit bir fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora aniq maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

4. Nutqning tozaligi. Jurnalist nutqning tozaligi deganda, eng avvalo uning adabiy tilning lisoniy me’yoriga muvofiq kelishi yo kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi ideal nutq hozirgi o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo‘lishi, turli til, g'ayri adabiy til unsurlaridan xoli bo‘lishi kerak. Bu masalaning lisoniy tomoni bo‘lib, nutqiy tozalikning nolingvistik jihatlari ham undan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega.

Jurnalist nutqining toza bo‘lishiga halaqit berayotgan lisoniy unsurlar, asosan dialektizmlar va varvarizmlar hisoblanadi. Buning ma'lum badiiy estetik vazifani bajarishi jurnalistning ma'lum g'oyani, niyatni amalga oshirishiga xizmat qiladi. Aytaylik, jurnalist milliy koloritni bermoqchi yoki asar qahramonini qaerlik ekanligiga ishora qilishda dialektizm va varvarizmga murojaat qilishi, ba'zan zarurdir.

5. Nutqning ta'sirchanligi. Bu asosan og'zaki nutq jarayoni nazarda tutilgan va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e’tiborga olish ham muhimdir. Ya’ni jurnalist tinglovchilarni hisobga olishi – kishilarning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha o‘z nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo‘lgan kishilar oldida jo‘n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo‘lmagani kabi oddiy, etarli darajada ma'lumotga ega bo‘lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish kerak emas. Xullas, jurnalistdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni to‘laligicha tinglovchilarga etkazishga harakat qilish vazifa qilib qo‘yiladi.

Xo‘sh, ta'sirchan nutq deganda qanday nutqni tushunmoq kerak? Unga B.N.Golovin shunday ta'rif beradi: «Ta'sirchan nutq deb nutq

qurilishining tinglovchi va o‘quvchi e’tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga aytiladi. O‘z navbatida shu xususiyatlarga ega bo‘lgan nutq ta'sirchan sanaladi» [4]. Auditoriya tushunadigan tilda gapirish, ularni ishontira olish jurnalistlar oldiga qo‘yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo‘lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o‘zaro bog'lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tanishtirib, gapni bog'lash lozim. Vaqtni hisobga olish jurnalistning notiqlik fazilatlaridan biridir, chunki so‘zlash muddati oldin e’lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo‘lsa, sal oldinroq tugatilsa, tinglovchilar zerikmaydi.

Jurnalist auditoriyaga nutq bilan murojaat qilishdan avval o‘zini tinglovchining o‘rniga qo‘yib: “Shuni eshitishni o‘zim xoxlarmidim?”, - degan savolni o‘z oldiga qo‘yishi kerak. Shu nuqtai nazardan nutqlar tahlil qilinmasa, baholanmasa, kelajakdagi ko‘plab nutqlar yaroqsiz, - deb topilishi hech gap emas. Sababi, auditoriyaga yo‘naltirmoqchi bo‘lgan nutqlarning ko‘pini o‘zingiz tinglashni istamas ekansiz, buni boshqalarga ham ravo ko‘rmaslik kerak.

Jurnalistning nutqiy harakatlari insonlar zarariga emas, foydasiga xizmat qilishi zarur. Nutq samarasini ta'minlash tinglovchi omilini hisobga olishni taqozo etadi. Har bir tinglovchiga, suhbatdoshiga, u kim bo‘lishidan, qanday mavqega ega bo‘lishidan qat’iy nazar unga yuksak hurmat bilan munosabatda bo‘lish, yuqori madaniyat bilan muomala qilish komil insonning, etiu jurnalistning xususiyatidir.

Jurnalistning o‘z nutqiga munosabati ham muhimdir, chunki shunday bo‘lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish bo‘ladi. Jurnalist va tinglovchi o‘rtasidagi aloqa yaxshi bo‘lib va uning fikrlarining o‘zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilinsa, mavzuga doir sub’ektiv fikr-mulohazalarini bildirsa, nutq ham ishonarli, ham ta'sirli bo‘ladi. Telejurnalistkada bu narsa o‘ta muhim hisoblanadi. Qayd etilgan ushbu talablar hozirgi zamon notiqligi oldiga qo‘yilgan asosiy tamoyillar sirasiga kiradi. Bugungi kun notiqlari ommaviy muloqot sohasi mutaxassislari – jurnalistlar hisoblanadi. Bu

jurnalistlar zimmasiga alohida ijtimoiy mas’uliyat yuklaydi. Jurnalist mas’uliyati kasbiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy mas’uliyatdir.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov A. Til boyligi. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 27.
2. Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova I. Adabiy norma va nutq madaniyati. –T.: Fan, 1983.
3. Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Nauka. 2005. – S. 340.
4. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.: VSh, 1980. – B.126.
5. Qosimov N., Fayzullaeva X. Media etika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 208.
6. Rahmatullaeva I. Televidenie va yoshlar:kecha va bugun. – T.:Yangi asr avlodi, 2004. – B. 60.
7. Shomaqsudova S.X. Notiqlik san’ati sirlari. // O‘zbekiston matbuoti. – T.: 2013, № 4. – B. 149.

Xursandov A.S.,
Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrasi boshlig‘i, PhD, dotsent

TIL BILMOQ – EL BILMOQ

Kalit so‘zlar: til, nutq, davlat tili, o‘zbek tili, muloqot, huquq, imkoniyat, nufuz, rivojlanishi, me’yor, norma, lug‘aviy qatlam, yangi so‘zlar, atamalar.

Mamalakatimizda o‘tgan yillar mobaynida davlat tilini rivojlantirish hamda nufuzini oshirishga qaratilgan bir qator samarali va izchil ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Til siyosatini takomillashtirishga huquqiy asoslarning mustahkamlanishi davlat tili nufuzini yanada ortib borishiga bevosita xizmat qilib kelmoqda. Ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishning birdan bir yo‘lini tanlab oldik.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [1], «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonuni, shuningdek, «2020—2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Kontsepsiyasi»da davlat tilini rivojlantirishning muhim belgilari belgilangan. Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish bugungi kundagi eng muhim yo‘nalishlardan birini tashkil etadi. O‘zbek tilini davlat tili deb qonunlashtirilishi madaniy hayotimizda katta voqea bo‘lib, til muammolarini hal etishda hamda uning ijtimoiy vazifasini kengayishida beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, “O‘zbekistondagi bag‘rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo‘lib yashayotgan millat va elat vakillariga o‘z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman tillarida faoliyat olib borayotgan xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy hodisa sifatida e’tirof etilmoqda”[2, 462]. Yer yuzida qancha millat, xalq, elat, qabila bo‘lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo‘q. Xalqsiz esa til ham bo‘lmaydi. Bular egizak tushunchalardir, biridan birini ayirib bo‘lmaydi, ular ayirib qo‘yilsa, ikkisi ham o‘zligini yo‘qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo‘shilib ketadi, uning tili esa o‘lik tilga aylanadi.

Yer yuzidagi barcha xalqlarning tillari, ularda millionlab odam gaplashadimi yoki atigi bir-ikki ming kishi so‘zlashadimi, bundan qat'i nazar o‘zlari uchun aziz va keraklidir. Tilni kam sonli elat gaplashar ekan deb kamsitib yoki bo‘lmasa, ko‘p sonli millatning tili ekan, deb ulug‘lab bo‘lmaydi. Bunda sonning ko‘p yoki o‘zligini mezon qilib bo‘lmaydi. Har kimniki o‘ziga, oy bo‘lib ko‘rinadi ko‘ziga-da! Lekin dunyoda juda taraqqiy etgan, boy jahoniy tillar ham bor, endi tetapoya qilayotgan tillar ham yo‘q emas. Bu o‘sha tillarning sohibi bo‘lmish millat yoki elatlarning tadrijiy ravnaqi, bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, insoniy jamiyatning qaysi bir taraqqiyot bosqichida ekani, iqtisodi, madaniyati, fani va ma'naviyati hamda shu kabi omillarga bog‘liqdir, albatta.

Bugungi kunda davlat tilini rivojlantirish, shuningdek, boshqa Sharq va G‘arb tillarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu

maqsadlardan kelib chiqib, Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrasi professor-o‘qituvchilari yakdillik va hamjihatlik bilan istiqlol yillarining ilk kunlaridan boshlab, hozir qadar davlat tili bilan bir qatorda ingliz, nemis, fransuz, rus, xitoy, turk, arab, tojik, qoraqalpoq tillarini o‘rgatishga ulkan hissa qo‘shib kelmoqdalar. Kafedra a’zolari ko‘magida kursantlar to‘rt yil davomida kamida uchta tilni o‘rganishga muyassar bo‘ladilar. Ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy bejiz aytmagan, “Biz turkistoniylarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Har turkni forsiy va har forsni turkin bilmog‘i lozimdur. Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa’diy, “Masnviy”dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolstoy, Jul Vern va ulamoi zamoniy asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur”.

Ta’kidlash joizki, jamiyatda yuz bergan o‘zgarish va yangiliklar tilda so‘zlar vositasida o‘z ifodasini topadi. Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulki sanaladi. Ma’rifatparvar Abdulla Avloniy aytanidek, “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘an oyinai hayoti til va adabiyotidur”. Yillar mobaynida kafedra a’zolari tomonidan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi” hamda lotin yozuvida bir qator darslik, o‘quv qo‘llanma va lug‘atlar yaratildi. Birinchi navbatda, kursant va harbiy xizmatchilarga o‘zbek tilining harf va tovushlari, imlo qoidalari, adabiy til me’yorlari o‘rgatildi.

O‘zbekistonda lotin harflariga asoslangan ozbek alifbosi qollanishining ikki davri bor: O‘zbekiston Respublikasi tashkil topganidan song 1926-1940- yillargacha bolgan birinchi davr; O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingandan (1991-yil 31-avgust) keyingi ikkinchi davr. 1993-yil 2-sentabrda bo‘lib o‘tgan O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi” 31 harf va 1ta tutuq belgisi (apostrof) bilan tasdiqlangan. Mazkur alifboda 1995-yil 6-may Oliy Kengash qarori bilan o‘zgartirish kiritilgan. Shundan so‘ng alifboda harflar soni 29 ta bo‘lib qolgan. 6 tasi unli, 23 tasi undosh harflar sanaladi. Sh, Ch, Ng harf birikmalari undosh tovushlar sirasiga kiradi.

Alifboda harflar tartibi quyidagicha: Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, Oo, Gg, Sh sh, Ch ch, Ng ng.

Alifbodagi harflar qo‘llanish o‘rniga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: yozma va bosma harflar. Yozma harflarni yozishda qo‘l harakati uzluksiz uzilmaydi. Ayrim harflarning o‘zida tutashtiruvchi unsuri yo‘q. Bunda yordamchi unsur yozuv vaqtida qo‘shiladi. Yozma kichik harflar yozilishiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi: Ikki chiziq oraligiga yoziladigan harflar, ikki chiziqning yuqorisiga ko‘tarib yoziladigan harflar, ikki chiziqning ostiga tushirib yoziladigan harflar, qatorning ustiga ko‘tarib va ostiga tushirib yoziladigan harflar. Tutashtirilishiga ko‘ra uch guruhga: yuqori qismidan tutashtiriladi, pastki qismidan tutashtiriladi, o‘rta qismidan tutashtiriladi. Yozma bosh harflar tutashtirilishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: tutashtiruvchi unsurli bosh harflar, tutashtiruvchi unsursiz harflar.

Ikkinchidan, harbiy atamalarni milliylashtirishga e’tibor qaratildi. Natijada ko‘pgina atamalar milliykni kasb etdi. Jumladan, harbiy qism (kema) shaxsiy tarkibi uchun kechki yo‘qlamadan so‘ng, kun tartibida belgilangan soatda uyquga yotish uchun beriladigan komanda (signal) “отбой” so‘zi o‘rnida “uyquga” so‘zi, harbiy qismning kun tartibida ko‘rsatib o‘tilgan, harbiy xizmatchilarning tungi (kunduz kungi) hordig‘idan so‘ng o‘tkaziladigan tadbir, “подъём” so‘zi o‘rnida “uyg‘onish” so‘zi, harbiy qismda joriy etilgan kun tartibining kundalik tadbiri sanalmish “утренный осмотр” birikmasi o‘rnida “ertalabki ko‘rik” birikmasi, bo‘ysunuvchi shaxsiy tarkibga nisbatan-muayyan huquq va majburiyatlarga ega mansabdor shaxs “начальник” so‘zi o‘rnida “boshliq” so‘zi, muayyan rusumga mansub patronlarni joylashtirish va qurol patrondoniga yuborishdan avval, patronlarni uzatish chizig‘iga ketma-ket siljitish uchun mo‘ljallangan moslama “магазин” so‘zi o‘rnida “o‘qdon” so‘zi, shaxsii tarkib, jangovar texnika turi, tibbiyot muassasasi va omborxonalarni dala sharoitida joylashtirish uchun mo‘ljallangan yig‘ma inshoot “палатка” so‘zi o‘rnida “chodir” so‘zi, zaharlovchi va radioaktiv moddalardan insonning nafas olish organlari, ko‘zlari va yuzini himoya qilish uchun mo‘ljallangan shaxsiy himoya vositasi “противогаз” so‘zi

o‘rnida “gazniqob” so‘zi kabi bir qator o‘zlashma atamalar o‘zbekcha nomlari bilan harbiy sohada qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Milliy qonunchilikda “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, “Umumiy harbiy majburiyat Nizomi”, “Qurolli Kuchlarning saf Nizomi”, “Qurolli Kuchlarning intizom Nizomi” va bir qator normativ-huquqiy hujjatlar davlat tilida qabul qilindi. Shuningdek, Milliy gvardiya xodimlarining maxsus unvonlari, davlati tilida, ya’ni safdorlar tarkibi — “safdor”, serjantlar tarkibi — “kichik serjant”, “serjant”, “katta serjant”, kichik ofitserlar tarkibi — “leytenant”, “katta leytenant”, “kapitan”, katta ofitserlar tarkibi — “mayor”, “podpolkovnik”, “polkovnik”, generallar tarkibi — “general-mayor”, “general-leytenant”, “general-polkovnik” milliy nomlarga ega bo‘ldi.

Bularning barchasi davlat tilining leksik imkoniyatlaridan unumli foydalanayotganligi, nutqiy muloqot va munosabatlar milliy so‘zlar orqali yuzaga kelayotganligi hamda davlat tiliga bo‘lgan e’tibor yanada kuchayotganligini ifodalaydi. Ishonchimiz komilki, davlat tili yangi so‘z va atamalar bilan boyib, tadrijiy rivojlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 80 bet.

2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – O‘zbekiston: “O‘zbekiston”, 2021. – 462 bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabr “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risid”gi PF–5850-son Farmoni. lex.uz (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019 y., 06/19/5850/3939-son).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabr “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6084-son Farmoni. lex.uz (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020 y., 06/20/6084/1398-son).

Yodgorov J.J.,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

TAQLID SO‘ZLAR BADIIY MATNNING ASOSIY UZVI SIFATIDA

Annotatsiya: Maqolada taqlid so‘zlarning tarixiy rivojlanish tendentsiyalari, davriy jarayondagi ahamiyati va kelajak holati to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Xususan, taqlid tahlili uchun tildagi motivatsiyaning alohida turining bir ko‘rinishi sifatida bir qancha yondashuvlar mavjud.

Kalit so‘zlar: ikonizm, taqlid, etimologik xulosa, motvatsiya, fonosemantik mantiq, gipoteza, subyekt.

Uzoq vaqt davomida, ya’ni Platondan to hozirgi kungacha idrokning turli darajalarida til belgisining taqlid (ikonizm) muammosi chuqur ilmiy, zamonaviy va keng muhokama qilib kelinmoqda. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, hozirgi kunda tilshunoslik olamida “ikki eng asosiy muammo mavjud bo‘lib, til shaklining motivatsiyasi muammosi va til osti tizimlarining mustaqilligi yoki o‘zaro bog‘liqligi muammosi”[1] asosiy tadqiqot tarmog‘i hisoblanmoqda. Xususan, belgining fizik va ruhiy komponentlarining o‘zaro ta’sirini baholash tilning umumiy tuzilishini, uning ichki qonuniyatlarini hamda voqelik obyektlari va hodisalarini inson idrok etishining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun zarurdir. Bundan tashqari, tilning taqlidiy salohiyatini baholash uning kelib chiqish sharoitlarini va kelajakda til o‘zgarishlarining ehtimolligini tushunishga yordam beradi.

Ilmiy nuqtai nazardan taqlid (onomatop) so‘zlar tilshunoslarning qiziqishini doimo o‘ziga jalb qilib kelgan. Uzoq vaqt davomida taqlid jihatdan birlik nominativning asosiy vazifalarini amalga oshirish sifatida ko‘rilgan. Bu funktsiya qadimgi yunon falsafasida o‘z ildizlariga ega bo‘lgan va ma’lum falsafiy tendentsiyalar (stoitsizm) bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tilning taqlid nazariyasidan kelib chiqadi. Biroq taqlid so‘zlar har bir tilning ifodaviy so‘z boyligi vazifasini ham o‘taydi.

Ko‘plab tadqiqotlar tildagi so‘zning tovush shakli tarkibini lingvistik nazariyasi talqini asosida o‘rganishga asoslangan. Uning dolzarbligi umuman tilda, xususan, badiiy nutqda ifoda mutanosibligi hamda mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlik aloqaning mukammalligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, qadimdan ovozni semantik funktsiyalarini takrorlash ko‘plab fan va sohalarni, aynan filologlarni qayta-qayta o‘ziga jalb qilib keladi. Tilshunoslikda shakl ramziy ma’no sifatida tushuniladi, shu munosabat bilan nutqning fonetik shakli juda ahamiyatli hisoblanadi.

Fanda tovushli nutqni o‘rganish, til mavjudligining shakllaridan biri sifatida tushunish va uning tarkibiy fizik xususiyatlarini tadqiq etish kerakligi kundan-kun dolzarblik kasb etmoqda. Shu bilan birga, lingvo-sinergetika nuqtai nazaridan matnga eng oqilona tarzda, lingvopoetik tarzda yondashuv talab etiladi. Bu matnning fonik tomonini to‘liq his qilish jarayonlariga ta’sir etadigan asosiy omil ekanligini belgilaydi.

Taqlid tahlili uchun tildagi motivatsiyaning alohida turining bir ko‘rinishi sifatida bir qancha yondashuv va tarqoq qarashlar evolyutsiyasi mavjud. Bu til hodisasi uning grammatik ta’rifi va leksik holati hamda badiiy matn sathi nuqtai nazaridan muntazam munozaraga sabab bo‘ladi. Ayrim olimlar tovush tarkibiga undovchi birliklarning mavjudligini inkor etishga moyildirlar. Aksincha, boshqa bir tomon esa ma’lum bir so‘zdagi ayrim tovushlarning tasodifiy emasligini isbotlashga harakat qiladilar va shu fakt asosida etimologik hamda semantik xulosalarga keladilar. Bu ikki chegara, ehtimol, motivatsiya va til belgisining ixtiyorsizligi (mustaqilligi) masalalari tilshunoslik chegarasidan uzoq vaqt o‘tib, falsafiy maqomga ega bo‘lganidan kelib chiqqandir. Tilning kelib chiqish gipotezasi doirasida taqlid tushunchasining aynan kelib chiqishi haqida ham shunday deyish mumkin. Bizningcha, taqlid lingvistik va psixolingvistik hamda lingvopoetik voqelik fakti sifatida ayrim spetsifikatsiya va aniqlashtirishga muhtoj. Bu ushbu hodisani talqin qilish va tushunishdagi farqlar tufayli zarurdir.

Har qanday voqelikni inson barcha sezgilari bilan idrok etadi. Predmetni bilish va anglashda eng faol ishtirok etish ko‘rish hisoblanadi. Bunda tanlangan obyektning hajmi, shakli, rangi, fazoda joylashishi, predmetdan uzoqligi va boshqalar asosiy faktorlar hisoblanadi. Muayyan

haqiqat bilan tanishishda kamroq faol ishtirok etish (kamroq ahamiyatga ega bo‘lsa-da), nofaolroq signal sistemalari: teginish, hid va ta’m bilish bilan olinadi. Olim Yu.Monichning fikriga ko‘ra, inson idrok jarayonida voqelikning muayyan bir bo‘lagi eng ajoyib va ahamiyatli detallar umumiy fonga qarab shakl chizadi [2].

Idrokning fiziologik jihatlarini, ya’ni eshitish yoki ko‘rishning ustunligi kabilarni hisobga olsak, yetakchi ko‘rish a’zo hisoblanadi. Lekin nominatsiya paytidagi odam tabiiy yo‘nalishga ega ekan, obyektni boshqa bir qator obyektlardan ajratish va ovoz xarakteristikasi cheklangan miqdordagi voqelikka xos hisoblanadi. Shu munosabat bilan odamlar va hayvonlarning fonatsiyasini hamda jonsiz tabiatni bildiruvchi so‘zlar orasida juda ko‘p va bir-biriga o‘xshash taqlidlarni uchratishimiz mumkin. Asosiysi, ilm-fan texnikasining rivojlanishi, IT sohalari va intellektning globallashuvi hamda insonning intuitiv hissining tadriji taqlidlar sonini tinimsiz ko‘payishiga olib keladi.

Taqlid hodisasi turli olimlar tomonidan turlicha ta’riflanadi. Ba’zi olimlar (Platon, Gerder (Xerder), Renan, Pogodin va boshqa [3]) uni tilning kelib chiqishi haqidagi gipotezaning bir qismi deb hisoblaydilar. Boshqa bir olimlar esa (Budagov, Golovin, Barannikova va hk. [4]) taqlidni inson miyasi, fikrlash qobiliyati voqelikni shu tarzda idrok etishga tayyor bo‘lgan paytda ma’lum bosqichda paydo bo‘lgan nisbatan yangi hodisa sifatida tushunadilar. Tabiiyki, bu til hodisasiga bunday xilma-xil qarashlar bilan u ham turlicha belgilanadi.

Keyingi davr psixolingvistikasi bizga taqlidni tushunishning yangi jihatini ochib berdi. Belgi shaklining primar (birlamchi) motivatsiyasi tushunchasi kiritiladi[5]. Bu psixolingvistika taqlidning istalgan joyini aniqlashga harakat qiladi, chunki tilshunoslik fanining o‘zida ayrim bo‘shliqlar mavjud. Til belgilarining shartli ravishda hosil bo‘lishiga, ya’ni ularning tovush shakli bu so‘zlar ortida turgan belgilarning xususiyatlariga asoslanmasligiga ko‘pchilik tilshunoslar harakat qilganidek, uni “til periferiyasi”ga surish mumkin emas”[6]. Psixolingvistika ibtidoiy motivatsiyaning ikki turi – taqlid va ideofoniyaning mohiyatini ochib beradi. Agar referent obyektlarni eshitish orqali taqlidni, vizual tajriba natijasida ideofonlarni vujudga keltiradi. Bu ikkala hodisa (taqlid va

ideofoniya) ham bir narsani aks ettiradi, faqat bu so‘zning tovush qobig‘i va uning denotati o‘rtasidagi aloqaga bog‘liq. Ideofonlar, qaysidir ma’noda, insonning onggiy ravishdagi metaforik “nusxalar”dir va o‘sha tasvirlarning uyushmalariga o‘xshaydi. Bularga umuman tez siltanish, uchqunlanish, tez harakatlanishni belgilashlar kiradi. Ba’zida kuchsizlik, arang harakat, tasvirning xiraligi kabi jihatlar ham ifodalanadi.

Bu joylar kechalari juda vahimali, qo‘rqinchli bo‘lardi. Ko‘prik tagida ajinlar bor, deb tunda ko‘prikdan deyarli odam o‘tmasdi. Bu joylarga hali elektr kelmagan, atrofda ***milt*** *etgan bir nur ko‘rinmasdi.* A.Qahhor. Muhabbat.

Bizningcha ham, taqliddagi har qanday fonetik birlik taqlidning semantik xarakterini belgilaydi, ideofonlar esa tilning motivli birliklaridir. Shuning uchun bu motiv taqliddan farq qiladi va o‘zining ichki, psixologik, semantik, pragmatik va badiiy matnda lingvopoetik asoslariga ega.

Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib ***dag‘-dag‘*** *titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko‘zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi. Xotinlar o‘g‘rini qarg‘aydi, it huradi, tovuqlar qaqag‘laydi.* A.Qahhor. Og’ri.

Tovush va uning ma’nosi o‘rtasida bog‘liqlik borligi aniq, ammo bu aloqaning tabiati kamdan-kam hollarda to‘liq yetarlicha tasvirlanadi. Ko‘pincha bu haqda faqat taxmin qilish mumkin va aksariyat hollarda biz bu haqda tasavvurga ega emasmiz. Aniqrog‘i, tovush va ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlik har doim ham yuzaga chiqavermaydi, ovozli-ramziy so‘zlar hanuzgacha har qanday til lug‘atining ozgina o‘rganilgan qatlami bo‘lib qolmoqda hamda tadqiqotlar uchun katta qiziqish uyg‘otmoqda. Lingvistik belgining motivatsiyasi, taqlidiylik darajasini eng obyektiv aniqlash faqat ma’lumot beruvchilar bilan ishlash jarayonida, psixolingvistik eksperiment jarayonida fonosemantik tadqiqotlar orqali aniqlash mumkin. Alohida tovushlar va narsalarning muayyan fazilatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida birinchi bo‘lib fikr bildirgan Aflotunning so‘zlariga ko‘ra, so‘z obyektning bir turi, uni ko‘proq yoki kamroq mukammal aks ettiradi. Darhaqiqat, taqlidlar anomal vaziyatdagi umumlashgan fonatsiya, lekin o‘ziga xos aynan to‘liq ma’no, o‘zining aynan lingvopoetik qirralarini

ifodalamasligi ahamiyatlidir. U tovushlarni aks ettirish natijasida inson tomonidan yaratilgan umumlashgan ma’nolarni ifodalovchi so‘zlarga ergashgan hollarda, ya’ni badiiy matnda aniq ochib beriladi. E’tibordan soqit etmaslik kerakki, har qanday taqlidiy fonatsiya obyektining mustaqilligi, ya’ni mental so‘z yasash instinkti saqlanib qolaveradi.

– *Men rozi!*

– *Adabsizlik bo‘ladi-da,* ***xrrr...*** O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar.

– *Senda bor bola, boshqalarda yo‘qmi? Ma, o‘qi! Ammo birovga* ***g‘ing*** *deya ko‘rma.* A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

Keltirilgan fragmentlarda ajratib ko‘rsatilgan taqlidiy fonatsiyalar bir-biridan bir necha kauzativ ma’nolariga ko‘ra farqlanadi. Xususan, semantik jihatdan, fonetik-fonologik va ierarxik-diaxron jihatdan farqlanishlarning asosiysi, ierarxik-diaxron farqlanishdir. Birinchi misoldagi fonatsiya *(xrrr...)* subyekt tomonidan, aynan matn talabi bilan individual kashfiyot sifatida, anomal nutqiy vaziyat asosida kiritilgan. Jumladan, bu so‘z o‘zbek tili so‘z tarkibida semantik shakllanmagan va akkumulyativ tarzda leksik bazamizda saqlanmaydi. Bu bilan adib tomonidan qo‘llangan bu leksik birlikni badiiy matnda noo‘rin qo‘llangan deyishdan yiroqmiz. Chunki, asar personajining fiziologik-nutqiy aktini salbiy baholash maqsadida unga dinamik-personal belgi sifatida ushbu taqlidni tirkaydi. Natijada, o‘quvchi personajning xarakter xususiyatini shu leksik ko‘rsatkich(belgi)lar orqali ham tezda tushunib yetadi. Buning nozik jihati shundaki, ba’zi o‘rinlarda subyekt bu mustaqillikdan, taqlid so‘z yaratishdagi so‘z yasash instinktidan o‘rinsiz foydalanadi. Bu badiiy matnda turli g‘alizliklarni keltirib chiqaradi va asarning poetik qimmat hamda ishonchlilik darajasini pastlashishi mumkin.

Kundalik hayotimizni tovushlarsiz tasavvur qilish juda qiyin. Atrof tabiatning tovushlari, shuningdek, odamlarning nutqi dunyoni idrok etishda asosiy rol o‘ynaydi. Bola tug‘ilgach, tevarak-atrofdagi voqelikni teginish, hid bilish, ko‘rish va eshitish orqali bilib ola boshlaydi. Taqlid so‘zlar istisnosiz barcha bolalar uchun xosdir, chunki ular aytgan birinchi so‘zlar bu leksemalarni o‘z ichiga olgan erkin so‘zlardir.

Adabiyotlar:

1. Будагов Р.А. Проблемы развития языка. – Москва: Наука, 1965; Головин Б.Н. Введение в языкознание. – Москва: Высшая школа, 1983; Баранникова Л.И. Введение в языкознание. – Саратов: СГУ, 1973.
2. Монич Ю.В. Проблемы этимологии и семантика ритуализованных действий. – Москва: Наука,1998. – С. 99.
3. *Платон*. Собрание сочинений в 3 т. (в 4 кн.) (Серия «Философское наследие»). - Москва: Мысль, *1968; Гердер* (*Хердер*) И. Г. Идеи к философии истории человечества. Москва, Наука, 1959; Ренан Э. О прихождении языка.- Воронеж,1866; Погодин А.Л. Язык как творчество: психологические и социальные основы творчества речи: происхождение языка.
4. Будагов Р.А. Проблемы развития языка. – Москва: Наука, 1965; Головин Б.Н. Введение в языкознание. – Москва: Высшая школа, 1983; Баранникова Л.И. Введение в языкознание. – Саратов: СГУ, 1973.
5. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Высшая школа, 1984. - С. 92.
6. Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики. – Москва, 1997. – С. 12-13.

MUNDARIJA

MUQADDIMA **3**
Konferensiya ishtirokchilariga tabrik so‘zi **5**
Alimova Sh.M., Sadullayeva N.E. Xorazm shevalaridagi arab tiliga mansub leksik qatlam yuzasidan ayrim qaydlar **7**
Артыкова Г.Ш., Рузметова З.Н. Об изучении структурных типов сложноподчиненных предложений **10**
Атаева Р.Р. Прагматический и когнитивный аспекты взаимовлияния узбекского и русского языков (на материале историзмов) **16**
Ataxanova M.R. Komil Avazning “yoqut momo” hikoyasida dialektizmlarning ishlatilishi **22**
Азизов Қ. Тил маданиятини ошириш – давр талаби **26**
Азизов Қ. Она тили –ақлий тарбиянинг муҳим омили **29**
Азизов Қ. Тил - фаол мулоқот воситаси **33**
Choriyev T. Davlat tili va uning huquqiy asoslarini milliy qonunchilikka mustahkamlanishi **37**
Darvishova G.K. Cultural differences that might affect behaviour **41**
Эгамбердиева Г.М. Истоки идеи оптимизации в педагогике **45**
Erkayev E.T., Temirov J. Maxmur she’riyatining tili va o‘ziga xosligi **49**
Hashimova S. Features of the organization of foreign language teaching in the modernization of educational content **53**
Jaxongirovna D.Sh. Intervyuda diskursning lingvistik xususiyatlari **56**
Jaxongirovna D.Sh. Intervyu matnning lingokulturologik aspekti va nutq madaniyati bilan aloqasi **61**
Джуманиязова Н. А. О соблюдении литературной нормы при изучении узбекского языка **64**
Джуманиязова С.Р. Язык как символ родины **67**
Йўлдошев И. Сўз қисмати – миллат қисмати **72**
Karimova F.S. O‘zbek muloqot nutqida psixolingvistik qirralar **81**
Латипов О.Ж. Язык – духовное богатство народа..... **86**

Matniyazov A.R. Avaz O‘tar o‘g‘lining “Til” radifli g‘azalida ma’rifatchilik g‘oyalari**.....93**
Mengliyeva S.S. Tilni asrash elni asrash demakdir**.....97**
Mo‘minova O.Q. Talabalar nutqini keys texnologiyasi orqali rivojlantirish **99**
Муҳаммадаминов С.А. Туркий тилда ёзилган ва таржима қилинган ислом ҳуқуқига оид ёзма ёдгорликлар ва уларнинг аҳамияти**…….....105**
Musayeva Sh.I. Milliy til – xalqlar va millatlarning asosiy muloqot manbaidir……**110**
Nasirova S.A. Interfaol ta’lim va uning til sohasidagi o‘rni……**113**
Orazimbetova Z.Q. Tilga e’tibor – millatga, tarixga va kelajakka hurmatdur**……117**
Попова А.А. Язык – главное достояние народа**.....122**
Pulatova D.Z. O‘zbek tilini ona tili, ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish tamoyillari**.....126**
Qabulova D.R. O‘zbek ayol ismlarining xorazm shevalariga xos ko‘rinishlari tahlili**.....131**
Radjabov N.N. O‘zbek va ingliz tillarida unlilarning orfoepik interferensiyasi **135**
Rashidova M.X., Namozova D.B. The importance of military education in strengthening patriotism among Uzbekistan’s youth**……139**
Рузметова З.Н., Артыкова Г.Ш. Роль узбекского языка и литературы в формировании гармоничной личности**……...143**
Шаменова Г.М. Технология творческого обучения при преподавании русского языка будущим военным психологам**…….147**
Shirinova Nargiza Ingliz tili darslarida harbiy oliy ta'lim muassasalari kursantlariga til materialini o‘rgatish usullari……..**151**
Shirinova Nilufar Dj. Parallelizm – lisoniy hodisa sifatida **.....155**
Shonazarova D.J. Intervyu matnning lingokulturologik aspekti va nutq madaniyati bilan aloqasi**.....159**
Shonazarova D.J. Intervyuda diskursning lingvistik xususiyatlari **.....162**
Тангиров О. Ўзбек тили борасида ҳожи муиннинг ғоялари**.....166**

Туйчибаева Ш.Ш., Белых Л.Х. Развитие коммуникативной компетенциии при обучении русскому языку **.....169**
Umarova F. Z. Til bilganga ming tanga, yoxud ona tili haqida o‘ylar **.....176**
Usmonova Z.J. Xorijliklarga o‘zbek tilini lingvokulturologik yondashuv asosida o‘qitishda didaktik materiallarni tanlash tamoyillari **.....181**
Xojanazarov A. Jurnalistning adabiy tildan foydalanish mahorati va nutq madaniyati masalasiga doir **.....1855**
Xursandov A.S. Til bilmoq – el bilmoq…….**190**
Yodgorov J.J. Taqlid so‘zlar badiiy matnning asosiy uzvi sifatida **.....195**

“TIL – MILLAT KO‘ZGUSI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

2023-yil 18-oktabr

Muharrirlar: Latipov O.J., Umarova F.Z.,
Shirinova N.J., Egamberdiyeva G.M.
Texnik muharrir: Ravshanov U.M.

Bosishga ruxsat etildi: 04.11.2023. y. Buyurtma: № 195. Format 60x90/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hisob nashriyot t.: 9,48. Shartli b.t. 12,75. Adadi: 5 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi